

R.X.Nosirova, G.Gaynazarova,
N.Tojiboyeva, Z.Qurbonova, L.Narimbayeva

МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМДА РАҲБАРЛИК



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

R.X.Nosirova, G.A.Gaynazarova, N.Tojiboyeva, Z.Qurbonova,

L.Narinbayeva

MAKTABGACHA TA'LIMDA

RAHBARLIK

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI**

CHIRCHIQ-2021

«Malik print co» nashriyoti

UO'K 373.378

KBK 74.24

K-86

R.X.Nosirova, G.A.Gaynazarova, N.Tojiboyeva, Z.Qurbonova,
L.Narimbayeva / Maktabgacha ta'limda rahbarlik/ Darslik. – Chirchiq: «Malik
print co», 2021. –148 bet.

Maktabgacha ta'limda rahbarlik darsligi Oliy ta'lim tashkilotlari 5111800-
Maktabgacha ta'lim yo'nalish talabalari uchun mo'ljallangan.

Ushbu darslik Maktabgacha ta'limda rahbarlik fani bo'yicha yaratilgan bo'lib,
unda mazkur faning o'quv dasturi, ishchi dasturi, ma'ruza mashg'ulotlarining
amaliy, seminar mashg'ulotlarining jamlangan holda tayyorlangan.

Tuzuvchi mualliflar:

R.X.Nosirova, G.A.Gaynazarova, N.Tojiboyeva, Z.Qurbonova,
L.Narimbayeva –Maktabgacha ta'limda rahbarlik (Main): nomi darslik

Tag'rizchilar:

Z.Y.Shanasirova – TVChDPl "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrası
mudiri, dotsent

D.A.Abdurahimova – O'zberiston Respublikasi Qur'oli Kuchlar Akademiyasi
"Gumanitar fanlar" kafedrası p.f.d. (DSc), professori

ISBN 978-9943-9395-7-8

© R.X.Nosirova, G.A.Gaynazarova va b, 2021
©«Malik print co», 2021

Kirish

Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birinchi bo'g'ini
hisoblab, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va
maktabga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda davlatimiz
tomonidan maktabgacha ta'limning rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Qisqa
davrlarda sohani rivojlantirishning huquqiy bazasi yaratildi.

Ushbu darslik mazmunida tashkilot rahbarining vazifalari, faoliyatini tizimli
boshqarish, ta'lim- tarbiya jarayonini tashkil etish vazifalari yoritib berilgan.
O'zbekistonda ijtimoiy maktabgacha ta'limni tashkil etishning asosiy bosqichlari,
asosiy xususiyatlari va maktabgacha ta'lim bo'yicha yuqori malakali rahbar, uslubchi,
mazoratchi va tarbiyachilarni tayyorlash vazifalari, usul- uslublari, maktabgacha ta'lim
bo'limining asosiy vazifalari metodik rahbarlik qilish tamoyillari o'quv dasturining
asosiy mazmunini tashkil etadi.

Maktabgacha ta'limda rahbarlik fani bo'layak mudiralarining maktabgacha
ta'lim tashkiloti faoliyatida boshqaruv jarayoni va uni tashkil etish bilan yaqindan
tanishadi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim sohasiga qo'yilgan talablar, tamoyillar,
mazmuni va tarbiyachi faoliyatini shakllantirishning pedagogik asoslarini
o'rgatadi.

Maktabgacha ta'limda rahbarlik fanini o'zlashtirish jarayonida talabalar
quyidagi bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarga ega bo'ladi:

– Maktabgacha ta'limda boshqaruvning mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari,
ta'limiy –tarbiyaviy jihatlarni topishi, hamda kasbiga bo'lgan munosabatni
tarbiyalash. Mudira va uslubchining kasbiy xususiyatlari va unga qo'yilgan
talablar;

– Maktabgacha ta'limni tashkil etish va boshqarishning nazariy asoslari
bilan qurollantiriladi. Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil
etish qonuniylari bilan tanishtiradi.

– Maktabgacha ta'limda ish hujjatlari bilan ish olib borish, bu faoliyat
jarayonida mudira va uslubchining vazifalari o'rgatiladi.

1-Mavzu: Maktabgacha ta'lim taraqqiyoti.

Reja:

1. O'zbekistonda maktabgacha ta'limning vujudga kelishi va taraqqiyoti.
2. Maktabgacha ta'lim tizimining vujudga kelishi.
3. Maktabgacha ta'limni rivojlantirishining asosiy bosqichlari.

Tayanch atamalar: "Maktabgacha ta'lim to'g'risida"gi nizom, "Jamiyati hayriya", bolalar yetimxonalari, yasli, "Bog'dorchilik" jamiyati, bolalar maydonchasi.

O'zbekistonda maktabgacha ta'limning vujudga kelishi va taraqqiyoti.

O'rta Osiyoda XIX asrning 80-90 yillariga kelib, bolalar maktabgacha ijtimoiy tadbiriysi g'oyalari yetila boshlandi. O'sha davrda taraqqiyparvarlik kayfiyatidagi mahalliy ziyollilar mehnatkash ayollarning og'ir ahvolini va bolalar nazoratsizligini ko'rib, ularning qismatini yengillashirishga intila boshladilar. Bu ziyollilar vakillari 1871-yilda Turkistonda tuzilgan "Jamiyati xayriya" tarkibiga kigan edilar. "Jamiyati hayriya" tashkiloti tomonidan miskinlar uylari, tunash joylari, tug'ruq joylari bilan bir qatorda ota-onasi bo'lmagan bolalar uchun yetimxonalarni tashkil etdi.

Bu yetimxonalar oz sonli bolalarni butun Turkistonda tuzilgan taxminan 150-200 kishini o'z ichiga oldi. Ushbu yetimxonalar yasli yoshli bolalardan tortib maktab yoshidagi bolalarni ham qamrab olgan.

1896-yilda Turkistonda vositalar kengashi kambag'allarning bolalari uchun "yasla"lar deb ataladigan tashkilotlarni tuza boshladi. Yaslilarga atak-chechak qila boshlagan bolalar qabul qilingan va maktabga kelgunga qadar tadbiralangan bolalar kun bo'yi yaslada bo'lishar va uch marta ovqatlanirlar edi. Yasla ishlarini nazoratchi ayol boshqargan, xizmat qiluvchi xodimlar ham bo'lgan. Bu tashkilotda duolar o'qishga (duogo'ylikka) qat'iyat bilan o'rgatilgan. Shuningdek, bolalarni oddiy o'qishga, yozishga, sanashga, toqishga, to'r to'qishga, tikishga va boshqa

hunarlariga o'rgatilgan. Butun o'ika bo'ylab shunday yasladardagi bolalar soni 50-60 boladan oshmas edi.

Turkistonda kambag'allarning bolalari uchun Toshkent, Samarqand, Sirdaryo, Namangan yetimxonalar tashkil etilgan.

Imtiyozli sinflarning bolalari uchun 1891-yilda "bog'dorchilik" jamiyati tomonidan Toshkent istirohat bog'ida Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar uchun " Bolalar maydonchasi xilida" birinchi bolalar bog'chalar ochildi. Bolalar bog'chasi uchun istirohat bog'i maydonidan sersoya joy ajratib berildi. Maydonchada arg'imchoq, qayiqdar, katta arg'imchoq (ustunga osilgan) o'rnatildi va xilma-xil o'yinchoqlar tayyorlandi. Maydonchada gulzor katta o'rinni egallab, bolalar o'zlarini o'simliklarni parvarish qilishardi.

1891-1903-yillar davomida mablag' yo'qligi sababli bog'cha bir necha marta yopilgan. Ta'lim-tarbiyaga oid ilg'or g'oyalarning ta'siri ostida Toshkentda 1903-yil fevral oyida "Oila"viy ta'lim-tarbiya to'garagi" tashkil qilindi. To'garak harbiy Ministar va Xalq maorifi tomonidan tasdiqlangan Ustav asosida ish boshladi. U o'z o'ldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

1. Bolalarga ta'lim-tarbiya berish usullarini rivojlantirish va takomillashirishda yordam berish;

2. Pedagoglar bilan ota-onalarni va bolalar tadbiriysi ishini boshqaradigan kishilarni(o'ila, maktab va bolalar bog'chasining yagona tadbiriyaviy ta'sir etishini belgilash maqsadida) bir-birlariga yaqinlashirish.

Bu to'garakning maktabgacha seksiriyasi ham faoliyat ko'rsatgan. Ta'lim-tarbiya to'garagi yuzaga kelgunga qadar bolalar bog'chasining tadbiriyaviy ishida muayyan pedagogik tizim yo'q edi, shu sababli to'garak a'zolari bolalar tadbiriyasi bilan bog'liq bo'lgan masalalarni muhokama qilishar edi

Bolalar birinchi marta 4 yoshdan 6 yoshgacha va 6-10 yoshgacha bo'lgan ikki xil yosh guruhlariga bo'linadi. Mashg'ulotlar, o'yin va ko'ngil ochishlar programmi belgilab qo'yildi. Harakatli o'yinlar, xo'r bo'lib aytiladigan ashula, o'qish, rasm chizish, loy va plastilindan narsalar yasash, gimnastika mashqlarini

reglamentga soladigan jadval tuzildi. Ota-onalarning talabi bilan fransuz va nemis tillari o'rgatilgan, bu ishlar mutaxassislar tomonidan tekin amalga oshirilgan.

Ta'lim-tarbiya to'garagi bolalar bog'chasida tarbiyaviy ish saviyasini oshirishga yordam berdi. Tarbiyaviy ish mazmuniga muayyan tizimning, xilma-xil shakllari kiritildi. Lekin maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan tarbiyachilar bo'lmaganligi sababli ko'pincha bog'cha tarbiyaviy ishining mazmuni betartib amalga oshirilar edi. 1903-1914-yillar davri maktabgacha tarbiya sohasida ta'lim-tarbiya g'oyalarning jadal sur'atda o'sishi bilan xarakterlanadi.

Sirdaryo, Samarqand, Toshkent shahrida bolalar bog'chalari kabi ayrim bog'chalar yuzaga keldi. 1909-1910-yillarda va keyinchilik xususiy bog'chalar paydo bo'ldi: bu bog'chalarda 6 yoshdan boshlab bolalarni asosan gimnaziyaga o'qishga tayyorlashar edi. Bunday bolalar bog'chalari xususiy uylarda ochila va tamonila ota-onalar ta'minotida bo'lgan. Ma'lumotga ega bo'lgan va chet tillarini biladigan o'qimishli xonimlar tarbiyachi edilar. Ammo mazkur bolalar bog'chalari faqat badavlat ota-onalar ehtiyojini qondirgan. Davlat tomonidan ijtimoiy bolalar bog'chalari 1917-yildan keyingina yalpi tarzda tashkil etildi. 1917-yil 20-noyabrda Xalq Komissarlari tomonidan "Maktabgacha tarbiya yuzasidan Deklaratsiya" e'lon qilindi. Bunda: "Bolalarni ijtimoiy tekin tarbiyalash bolaning birinchi tug'ilgan kunidan boshlanadi" – deyilgan edi.

Maktabgacha tarbiya butun xalq maorifi-tizimining birinchi bo'g'ini tarbiy qismi bo'lib qoldi. 1919-yilda qabul qilingan davlat dasturlarida, xalq maorifi sohasida: ijtimoiy tarbiyani yaxshilash va xotin-qizlarni ozod qilish maqsadida maktabgacha tarbiya muassalari tarmoqlarini vujudga keltirish haqida fikr yuritildi.

Turkistonda dastlabki davlar bolalar bog'chalari 1918-yilning ikkinchi yarmida tashkil etila boshlandi. 1918-yil 20-oktyabrda Turkiston Maorifi Xalq Komissarligi qoshida Respublikadagi maktabgacha tarbiya sohasida barcha tadbirlarni amalga oshirish uchun ma'muriy organ sifatida maktabgacha tarbiya bo'limi tashkil qilindi xuddi shu yilda viloyat xalq maorifi bo'limlarining maktabgacha tarbiya kichik bo'limlari tashkil qilingan. Bu tadbir Respublikada

tarbiyaning rivojlanishiga yordam berdi. Maktabgacha tarbiya bo'limlarining faoliyati uch asosiy yo'nalishdan:

1. Bolalar bog'chalarini ochish, ularni binolar, mebel va jihozlar bilan ta'minlash

2. Maktabgacha tarbiya xodimlari, shu jumladan mahalliy, milliy vakillaridan kadrlar tayyorlash;

3. Ota-onalar o'rtaida tashviqot-tushuntirish ishlarini olib borishdan iborat edi.

"Maktabgacha tarbiya bo'limi to'g'risi"da Nizom qabul qilindi va unda bo'lim 3 yoshdan 8 yoshgacha bo'lgan maktabgacha tarbiya yoshidagibolalar tarbiya tashkilotlariga boshchilik qiladi, mavjud tashkilotlar ishining borishini kuzatadi, yangi bolalar bog'chalari, yasillar, bolalar uylari, maktabgacha bolalar uchun umumiy yotoqxonalar, bolalar yozgi koloniyalari ochildi, bolalar bog'chalari rahbarlari, enagalar va kadrlar tayyorlash maqsadli kurslari tashkil qilindi, deyiladi.

O'zbekistonning tub joy aholisi bolalarini maktabgacha tarbiya tashkilotlariga jalb etish uchun kurash juda murakkab va qiyin sharoitda olib borildi. 1918-yilda Toshkentning sobiq eski shahar qismida o'zbek bolalari uchun 4ta bog'cha ochishga muvaffaq bo'lingdi.

Birinchi bog'cha – Shayhontohur dahasida Hasanova mudiri; Mahsuma Qoriyeva va Robiya Abdurashidova (tarbiyachi) faoliyat ko'rsatgan.

Ikkinchi bog'cha – Xo'ja ko'chasida Anvar Yausheva mudiri bo'lgan.

Uchinchi bog'cha – Ko'kcha dahasida tarbiyachi Qodirxonov mudirlik qilard edi.

Nazorat savollar

1. O'zbekistonda maktabgacha ta'limning vujudga kelishi va taraqqiyoti haqida ma'lumot bering?

2. Maktabgacha ta'lim tizimining vujudga kelishi sabablarini ayting?

3. Maktabgacha ta'lim rivojlanishining asosiy bosqichlari sanab bering?

2-Mavzu: O'zbekistonda maktabgacha ta'limning tashkil etilishi

Reja:


1. Maktabgacha ta'lim tushunchasi.
2. Maktabgacha ta'lim tizimi
3. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining zamonaviy tizimi.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismini hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyogini uyg'otib, tizimli o'qishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta'lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va oilada amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'limning maqsadi – bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyogini tarbiyalashdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish maktabgacha ta'lim tashkiloti hamda shundagi tibbiyot xodimlari, shuningdek maktabgacha ta'lim tashkilotga birlashtirilgan sog'liqni saqlash organlarining tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi va qoidalari, maktabgacha ta'lim tashkilotga bolalarni olib kelish va olib ketish qoidalari, maktabgacha ta'lim tashkilot binolarida xavfsizlikni tashkil etishga oid talablar, maktabgacha ta'lim tashkilotida yong'in xavfsizligini tashkil etishga oid talablar, hudud xavfsizligiga bo'lgan talablar "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi to'g'risida Nizom" bilan tartibga solinadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari – O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim muassasalarining turi bo'lib, turli yo'nalishdagi maktabgacha bo'lgan davrdagi umum ta'lim dasturlarini amalga oshiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalashni, o'qitishni, nazorat qilishni, parvarishlashni va sog'lomlashtirishni ta'minlaydi.



Maktabgacha ta'lim tizimi

Maktabgacha ta'lim tashkilotini tashkil etish tartibi, faoliyatini tashkil etish va buntlash, hamda maktabgacha ta'lim tashkilotining mol-mulki va pul mablag'lari, javobgarligi, boshqaruvi va ta'lim jarayoni qatnashchilari to'g'risidagi kerakli ma'lumotlarni "O'zbekiston Respublikasida davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti to'g'risida Nizom" dan olishinigiz mumkin.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining zamonaviy tizimi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli qarori qabul qilindi. Konsepsiyada O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo'nalishlari, o'ra va uzoq muddatli istiqbolidagi bosqichlarini belgilaydi hamda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

Konsepsiyada quyidagilar belgilandi.

- O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi;

- O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2019 yilda amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xaritasi»;

- 2019 — 2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari;

- 2025 — 2030 yillarda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida quyidagilarni amalga oshirish belgilandi:

- maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;

- maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

- bolalarning sifati maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

- maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

- maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish shaffoqligi va samaradorligini ta'minlash;

- maktabgacha ta'lim tizimiga maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga muvofiq yangi yondashuvlarni joriy etish;

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning sog'lom va balanslashtirilgan ovqatlanishini, sifati tibbiy parvarishini ta'minlash.

Maktabgacha ta'lim tizimining joriy holati va uni rivojlantirishdagi mavjud muammolar

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga tayanib, Yuzuz nashrinining yozishicha 2021 yil boshida O'zbekistonda 7753 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyat yuritadi, ulardan 5 604 tasi (79 fond) - davlat, 63 tasi - idoraviy va 1 437 tasi (21 foiz) - nodavlat muassasalaridir.

2017-2018 yillarda 752 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlari filiallari negizida yuridik shaxs maqomiga ega to'laqonli maktabgacha ta'lim tashkilotlari tashkil qilingan.

3-7 yoshdagi bolalarning umumiy sonidan (2,5 mln) 932 310 nafari (37,7 foiz), shundan shaharlarda 500 236 nafari (20,2 foiz) va qishloq joylarda 432 074 nafari (17,4 foiz) maktabgacha ta'lim bilan, qamrab olingan. Respublika aholisining umumiy soni 2019 yil 1 yanvar holatiga 32,7 mln kishini tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, aholining uzoq muddatli o'rtaacha o'sish sur'atlari 1,7-1,8 foizni tashkil qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ar o'rtasida o'lim koeffitsientining boshqa barcha yosh guruhlariga nisbatan pastligini o'z ichiga olganda, 3-7 yoshdagi bolalar sonining 1 o'sish sur'atlari butun aholining o'sishiga qaraganda yuqoridir.

O'zbekistonda yashovchi 3-7 yoshdagi 2,5 milliondan ortiq bolalarning 67,8 foizi Samarqand (12,1 foiz), Farg'ona (10,8 foiz), Qashqadaryo (10,5 foiz), Andijon (9,3 foiz), Surxondaryo (8,5 foiz), Namangan (8,4 foiz) va Toshkent (8,2 foiz) viloyatlarida istiqomat qiladi.

Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, har yili O'zbekiston Respublikasida 700 mingdan ortiq bola tug'iladi, bu esa maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tushadigan yukni oshiradi. Chunonchi, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tushadigan umumiy ortiqcha yuk respublika bo'yicha 12 foizni tashkil qiladi, uning eng yuqori darajasi Qor'aqalpog'iston Respublikasida (21 foiz), Jizzax (35 foiz) va Buxoro (21 foiz) viloyatlarida, eng past darajasi esa Surxondaryo (9 foiz) va Farg'ona (9 foiz) viloyatlarida, shuningdek Toshkent shahrida (6 foiz) kuzatilmoqda¹.

Umuman, mamlakat bo'yicha 3-7 yoshdagi har 100 nafar bolaga maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 28,1 ta joy to'g'ri keladi. So'ngi 20 yil ichida maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 45 foizdan ziyodga qisqargan. Bunday qisqarish ko'proq Andijon, Farg'ona, Surxondaryo va Toshkent viloyatlari kabi tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan hududlarda kuzatildi. Bugungi kunda O'zbekistondagi barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarining 55 foizdan ortig'i Toshkent shahriga (14,8 foiz), Farg'ona (12,6 foiz), Toshkent (9,8 foiz)3 Namangan (9 foiz) va Samarqand (8,9 foiz) viloyatlariga to'g'ri keladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, 2019 . 13 may, PQ 4312-son

Maktabgacha ta'limni rivojlantirish sohasida davlat siyosatini muvaffaqiyatli yuritishga to'g'ri qaratilgan bir qator tizimli mammlar va kamchiliklar saqlanib qolmoqda? ular qatorida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- maktabgacha yoshdagi bolalarning to'liq qamrab olinishini ta'minlash uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonining yetarli emasligi;
- qishloq joylarda maktabgacha ta'limning past darajada rivojlanganligi;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik holati lozim darajada emasligi;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarining malakali pedagog kadrlar bilan jamlanmaganligi;
- maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv kadrlarining tanqisligi va ular malakasining pastligi;
- ota-onalarning bola shaxsining shakllanishida maktabgacha ta'limning ijroiy jihatlarini va foydasi haqida yetarlicha ma'lumotga ega emasligi;
- zamonaviy o'quv-uslubiy materiallar va ko'rgazmali qurollarning etishmasligi;
- lohiya ehtiyojli bolalar uchun mavjud maktabgacha ta'lim tashkilotlarining texnik jihozlari va uslubiy ta'minoti darajasining pastligi;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tibbiy xizmat ko'rsatish sifati va tibbiyot xodimlarining malakasi zamon talablariga to'liq javob bermasligi.

Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari

Ushbu Kontsepsiyaning maqsadi bola hayoti va faoliyatining barcha sohalarini rivojlantirishni ta'minlovchi muhim manba bo'lgan sifati maktabgacha ta'limdan foydalanish mexanizmlarini, ishlab chiqishdan iborat. Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardir:

- maktabgacha ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish;
- bolalarni sifati maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'lamini oshirish, undan teng foydalanishi imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish;
- maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilgor pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, faoliyatini moliyalashtirishning shaffoqligi va samaradorligini ta'minlash;

-maktabgacha ta'lim tizimiga xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish;

Maktabgacha ta'lim sohasida me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish

Maktabgacha ta'limni rivojlantirish sohasidagi davlat siyosati ishlab chiqarayotgan me'yoriy-huquqiy bazada o'z aksini topadi. Maktabgacha ta'lim sohasi ko'plab qonun hujjatlari bilan tartibga solinishiga qaramay, maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning huquqiyasoslarini yanada takomillashtirish talab etiladi.

Shu munosabat bilan, Kontsepsiyani amalga oshirish doirasida maktabgacha ta'lim sohasida me'yoriy-huquqiy bazani, takomillashtirish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- 1) ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishga qo'yiladigan amaldagi davlat talablarini qayta ko'rib chiqish hamda, quyidagilarni nazarda tutuvchi Maktabgacha ta'limning davlat standartini ishlab chiqish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida shakllantirilishi lozim bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar va mahoratlar qo'yiladigan talablarni bolalarni parvarishlash, ularga qarash, sog'lig'ini saqlash va yashilash bo'yicha xizmatlar ko'rsatish tartibini;
- 2) maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarni moddiy resurslar, oziq-ovqat mahsulotlari, dori va sigal ari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash normalarini tasdiqlash;
- 3) maktabgacha ta'limning muqobil shakllari faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash;
- 4) maktabgacha ta'lim tashkilotlarining namunaviy ustavlarini ishlab chiqish va tasdiqlash;
- 5) kasalliklarning profilaktikasi va diagnostikasi tartibini takomillashtirish, shuningdek, idoralarga o'zaro hamkorlik mexanizmlari orqali bolalarni psixologik-tibbiy-pedagogik qo'llab-quvvatlashni ta'minlash;
- 6) maktabgacha ta'limni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan xalqaro me'yoriy va standartlarni implementatsiya qilish;
- 7) maktabgacha ta'lim tashkilotlarida moliyaviy qo'llab-quvvatlashni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish

Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish *uchun* sharoitlarni yaratish maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini qayta ko'rib chiqishni hamda maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning zamonaviy usullarini joriy etishni talab qiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, natijiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim.

Bunda bolalarda Vatanga muhabbat hissimi, oilaga, o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyoqkorona munosabatlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida quyidagilar nazarda tutiladi:

- 1) maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini, shuningdek, bolaning rivojlanishi va uning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini kompleks baholashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish;
- 2) maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun o'quv-metodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni tanlab olishni va ekspertizasini ishlab chiqilgan tartibga muvofiq o'tkazish;
- 3) maktabgacha ta'limning muqobil shakllari uchun yangi o'quv-metodik materiallarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
- 4) "Ilk qadam" davlat o'quv dasturini keng joriy etish;
- 5) tartiblanuvchilarning yakka tartibdagi ish daftarlari, kartochkalar, tarqatma va sanoq materiallari mazmuni va dizaynini o'rnatilgan talablarga muvofiq ishlab chiqish;
- 6) rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy buzilishlari bo'lgan bolalar ta'limining kompleks texnologiyalarini ishlab chiqish, inklyuziv ta'lim, eng yangi reabilitatsiya va abilitatsiya usullarini keng joriy etish, ularning izchil ijtimoiylashuvi va umumiy maktabgacha ta'lim umumiy tizimini integratsiyalashtirishga ko'maklashadigan moslashtirilgan dasturlar va yakka tartibdagi ta'lim yo'nalishlarini ishlab chiqish;
- 7) maktabgacha ta'limda fanlarni rivojlantiruvchi muhitning innovatsion texnologiyalari va modullarini ishlab chiqish, maktabgacha va umumiy boshlang'ich ta'lim izchilligining mazmun va protsessual komponentlarini optimallashtirish;
- 8) mashg'ulotlar davomiyligining eng maqbul vaqtini va ularning ketma - ketligini aniqlash maqsadida o'quv rejalari va ta'lim dasturlarini optimallashtirish;

- 9) bolalarni sog'lom turmush tarzini yuritishga o'rgatish, gimnastika va faol o'yinlar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish orqali tartiblanuvchilarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlari va sportga qiziqish uyg'otishni shakllantirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni jismonan sog'lom tarbiyalash;

- 10) maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-estetik va musiqiy tarbiya hamda ta'lim darajasini oshirish, erta yoshdan boshlab STEAM o'qitish asoslarini joriy etish;

- 11) bolaning kelgusida o'zini o'zi muvaffaqiyatni namoyon qilishi uchun asos sifatida ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish;

- 12) maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qanamaydigan bolalar uchun ta'lim xizmatlari turarlari: pullik ta'lim xizmatlari, qisqa muddatli guruhlar va boshqalarni kengaytirish.

Bolalarni sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'lamini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, sohada davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish

Bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'lamini oshirish bo'yicha vazifalarni hal etish birinchi navborda maktabgacha ta'lim tashkilotlari quvvatlarini oshirishni taqozo etadi. Maktabgacha ta'lim tizimini moliyalashtirishning hozirgi hajmi, tug'ilishning o'sish dinamikasi saqlanib qolayotgan bir paytda, maktabgacha yoshdagi bolalarning qamrovini mavjud darajada saqlab turishni ta'minlab beradi, ammo uning o'sishiga yordam bermaydi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'larining cheklanganligini e'tiborga olib, nodavlat sektor maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni o'sishining harakatlantiruvchi kuchlaridan biri bo'lishi, davlat-xususiy sherikchiligi esa xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini maktabgacha ta'lim tizimiga jalb etishning asosiy mexanizmlariga aylanishi lozim.

Maktabgacha ta'limning hammabopligini, shu jumladan respublikaning olis tumanlarida hamda maktabgacha ta'limning standart shakllarini kengaytirish qiyin bo'lgan joylarda ta'minlash yangi muqobil shakllarni joriy etish hisobiga ham amalga oshirilishi lozim.

Bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni ta'minlash bo'yicha maqsadli ko'rsakichlarga erishish uchun quyidagi tadbirlar amalga oshirilishini nazarda tutadi:

- 1) O'zbekiston Respublikasining rivojlantirish davlat dasturlari doirasida va boshqa manbalardan ajratiladigan mablag'lar hisobidan yangi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish;

- 2) maktabgacha ta'lim sohasida qulay investitsiya muhitini yaratish, xususiy sektorni maktabgacha ta'lim tashkilotlarining quvvatlarini oshirishga yanada, rag'batlantirish va manfaatdorligini oshirish;
- 3) maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sherikchiligini, jumladan uning quyidagi shakllarini yanada rivojlantirish: mavjud davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rekonstruksiya qilish va jihozlash sharti bilan xususiy sherikka nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil qilish uchun yer uchastkalarini yoki mavjud davlat ta'lim tashkilotlari binolarini bepul asosida berish;
- ko'p kvartirali turar joy binolari quruvchilari uchun davlat buyurtmasini joylashtirish;
- davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini xususiy sherikka ishonchli boshqaruvga berish;
- kontsessiya asosida qurish, rekonstruksiya qilish va jihozlash uchun yer uchastkasi yoki bino ajratish; homiylik va boshqalar;
- 4) fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlarini nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil qilishda uslubiy qo'llab-quvvatlash;
- 5) bo'sh turgan davlat mulki ob'ektlari va sobiq maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ishlamayotgan binolari negizida maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil qilish maqsadida ularni xalovdan o'tkazish;
- 6) hamma joyda bolalarni umumiy boshlang'ich ta'limga bepul majburiy bir yillik tayyorlashning yagona tizimini joriy etish;
- 7) maktabgacha ta'limning moslashuvchan ish jadvali hamda rivojlantiruvchi, tuzatuvchi xizmatlar va tadbirlarning keng ko'lamini o'z ichiga olgan quyidagi muqobil shakllarini joriy etish va rivojlantirish:
- har xil yoshdagi bolalar uchun qisqa muddatli maktabgacha ta'lim guruhleri - "Pley-guruhlar"; maktabgacha yoshdagi bolalarga uyiga borib maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatish dasturi - "Home visits"; maktabgacha ta'lim tashkilotlari korporativ guruhlari va boshqalar;
- 8) yengil qurilish konstruksiyalari va zamonaviy energiya samarador materiallar va texnologiyalardan foydalangan holda, shifonik va ekologik xavfsizlik talablariga muvofiq quriladigan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining yangi binolar loyihalarini ishlab chiqish (shu jumladan rivojlanishida jismoniy va ruhiy buzilishlari, bo'lgan bolalar uchun to'siqsiz muhit elementlarini hisobga olgan holda);
- 9) maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish va samarali tashkil qilish zaruratini hisobga olgan holda, qurilayotgan turarjoy komplekslari va boshqa ob'ektlarni kerakli ijtimoiy infratuzilma bilan ta'minlash;

- 10) Respublikaning barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarini ichimlik suvi, isitish tarmog'i, elektr energiyasi va tabiiy gaz bilan, shu jumladan, zamonaviy energiya: tejovchi texnologiyalarni joriy etish, yo'lli bilan bosqichma - bosqich ta'minlash;
- 11) ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning variativligi hisobiga rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy buzilishlari bo'lgan bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'lamini oshirish;
- 12) maktabgacha ta'limning bola shaxsini shakllantirishdagi roli va muhimligi haqida tushuntirish tadbirlarini olib borish, ushbu faoliyatga nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik va ota-onalarni faol jalb qilish.

Maktabgacha ta'limni yanada rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishdir.

Maktabgacha ta'lim tizimiga xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga muttaho yangi yondashuvlarni joriy etish

Sifatli maktabgacha ta'limni berish asoslaridan biri boshqaruv va pedagog kadrlarni tayyorlash darajasi va ularning professionalizmi hisoblanadi. O'tgan davr mobaynida ushbu yo'nalishda keng ko'lamli ishlar bajarildi. Chunonchi, "Maktabgacha ta'lim" bakalavriat ta'limi yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilish kvotalari oshirildi, mazkur yo'nalishda o'qish muddati uch yilgacha qisqartirildi.

Respublika maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish o'quv-metodik makzazi negizida Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tashkil etildi va unga, maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarida zamonaviy menecment va pedagogik texnologiyalar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish vazifasi yuklatildi.

Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning amaldagi tizimini tahlil qilish quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarurligidan dalolat beradi:

- 1) xalqaro talablarga javob beradigan yagona ko'p darajali uzluksiz ta'lim tizimini yaratish;
- 2) ta'lim va amaliyotni integratsiyalashtirgan holda xalqaro ta'lim standartlari, o'quv-metodik reja va dasturlar, interaktiv va muammoliy-vaziyatli o'qitish usullari va treninglar, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

3) maktabgacha ta'lim tizimi xodimlariga qo'yiladigan malaka talablarini yanada takomillashtirish, ularning faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini hamda pedagog xodimlarning kasbiy standartini ishlab chiqish va tasdiqlash;

4) ta'lim jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish yo'li bilan maktabgacha ta'lim sohasida kadrlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, shuningdek, maktabgacha ta'lim, sohasida kadrlar malakasini oshirish tizimini tashkil qilish uchun, shu jumladan, mamlakat hududlarida ta'lim tashkilotlari sonini oshirish;

5) maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarining xorijdagi yetakchi universitetlarda, ilmiy markazlarda va boshqa ta'lim tashkilotlarida stajirovka o'tashini tashkil qilish;

6) Vazirlikning pedagogika kollejlari faoliyatini tashkil qilish, ularni malakali professor-o'qituvchilar tarkibi bilan ta'minlash choralari ko'rish;

7) xorijiy mamlakatlarning yetakchi oliy ta'lim tashkilotlari bilan uzoq muddatli munosabatlarni yanada rivojlantirish, maktabgacha ta'lim sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun O'zbekiston Respublikasida ularning filiallarini ochish;

8) tajriba almashish, ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirish bo'yicha sa'y-harakatlarni birlashtirish maqsadida pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug'ullanuvchi ta'lim va ilmiy-tadqiqot, shu jumladan, xorijiy mamlakatlarning tashkilotlari bilan samarali idoralararo hamkorlikni chiqurlashtirish;

9) o'zlariga yuklatilgan xizmat vazifalarini eng yuqori professional darajada bajara oladigan, yuqori intellektual qobiliyat va axloqiy xislatlarga, chuqur kasbiy bilimlarga ega eng malakali xodimlarni saralab olishda raqobat muhitini ta'minlaydigan kadrlarni shaffof tanlov asosida tanlashning yangi mexanizmlarini joriy etish;

10) maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini moddiy rag'batlantirish va jimmoy qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish;

11) maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlariga zaruriy kasbiy kompetensiyalar ro'yxatini o'z ichiga olgan talablarni belgilash, sertifikatlash tizimini joriy etish;

12) strategik boshqaruv, moliyaviy va menejment asoslarini majburiy joriy etgan holda, maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni sog'lom va balanslashtirilgan oziq-ovqat, sifatli tibbiy parvarish bilan ta'minlash

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy vazifalaridan biri bolalarning sog'lom ovqatlanishini, ular sog'lig'ini mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish

xizmatlari bilan ta'minlash, shuningdek, tarbiyalanuvchilarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun sharoitlar yaratishdan iborat.

Sog'lom, xavfsiz va sifatli ovqatlanishni ta'minlash bo'yicha vazifalarni hal qilish uchun davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bunday xizmatlarni ko'rsatish qisman autorsing shartlari asosida tadbirkorlik sub'ektlariga berilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim tizimidagi tibbiyot xodimlarining malakasini tizimli oshirish bo'yicha chora-tadbirlar faol qo'llanilmoqda.

Shu bilan birga, sog'lom avlodni tarbiyalash vazifalarini samarali hal qilish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi nazarda tutilmoqda:

1) maktabgacha ta'lim tashkilotlarini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash va yetkazib beruvchilarning narx siyosatiga amal qilishini nazorat qilishning shaffof markazlashtirilgan tizimini yaratish;

2) tayyor taomlarni tayyorlash va maktabgacha ta'lim tashkilotlariga yetkazib berish uchun ixtisoslashgan umumiy ovqatlanish korxonalarini autorsing asosida jalb qilish;

3) maktabgacha ta'lim tizimida sog'liqni saqlash xizmatlarining sifatini oshirish, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami xizmatlari bilan maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish;

4) bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'minoti uchun munosib, jumladan, to'laqonli, to'g'ri, balanslashtirilgan, sog'lom ovqatlanish, asoslangan tibbiy: ko'rsatmalarda belgilangan hajm va tezlikdagi, ko'ngillochar mashg'ulotlar va bilim olish elementlari mavjud faol o'yinlar va mashqlardan iborat sharoitlarni yaratish;

5) rivojlanishida jismoniy yoki psixik buzilishlari bo'lgan bolalarga kompleks yordam berish tizimini takomillashtirish;

6) rivojlanishida jismoniy yoki psixik buzilishlari bo'lgan bolalarda asosiy kompetensiyalarni zaruriy, sifat darajasida shakllantirishga erishish, ularning ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga integratsiyalashuvini ta'minlash.

Nazorat savollar

1. Maktabgacha ta'lim tushunchasini izohlab bering?
2. Maktabgacha ta'lim tizimi qanday tashkil etiladi?
3. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining zamonaviy tizimi qanday amalga oshirilmoqda?

3-Mavzu: O'zbekiston Respublikasi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risidagi Nizomi

Reja:

1. Umumiy qoidalar.
2. Maktabgacha ta'lim tashkilotining vazifasi.
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotining majburiyatlari.
4. Maktabgacha ta'lim tashkilotining huquqlari.
5. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining burchlari.
6. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqlari.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi 391-sonli qarorida:

- "Umumiy tipdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida"gi Nizom;
- "Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlar to'g'risida"gi Nizom;
- "Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va qo'shma tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida"gi Nizom;
- "Bolalarni ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga va qo'shma tipdagi maktabgachata'lim tashkilotlariga yo'llash bo'yicha tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya to'g'risida"gi Nizomlari qabul qilindi.

Umumiy tipdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari (keyingi o'rinda maktabgacha ta'lim tashkilotlari deb ataladi) maqsadlari va vazifalari, huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini, shuningdek, ularning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

Nizomda quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

maktabgacha ta'lim tashkiloti — umumiy tipdagi davlat yoki nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti;

davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti — davlat tomonidan moliyalashtiriladigan va boshqariladigan hamda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatadigan tashkilot;

nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti — qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berilgan litsenziya asosida, shuningdek, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq maktabgacha ta'lim sohasida ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs;

bolaning qonuniy vakillari — bolaning ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuniga va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga, ushbu Nizomga va o'z ustaviga muvofiq amalga oshiradi².

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar bo'lishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti vakolatli davlat organi tomonidan attestatsiya asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o'tkaziladi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti yuridik shaxs hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi davlat tilida

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi 391-sonli qarori.

yoʻzilgan muhrga va shtampga, mustaqil balansga, byudjet va byudjetdan tashqari shaxsiy gʻazna hisobvaraqlariga ega.

Nodavlat maktabgacha taʼlim tashkiloti yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga ega, oʻz majburiyatlari boʻyicha ixtiyoriyidagi mol-mulk bilan javob beradi, oʻz nomi yoʻzilgan muhr va shtampga ega boʻlishi mumkin.

Maktabgacha taʼlim tashkilotining maqsadlari va vazifalari

Maqsadi: Bolaning taʼlim olishga boʻlgan huquqini amalga oshirishni taʼminlash;

bolaning jismoniy, aqliy va maʼnaviy kamolotini saqlash va mustahkamlash;

umumtaʼlim tashkilotlarida bolaning jamiyatga moslashishini va taʼlim olishni davom ettirishga tayyorligini taʼminlash.

Vazifalari:

bolalarga, shu jumladan, oʻziga xos ehtiyojlari bor bolalarga yakka tartibda taʼlim dasturlaridan foydalanish, shuningdek, oʻz vaqtida inklyuziv maktabgacha taʼlim va tarbiya olish imkonini beradigan qulay muhit yaratish;

bolalarda Vatanga muhabbat tuygʻusini, oilaga, oʻz xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat bilan munosabatta boʻlishni, atrof-muhitga ehtiyokkor munosabatni shakllantirish;

bolaning shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ijtimoiy tajriba oʻrtirishini taʼminlash;

bolaning jamiyatga moslashishini va boshlangʻich taʼlimga tayyorligini taʼminlash;

taʼlim-tarbiya jarayoniga zamonaviy taʼlim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish.

Maktabgacha taʼlim tashkilotlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi

Maktabgacha taʼlim tashkilotlari quyidagi huquqlarga ega:

Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha taʼlim vazirligi tomonidan tasdiqlangan maktabgacha taʼlimning davlat taʼlim dasturi asosida oʻz taʼlim dasturini ishlab chiqish;

maktabgacha taʼlimning davlat taʼlim dasturida koʻrsatilgandan tashqari qoʻshimcha pulli taʼlim xizmatlari koʻrsatish, ishlamaydigan kunlarda yoki belgilangan ish soatlaridan tashqari bolaning qonuniy vakillari bilan kelishuv asosida bolalarni parvarishlash va ularga qarab turish boʻyicha xizmatlar koʻrsatish;

bolaning qonuniy vakillari bilan hamkorlik qilish; maktabgacha taʼlim tizimini rivojlantirish boʻyicha innovatsion faoliyatta qatnashish.

Maktabgacha taʼlim tashkilotlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega boʻlishi mumkin.

Maktabgacha taʼlim tashkilotlari:

ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qoʻyiladigan davlat talablariga muvofiq taʼlim-tarbiya jarayonini amalga oshirish;

maktabgacha taʼlimning tegishli sifatini taʼminlash;

bolani tarbiyalash va oʻqitish masalalari boʻyicha uning qonuniy vakillariga maslahatlar bilan yordam berish;

bolalarni kamol topitirish, tarbiyalash va oʻqitish uchun xavfsiz shart-sharoitlarni yaratish;

maktabgacha taʼlim sifati taʼminlanishini nazorat qilishda vakolatli davlat organlariga koʻmaklashishi shart.

Maktabgacha taʼlim tashkiloti faoliyatini tashkil etish

Maktabgacha taʼlim tashkiloti maktabgacha taʼlimga qoʻyiladigan davlat talablariga muvofiq bolalarni tarbiyalashni, oʻqitishni, ularga qarab turishni, ularni parvarishlashni va sogʻlomlashtirishni taʼminlaydi.

Maktabgacha taʼlim tashkilotidagi taʼlimning mazmun-mohiyati Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha taʼlim vazirligi tomonidan tasdiqlangan

Maktabgacha ta'lim davlat ta'lim dasturi asosida ishlab chiqilgan ta'lim dasturida belgilab beriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'lim-tarbiya jarayoni mashg'ulotlarning yillik, kalendar-mavzuli rejalari va jadvali bilan tartibga solinadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ta'lim berish va tarbiyalash shakllari, vositalari va usullarini tanlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy shakli o'yin hisoblanadi.

Har bir yosh guruhidagi mashg'ulotlar, o'yinlarning har kungi soni, davom etadigan davri va izchilligi maktabgacha ta'lim tashkilotining o'quv rejasida belgilab beriladi.

Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bo'lish vaqtiga qarab u yerdagi guruhlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

bolalar qisqa muddat (kuniga 3-4 soat) bo'ladigan guruh;

qisqa kunli guruh (bir kunda 9 soatgacha);

to'liq kunli guruh (kuniga 10,5 va 12 soat);

bolalar kechayu kunduz bo'ladigan guruh.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining ishlash tartibi va bolalarning unda bo'lish vaqti uning ustavi va muassisning qarori bilan belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va bolaning qonuniy vakillari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar bola maktabgacha ta'lim tashkilotiga o'tkazilganda tuziladigan shartnoma bilan tartibga solinadi.

Shartnomada bola maktabgacha ta'lim tashkilotiga boradigan rejim, necha marta ovqatlanish va boshqa shartlar ko'rsatiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi o'quv yili joriy yilning 2 sentyabridan keyingi yilning 31 mayigacha bo'lgan davmi, yozgi sog'lomlashtirish davri joriy yilning 1 iyunidan 31 avgustigacha bo'lgan davmi o'z ichiga oladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarga ta'lim berish va tarbiyalash «Davlat tili to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq davlat tilida va boshqa tillarda olib boriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotiga bolalarni qabul qilish va undan chiqarish

Bolani maktabgacha ta'lim tashkilotlariga doimiy yoki vaqtincha qabul qilish ushbu tashkilotda bo'sh joylar bo'ssa, kalendar yil davomida quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

bola qonuniy vakilining arizasi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda vakolati organ bergan yo'llanma (davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti uchun);

bola sog'lig'i holati to'g'risidagi tibbiy ma'lumotnoma.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar qabul qilinadi.

Bola davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibga muvofiq qabul qilinadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlarini to'ldirish

Guruh maktabgacha ta'lim tashkilotining tarkibiy birligi hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi guruhlar ham bir xil yoshdagi, ham turli yoshdagi bolalar bilan to'ldirilishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini to'ldirish va bir guruhdan boshqasiga o'tkazish har yili o'quv yili boshlanishidan oldin amalga oshiriladi. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida guruhlar quyidagi miqdorda to'ldiriladi:

3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan guruhlarda — kamida 20 nafar va ko'pi bilan 30 nafar bola;

bolalar qisqa vaqt bo'ladigan guruhlarda — ko'pi bilan 30 nafar bola; turli yoshdagi guruhlarda — kamida 20 nafar va ko'pi bilan 25 nafar bola; bolalar kechayu kunduz bo'ladigan guruhlarda — ko'pi bilan 10 nafar bola.

Agar davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti joylashgan joyda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga borishni xohlovchi maktabgacha yoshdagi bolalar soni 20 nafar boladan kam bo'lsa va bu joyda boshqa davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan kelishgan holda kam sonli bolalardan iborat guruhlarini tashkil etishga yo'l qo'yiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'qatishni tashkil etish

Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'qatishni qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar o'qatishini tashkil etish uchun javobgarlik maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari zimmasiga yuklanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish

Maktabgacha ta'lim tashkiloti qonun hujjatlarida, ushbu Nizomda, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkiloti ustavida nazarda tutilgan tartibda boshqariladi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan kelishuv bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining hududiy bo'limlari tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar orasidan maktabgacha ta'lim tashkiloti Kuzatuv kengashi tomonidan tanlanadigan mudir rahbarlik qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining ustaviga muvofiq lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan direktor nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotining rahbari hisoblanadi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatiga mudir joriy rahbarlik qiladi hamda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining Kuzatuv kengashi va muassisi oldida hisob beradi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatiga direktor joriy rahbarlik qiladi va muassis oldida hisob beradi.

Quyidagilar davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining boshqaruvi organlari hisoblanadi:

Pedagogika kengashi;

Kuzatuv kengashi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining Pedagogika kengashi:

maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqadi;

maktabgacha ta'lim tashkilotining ish rejasini va pedagog xodimlarining pedagogik yuklamasini belgilaydi;

maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim dasturini amalga oshirish natijalarini baholaydi;

maktabgacha ta'lim tashkilotining bolaning qonuniy vakillari bilan hamkorligi tartibini belgilaydi;

maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog xodimlari malakasini oshirish, ularning ijodiy tashabbusini rivojlantirish, ta'lim jarayoniga fan yutuqlarini va ilg'or pedagogik tajribani joriy etish masalalarini muhokama etadi;

maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarini ma'naviy va moddiy rag'batlantirish masalalarini ko'rib chiqadi;

maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari va pedagog xodimlar hisobotlarini eshitadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining Pedagogika kengashi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham bajarishi mumkin.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida bolani tarbiyalash, shakllantirish va o'qitishda ko'maklashish maqsadida Kuzatuv kengashi tashkil etiladi. Uning

tarkibi ushbu tashkilotga boradigan bolalarning qonuniy vakillari, uning xodimlari, shuningdek, nodavlat noijorat tashkilotlar vakillari orasidan tuziladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining Kuzatuv kengashi:

maktabgacha ta'lim tashkilotini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi;

maktabgacha ta'limning tuman (shahar) bo'limi tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar orasidan maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarini saylaydi, shuningdek, uni egallab turgan lavozimidan ozod qilish bo'yicha takliflarni belgilangan tartibda kiritadi;

maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining uning faoliyatini takomillashtirish yuzasidan ko'riylayotgan chora-tadbirlar, moliya-xo'jalik holati, daromadlar va xarajalar, byudjet, byudjetdan tashqari, homiylik va boshqa mablag'lardan foydalanish to'g'risidagi hisobotlarini vaqt-vaqt bilan eshiadi;

maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari, pedagog xodimlar va boshqa xodimlar faoliyatiga taalluqli ijtimoiy so'rovlar o'tkazadi;

tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limlariga maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarini rag'batlantirish to'g'risida takliflar kiritadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining Kuzatuv kengashi qonun hujjatlarga muvofiq boshqa vakolatlarni ham bajarishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti Kuzatuv kengashining faoliyatini tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining huquqlari va majburiyatlari qonun hujjatlarda, ustavda, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda, shuningdek, mehnat shartnomasida belgilanadi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining lavozimiga qo'yiladigan malaka talablari O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi.

Nazorat savollari:

1. Umumiy qoidalar bo'limi nimalardan iborat?
2. Maktabgacha ta'lim tashkilotining vazifasini izohlab bering?
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotining majburiyatlari va huquqlari haqida ma'lumot bering?

4. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining burchlari va nimalardan iborat?

4-Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlar to'g'risida nizom

Reja:

1. Qisqa muddatli guruhlar faoliyatining maqsad va vazifalari.
2. Qisqa muddatli guruhlarda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.
3. Qisqa muddatli guruhlar tashkil etish, ularga qabul qilish va ularni to'ldirish tartibi
4. Qisqa muddatli guruhlarini moliyalashtirish

Nizomda maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi maktabgacha yoshdagi bolalar qisqa muddatli guruhlari maqsadlari, vazifalar va faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

Qisqa muddatli guruhlar faoliyati maktabgacha ta'lim tashkilotlari ustavi bilan tartibga solinadi.

Qisqa muddatli guruhlar maktabgacha ta'lim tashkilotiga bormaydigan bolalarning to'laqonli kamol topishini ta'minlash, ularni tengdoshlari va kattalar davrasiga moslashtirish uchun mo'ljallangan.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etilgan qisqa muddatli guruhlarda bolalarning bo'lishi uchun to'lov qonunchilikda belgilangan miqdorlarda amalga oshiriladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etilgan qisqa muddatli guruhlarda bolalarning bo'lishi uchun to'lov muassisi tomonidan belgilanadigan narxlar va tariflar bo'yicha belgilanadi, bundan qonunchilikda belgilangan hollar mustasno.

Qisqa muddatli guruhlar maqsadlari va vazifalari

Qisqa muddatli guruhlar maqsadlari bolalarning maktabgacha ta'limga to'liq jalb etilishini va maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bormaydigan bolalar maktabgacha ta'lim olishda teng imkoniyatlardan foydalanishini ta'minlashdan iborat.

Qisqa muddatli guruhlarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

bolaning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamol topishini saqlash va mustahkamlash;

bolaning shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, uning ijtimoiy tajriba o'rtirishini ta'minlash;

bolaning yosh va o'ziga xos imkoniyatlari, qobiliyatlari va ehtiyojlariga qarab har tomonlama kamol topishini ta'minlash;

bolani shakllantirishda, tarbiyalashda va o'qitishda oilaga har tomonlama yordam berish;

bolalarning bilim o'rtirishini, ijtimoiy-shaxsiy, badiiy-estetik va jismoniy kamol topishini ta'minlash.

Qisqa muddatli guruhlar tashkil etish, ularga qabul qilish va ularni to'ldirish

tartibi

Qisqa muddatli guruhlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida foydalanilmaydigan xonalar bo'lganda tashkil etiladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlar bolalar ularning ota-onalari yoki ularning o'rni bosuvchi shaxslarning (keyingi o'rinlarda qonuniy vakillar deb ataladi) arizasi va bola sog'lig'i holati to'g'risidagi tibbiy xulosa asosida qabul qilinadi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlar bolalar quyidagilar asosida qabul qilinadi:

bolaning qonuniy vakili arizasi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan

tartibda vakolatli organ bergan yo'llanma;

bola sog'lig'i holati to'g'risidagi tibbiy ma'lumotnoma.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlar o'z faoliyatini davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining buyrug'i asosida amalga oshiradi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlar o'z faoliyatini bolaning qonuniy vakillari bilan shartnoma asosida amalga oshiradi.

Bitta xonada ko'pi bilan 3 ta qisqa muddatli guruh faoliyatini uchta smenada tashkil etishga yo'l qo'yiladi.

Qisqa muddatli guruhlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarining sanitariya-gigiyena talablariga va yong'in xavfsizligi qoidalariga javob beradigan xonalarida tashkil etiladi.

I Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlar 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar qabul qilinadi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlar 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar qabul qilinadi.

Qisqa muddatli guruhlar ham bir xil yoshdagi, ham turli yoshdagi bolalar bilan to'ldirilishi mumkin.

18. Bolalarni qisqa muddatli guruhlardan chiqarib yuborish maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi va:

bola qonuniy vakilining arizasi bo'yicha;

tibbiy ko'rsatmalar bo'yicha;

bola maktabgacha ta'lim tashkilotining to'liq kunli guruhiga joylashtirilganda amalga oshiriladi. Bu haqda qisqa muddatli guruhga boradigan bolaning qonuniy vakillari maktabgacha ta'lim tashkilotiga yo'llanma olgan

kundan boshlab 14 kun ichida maktabgacha ta'lim tashkilotining rahbarini xabardor qilishi shart.

Qisqa muddatli guruhlarining ishlash tartibi maktabgacha ta'lim tashkilotining ustavida va bolaning qonuniy vakili bilan tuziladigan shartnomada belgilanadi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qisqa muddatli guruhlarining quyidagi turlari faoliyat ko'rsatishi mumkin:

rivojlantirish guruhi;

inklyuziv guruh;

kechki, dam olish va bayram kunidagi guruh.

Rivojlantirish guruhi 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun ularni har tomonlama kamol toptirish, tengdoshlari va kattalar davrasiga moslashtirish maqsadida tashkil etiladi. Rivojlantirish guruhi kamida 20 nafar va ko'pi bilan 30 nafar bola bilan to'ldiriladi.

Inklyuziv guruh 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun o'ziga xos ehtiyojlari bor bolani jamiyatga moslashtirishni ta'minlash, bolaning qonuniy vakillariga maslahat-metodik ko'maklashish, o'ziga xos ehtiyoji bor bolalarining bunday zaiflikka ega bo'lmagan bolalar bilan birga o'qishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida tashkil etiladi.

Kechki, dam olish va bayram kunidagi guruh 3 yoshdan 7 yoshgacha bolalar uchun bolalarni tarbiyalash, ta'lim berish, parvarishlash va ularga qarab turish masalalarida qonuniy vakillarga yordam berish maqsadda tashkil etiladi. Kechki, dam olish va bayram kunidagi guruh ko'pi bilan 15 nafar bola bilan to'ldiriladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qisqa muddatli guruhlar turiga qarab 7 yoshgacha bo'lgan bolalar qabul qilinishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qonunchilikka muvofiq qisqa muddatli guruhlarining boshqa turlari tashkil etilishi mumkin.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlar uchun quyidagi shtat birliklari belgilanadi:

bitta guruh uchun — 0,5 birlik tarbiyachi va 0,5 birlik tarbiyachi yordamchisi;

ikkitta guruh uchun — 0,25 birlik tibbiy hamshira va 0,25 birlik musiqia rahbari.

Qisqa muddatli guruhlar faoliyati tashkil etilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti quyidagilar uchun javob beradi:

bolaning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;

bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotida bo'lgan vaqtda ularning hayoti himoya qilinishini va sog'lig'i mustahkamlanishini tashkil etish;

ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda qo'llaniladigan shakllar, usullar va vositalarning bolalarning yosh, ruhiy va fiziologik xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari, manfaatlari va ehtiyojlariga muvofiqligi;

bolalarni umumta'lim muassasalaridagi boshlang'ich ta'limga shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llagan holda tayyorlash sifati;

umumta'lim dasturlarini amalga oshirishni tegishli sifatta va belgilangan hajmda ta'minlamalik.

Qisqa muddatli guruhlarda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish

Qisqa muddatli guruhlardagi ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan Maktabgacha ta'limning davlat ta'lim dasturiga hamda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti dasturida belgilab beriladi.

Qisqa muddatli guruhlardagi ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni moslashuvchan xususiyatga ega, shuningdek, bolaning o'ziga xos, shaxsga yo'naltirilgan kamol topishini ta'minlaydigan innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Qisqa muddatli guruhlardagi ta'lim-tarbiya jarayoni yakka tartibdagi va birgalikdagi faoliyatning har xil shakllarini — ham katta yoshdagilarning bolalar bilan, ham bolalarning o'zlari ishtirokidagi shakllarini o'z ichiga oladi.

Negizida qisqa muddatli guruh tashkil etilgan maktabgacha ta'lim tashkilotining rahbari bolalar bilan metodik ishlarni tashkil etadi, qisqa muddatli guruhlarda ta'lim-tarbiya jarayoni tashkil etilishini va hujjatlar yuritilishini nazorat qiladi.

Qisqa muddatli guruhlarda bolalar bilan mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'lim yuklamasi bir haftalik ta'lim yuklamasining eng ko'p ruxsat etilgan hajmidan va mashg'ulotlarning eng ko'p ruxsat etilgan sonidan oshmasligi kerak.

Uzluksiz ta'lim faoliyati muddati sanitariya talablariga muvofiq hisoblab chiqiladi.

Qisqa muddatli guruhlarni moliyalashtirish

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlarning faoliyati O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'larini, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni parvarishlash, ovg'atlantirish va ularga qarab turish uchun olinadigan ota-onalar to'lovi, jismoniy va yuridik shaxslarning xayr-ehsonlari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga moliyalashtiriladi.

Ta'lim faoliyatini olib boruvchi qisqa muddatli guruhlarning pedagog xodimlari mehnatiga qonunchilikda belgilangan tartibda haq to'lanadi.

Nazorat savollari?

1. Qisqa muddatli guruhlar faoliyatining maqsad vazifalariga qanday so'z yuring?
2. Qisqa muddatli guruhlarda ta'lim-tarbiya jarayonini qanday tashkil etiladi?
3. Qisqa muddatli guruhlar tashkil etish, ularga qabul qilish va ularni to'ldirish tartibi qanday?
4. Qisqa muddatli guruhlarni qanday moliyalashtiriladi?

5-Mavzu: Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida nizom

Reja:

1. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotning maqsad va vazifalari.
2. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibi
3. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarining va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi
4. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlar faoliyatini moliyalashtirish.

Nizomda ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining (keyingi o'rinlarda ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar deb ataladi) va qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining (keyingi o'rinlarda qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlar deb ataladi) maqsadlari va vazifalari, huquqlari, majburiyatlari hamda javobgarligini, shuningdek, ularning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlar o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuniga va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoqlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga, ushbu Nizomga hamda o'z ustaviga amalga qiladi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarning faoliyati rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarning maktabgacha ta'lim olishiga, shuningdek, ularni tarbiyalash va reabilitatsiya qilishga qaratilgan.

Qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlarning faoliyati rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalar va rivojlanishida nuqsonlari bo'lmagan bolalarning bir tashkilotda alohida guruhlarda birgalikda o'qishini va tarbiyalanishini tashkil etishga qaratilgan.

Qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlarda inklyuziv guruhlar tashkil etilishi mumkin.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlar davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar bo'lishi mumkin.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilot akkreditatsiyasi attestatsiya asosida qonunchilikda belgilangan tartibda vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilot yuridik shaxslar hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi davlat tilida yozilgan muhrga hamda shtampga, mustaqil balansga, budjet va budjetdan tashqari shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga ega.

Nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilot yuridik shaxslar hisoblanadi, ajratilgan mol-mulkka, mustaqil balansga ega, o'z majburiyatlari bo'yicha o'z ixtiyoridagi mol-mulk bilan javob beradi, o'z nomi yozilgan muhrga va shtampga ega bo'lishi mumkin.

Nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilot litsenziya olgan vaqtdan boshlab qonunchilikda belgilangan tartibda ta'lim faoliyatini amalga oshiradi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotning maqsadlari hamda vazifalari

36

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilot maqsadlari quyidagilardan iborat:

bolaning ta'lim olishiga bo'lgan huquqi amalga oshirilishini ta'minlash;
bolalarni o'qitish va tarbiyalash, jamiyatga moslashtirish, shuningdek, rivojlanishidagi nuqsonlarni korrektsiyalash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

bolalarning yosh va o'ziga xos imkoniyatlariga, qobiliyatlari va ehtiyojlariga muvofiq ularning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamol topishini ta'minlash;

bolaning shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, uning ijtimoiy tajriba oltirishini ta'minlash.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga, shuningdek, ular asosida ishlab chiqilgan ta'lim-tarbiya va korreksion ishlarni tashkil etish dasturlariga muvofiq tarbiyalanuvchilarga ta'lim-tarbiya va korreksiya-pedagogik yordam berilishini ta'minlash;

bolalarda Varanga muhabbat, oilaga hurmat bilan munosabarda bo'lish, milliy qadriyatlar va urf-odatlariga hurmat, o'ziga va atrof-muhitiga ongli munosabarda bo'lish ruhida tarbiyalash;

tibbiy abilitatsiya va reabilitatsiya o'tkazish, bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni kompensatsiya va korreksiya qilish;

bolalarga sifatli maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkonini beradigan shart-sharoitlar yaratish;

bolalarning ijtimoiy moslashuvchanligini hamda ta'lim va tarbiya olishini davom ettirishga tayyorligini ta'minlash;

bolalarni umumta'lim muassasalarida o'qishga tayyorlash;
o'quv jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni joriy etish.

37

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibi

Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa davlat tashkilotlari davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti yoki qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotining muassislari bo'lishi mumkin.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarini tashkil etish uchun guruhlarining eng kam soni 6 tani tashkil etadi.

Qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotlarini tashkil etish uchun guruhlarining eng kam soni tegishli ravishda quyidagilarni tashkil etishi kerak:

- a) kamida 3 ta inklyuziv guruh;
- b) quyidagi ixtisosliklar bo'yicha rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun kamida 3 ta guruh:

eshitishda og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun;
ko'rishda og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun;
psixik rivojlanishi kechikkan bolalar uchun;
aqliy zaiflik bilan tartiblanuvchilar uchun;
tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan 5 yoshga bo'lgan bolalar kontingenti mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarni har yili yig'ib boradi va bu ma'lumotni O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligiga belgilangan tartibda

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkiloti Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Qorag'alpog'iston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi, viloyatlar maktabgacha ta'lim boshqarmalari, Toshkent shahar maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasi (keyingi o'rinlarda maktabgacha ta'lim hududiy boshqaruv organlari, deb ataladi) Qorag'alpog'iston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar sog'liqni

saqlash boshqarmalari, Toshkent shahar sog'liqni saqlash bosh boshqarmasi (keyingi o'rinlarda sog'liqni saqlash hududiy boshqaruv organlari deb ataladi) bilan birgalikda bunday muassasalarga bo'lgan ehtiyojini o'rganish yakunlari bo'yicha tashkil etiladi.

Rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalar mavjud bo'lsa, maktabgacha ta'limning hududiy boshqaruv organlari sog'liqni saqlashning hududiy boshqaruv organlari bilan birgalikda davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotini yoki qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotini tashkil etish to'g'risidagi taklif bilan O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligiga murojaat qiladi.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotini yoki qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotini tashkil etish to'g'risidagi taklif oxirgi 5 yil har yilga bo'lib chiqqan va tegishli hududdagi 5 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida quyidagi kasalliklar o'sishini ko'rsatadigan sog'liqni saqlash organlarining rasmiy statistika ma'lumotlari bilan asoslangan bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotini yoki qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotini tashkil etish masalasini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishib olingandan keyin Qorag'alpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengsigacha, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga tegishli taklif bilan murojaat qiladi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotini yoki qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotini tashkil etish to'g'risidagi qaror Qorag'alpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan qabul qilinadi.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarining va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotlarining bino hamda inshootlari O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan kelishilmasdan nusxasizlashtirilishi, o'zgarga berilishi va qayta ixtisoslashtirilishi mumkin emas.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilot o'quv yili tugaganidan keyin qonunchilikda belgilangan tartibda qayta tashkil etiladi yoki tugatiladi.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotini va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotini qayta tashkil etish yoki tugatish jarayonida bolalarni boshqa davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga o'tkazish Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, viloyat maktabgacha ta'lim boshqarmalari, Toshkent shahar maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasi tomonidan bo'laning qonuniy vakillari bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarining va qo'shma turdagi

Nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va qo'shma turdagi nodavlat maktabgacha tashkilotlar o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladigan litsenziyani olgan vaqtdan boshlab amalga oshiradi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarining va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlar quyidagi huquqlarga ega:

tasdiqlangan moslashtirilgan ta'lim dasturi asosida mustaqil ravishda o'z ta'lim dasturini ishlab chiqish;

bo'laning qonuniy vakillari bilan hamkorlik qilish;

maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha innovatsion faoliyatda qatnashish.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlar qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlar:

bolalarning jismoniy o'sishi va sog'lig'i mustahkamlanishi uchun sanitariya-gigiyena me'yorlariga muvofiq shart-sharoitlar yaratishi va ularga rioya etilishini ta'minlashi;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan tegishli nozologiyalarni davolash standartlariga muvofiq bolalarning abilitatsiyasi va reabilitatsiyasini o'tkazish uchun shart-sharoitlarni yaratishi;

ta'lim-tarbiya va korreksion-pedagogika jarayonini tashkil etishda qo'llaniladigan shakllar, usullar va vositalarning bolalarning yosh, psixik va fiziologik xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari, manfaatlari va ehtiyojlariga mos kelishini ta'minlashi;

bolalar to'g'ri ovqatlanishini va ularga tibbiy yordam ko'rsatilishini tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi;

bolalarni shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llagan holda umumta'lim muassasalarida o'qishga sifati tayyorlashni ta'minlashi;

maktabgacha ta'lim sifatini ta'minlash usidan nazorat olib borishda, salomatlikni muhofaza qilish va mustahkamlash, abilitatsiya va reabilitatsiya tadbirlarini o'tkazishda vakolatli davlat organlariga ko'maklashishi;

ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotdagi guruhlarini ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'limga qo'yiladigan talablarga muvofiq bolalar bilan to'ldirishi;

qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotlardagi inklyuziv guruhlar uchun mo'ljallangan guruhlarini umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarga mo'ljallangan guruhlarini ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarga qo'yiladigan talablarga muvofiq bolalar bilan to'ldirishi shart;

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlarning qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlari ham bo'lishi mumkin.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlar quyidagilar uchun javob beradi:

bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;

bolalar ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotida yoki qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotida bo'lgan vaqtida ularning hayotini himoya qilishni va sog'lig'ini mustahkamlashni tashkil etish;

belgilangan talablarga muvofiq ta'lim-tarbiya, korreksion-pedagogika hamda reabilitatsiya jarayonlarini amalga oshirish;

bolani tarbiyalash va ta'lim berish masalalari bo'yicha uning qonuniy vakillariga maslahatlar bilan yordam berish;

umumta'lim dasturlarini amalga oshirishni tegishli sifalda va belgilangan hajmda ta'minlash;

ushbu Nizomda nazarda tutilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarning va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlarning faoliyati ustidan monitoring hamda nazorat vakolatli davlat organlari tomonidan qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

O'quv jarayonidan siyosiy maqsadlarda yoki ta'lim olayotgan bolalarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunchiligiga zid harakatlarni sodir etishga undash uchun foydalanish taqiqlanadi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarga va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlarga bolalarni qabul qilish hamda ulardan chiqarish

Bolalarni ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotga va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotga qabul qilish ushbu tashkilotda bo'sh joylar bo'lsa, kalendar yil davomida amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarga bolalarni qabul qilish: tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning belgilangan tartibda berilgan xulosasi;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakl bo'yicha bolaning tibbiy kartasi va profilaktik emlash kartasi asosida amalga oshiriladi.

Qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotning inklyuziv guruhlariga rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lmagan bolalar:

bola qonuniy vakilining arizasi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda vakolatli organ bergan yo'llanma (qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkiloti uchun);

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakl bo'yicha bolaning tibbiy kartasi va profilaktik emlash kartasi asosida qabul qilinadi.

Rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarga mo'ljallangan guruhlariga, shuningdek qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotning inklyuziv guruhlariga rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalar quyidagilar asosida qabul qilinadi:

bola qonuniy vakilining arizasi;

tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning belgilangan tartibda berilgan xulosasi;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakl bo'yicha bolaning tibbiy kartasi va profilaktik emlash kartasi asosida qabul qilinadi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda, qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotining rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarga mo'ljallangan hamda inklyuziv guruhlarda bo'lish davri, korreksion ishlari muddati tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya tomonidan belgilanadi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotga va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotga quyidagi nuqsonlari bo'lgan bolalar qabul qilinmaydi:

og'ir va chuqur darajadagi aqli zaiflik;

shizofreniya, hissiy irodaning chuqur buzilishlari;

tez-tez takrorlanuvchi umumlashgan epileptik xurujlar;

turli sababli psixopatiya va psixopatsimon holatlarning og'ir shakllari;

asab tizimining organik shikastlanganligi sababli siydik va najas ushlab tutilmaslik;

yurak-qon tomir, nafas olish va ovqat hazm qilish tizimining xuruj va dekompensatsiya bosqichi.

Bolalar ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotdan va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotidagi rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun guruhlardan quyidagilar asosida chiqariladi:

bolani qonuniy vakillarining arizasi;

sog'liqni saqlash organlari muassasalarining tibbiy ko'rsatmalari;

maktabgacha ta'lim tashkilot va bolaning qonuniy vakillarining o'tasidagi shartnoma shartlarining bajarilmasligi;

maktabgacha ta'lim tashkilot tibbiy-psixologik-pedagogik kengashining xulosasi;

Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning xulosasida ko'rsatilgan bolaning ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotida bo'lish muddati tugashi;

maktab yoshiga yetishi (7 yosh).

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma turdagi

maktabgacha tashkilotda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilot maktabgacha ta'limga qo'yiladigan belgilangan davlat talablariga muvofiq bolalar ta'lim olishi, tarbiyalanishi, parvarishlanishi va sog'lomlashtirilishini ta'minlaydi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotdagi va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotdagi ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan ta'lim dasturi asosida, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan (shu jumladan, mualliflik, moslashtirilgan va boshqa) dastur bilan belgilanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayoni mashg'ulotlarning yillik, kalendar-mavzuli rejalari va jadvallari bilan tartibga solinadi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilot qonunchilikka hamda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq bolalarga ta'lim berish va tarbiyalash shakllari, vositalari va usullarini tanlaydi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotda ta'lim-tarbiya jarayoni ishlab chiqiladigan yakka tartibdagi yo'nalish asosida bolalarning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda tashkil etiladi. Mashg'ulotlar frontal, kichik guruh va yakka tartibda olib boriladi.

Rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarga quyidagi tamoyillar asosida ta'lim beriladi va tarbiyalanadi:

ta'limning korreksion yo'naltirilganligi;

ijtimoiy moslashuv;

ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda ta'limning maxsus metodologiyasidan va to'latilgan yondashuvdan foydalanish.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotda besh kunlik ish haftasi belgilanadi.

Bolalar tashkilotida bo'lish vaqtiga qarab ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotdagi va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotdagi guruhlar:

bolalar qisqa vaqt bo'ladigan guruhlar (kuniga 3-4 soat);

to'liq kunli guruhlar (kuniga 9, 10,5 va 12 soat);

bolalar kechayu kunduz bo'ladigan guruhlar bo'lishi mumkin.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotda ishlash tartibi hamda tarbiyalanuvchilarning bo'lish vaqti uning ustavida va muassis qarorida belgilanadi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va bolaning qonuniy vakillari o'tasidagi o'zaro munosabatlar, qo'shma turdagi maktabgacha tashkilot va

bolaning qonuniy vakillari o'rtasidagi o'zaro munosabatlari bo'la ushbu tashkilotga joylashtirilganda tuziladigan shartnoma bilan tartibga solinadi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotda ta'lim-tarbiya jarayoni maxsus maktabgacha ta'lim bo'yicha tegishli malakaga ega pedagog xodimlar tomonidan o'tkaziladi. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotdagi va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotdagi ta'lim-tarbiya jarayonining psixologik-pedagog kuzatuv psixologlar tomonidan amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotda ta'lim-tarbiya davlat tilida hamda "Davlat tili to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq boshqa tillarda olib boriladi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotda reabilitatsiya jarayonini tashkil etish

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarida va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotlarida rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun reabilitatsiya tadbirlari tashkilot shtatidagi tibbiyot xodimlari, shuningdek, ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotga yoki qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotga hududiy birlashtirilgan sog'liqni saqlash organlari tibbiyot xodimlari tomonidan o'tkaziladi.

Nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarda va qo'shma turdagi nodavlat maktabgacha tashkilotlarda reabilitatsiya tadbirlari tashkilot shtatidagi tibbiyot xodimlari, shuningdek, boshqa tibbiyot xodimlari tomonidan shartnoma asosida o'tkaziladi.

Tibbiyot xodimlari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan davolash standartlariga muvofiq tarbiyalanuvchining rivojlanishidagi nuqsonlarni koreksiya qilishga, rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarni tibbiy reabilitatsiya qilish, abilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashuvga qaratilgan davolash-sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazadi.

Davolashning belgilangan kursi doirasida tibbiy reabilitatsiya muolajalarini o'tkazish har bir tarbiyalanuvchi uchun mashg'ulotlar jadvalini hisobga olib yakka tartibda o'tkaziladi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotda bolaning bo'lish muddati tugaganidan so'ng uning qonuniy vakillari yashash joyidagi tibbiyot muassasasi uchun rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan har bir bolaning tibbiy kartasidan ko'chirma beriladi.

Tibbiy jismoniy tarbiya bo'yicha mashg'ulotlar tibbiy jismoniy tarbiya instruktori yoki tegishli tayyorgarlikka ega o'quvchi tomonidan o'tkaziladi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotda barcha sog'lomlashtirish va reabilitatsiya tadbirlari to'g'ri tashkil etilishi hamda o'tkazilishi ustidan nazorat ushbu tashkilot joylashgan joydagi sog'liqni saqlash organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotining shtatidagi xodimlar sog'liqni saqlash muassasalarida bepul tibbiy tekshiruvdan o'tadi.

Nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va qo'shma turdagi nodavlat maktabgacha tashkilotlar xodimlari sog'liqni saqlash organlarining muassasalari tomonidan shartnoma asosida tibbiy tekshiruvdan o'tkaziladi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotda guruhlarini to'ldirish

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotida rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan 2 yoshdan 7 yoshgacha tarbiyalanuvchilar ko'lingeniga muvofiq quyidagi guruhlar tuziladi:

nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilar uchun;
eshitishida og'ir nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilar uchun;
ko'rishida og'ir nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilar uchun;
psixik rivojlanishda kechikayotgan tarbiyalanuvchilar uchun;

aqli zaif bo'lgan tarbiyalanuvchilar uchun;

tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilar uchun.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotida guruhlar bolalarning toifasiga va yoshiga qarab to'ldiriladi hamda tegishli ravishda quyidagilarni tashkil etadi:

kar tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda — kamida 8 nafar va ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;

zaif eshituvchi tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda — kamida 10 nafar va ko'pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;

ko'zi ojiz tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda — kamida 8 nafar va ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;

zaif ko'ruvchi yaxshi ko'rmaydigan tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda — kamida 10 nafar va ko'pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;

tayanch-harakat apparatida nuqsonlar bo'lgan tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda — kamida 15 nafar va ko'pi bilan 18 nafar tarbiyalanuvchi;

gemiparez, monoparez, plegiya asoratlari bilan tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda — kamida 10 nafar va ko'pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;

bolalar tserebral falaji sindromi asoratlari bilan tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda — kamida 8 nafar va ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;

yengil darajada aqli zaif bo'lgan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda — kamida 8 nafar va ko'pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi; o'rta darajada aqliy zaif bo'lgan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda — kamida 6 nafar va ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;

nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda — kamida 10 nafar va ko'pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;

autizm bilan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda — kamida 8 nafar va ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;

psixik rivojlanishda kechikayotgan uch yoshdan katta bolalarga mo'ljallangan guruhlarda — kamida 10 nafar va ko'pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;

murakkab nuqsonli (ikki va undan ortiq nuqsonli) tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda — kamida 8 nafar va ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi.

Qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlarda inklyuziv guruhlar yoshi bo'yicha to'ldiriladi.

Qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlarda uch yoshdan katta bolalarga mo'ljallangan inklyuziv guruhlar rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarning toifasiga qarab to'ldiriladi hamda quyidagini tashkil etadi:

kamida 20 nafar va ko'pi bilan 25 nafar bola, shu jumladan, ko'pi bilan rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan (zaif ko'ruvchilar yoki zaif eshituvchilar yoki tayanch-harakat apparatida nuqsonlar bo'lgan) 3 nafar bola;

kamida 20 nafar va ko'pi bilan 25 nafar bola, shu jumladan, ko'pi bilan rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan (ambliopiya bilan, ko'zi e'tiyot, yoki nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan yoki autizm bilan) 2 nafar bola;

kamida 20 nafar va ko'pi bilan 25 nafar bola, shu jumladan, ko'pi bilan nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan 3 nafar bola;

kamida 20 nafar va ko'pi bilan 25 nafar bola, shu jumladan, ko'pi bilan psixik rivojlanishda kechikayotgan 3 nafar bola.

Qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlarda guruhlar bolalarning toifasiga va yoshiga qarab to'ldiriladi hamda tegishli ravishda quyidagini tashkil etadi:

kar bolalarga mo'ljallangan guruhlarda — kamida 8 nafar va ko'pi bilan 10 nafar bola;

zaif eshituvchi bolalarga mo'ljallangan guruhlarda — kamida 10 nafar va ko'pi bilan 12 nafar bola;

ko'zi ojiz bolalarga mo'ljallangan guruhlarda — kamida 8 nafar va ko'pi bilan 10 nafar bola;

zaif ko'ruvchi bolalarga mo'ljallangan guruhlarda — kamida 10 nafar va ko'pi bilan 12 nafar bola;

tayanch-harakat apparatida nuqsonlar bo'lgan bolalarga mo'ljallangan guruhlarda — kamida 15 nafar va ko'pi bilan 18 nafar bola;

gemiparez, monoparez, plegiya asoratlari bilan bolalarga mo'ljallangan guruhlarda — kamida 10 nafar va ko'pi bilan 12 nafar bola;

bolalar tserebral falaji sindromi asoratlari bilan bolalarga mo'ljallangan guruhlarda — kamida 8 nafar va ko'pi bilan 10 nafar bola;

yengil darajada aqli zaif bo'lgan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda — kamida 8 nafar va ko'pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi; o'rta darajada aqli zaif bo'lgan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda — kamida 6 nafar va ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;

autizm bilan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda — kamida 8 nafar va ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;

psixik rivojlanishda kechikayotgan uch yoshdan katta bolalarga mo'ljallangan guruhlarda — kamida 10 nafar va ko'pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;

murakkab nuqsonli (ikki va undan ortiq nuqsonli) tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda — kamida 8 nafar va ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida guruhlarni to'ldirish tartibi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini saqlab turish, tuzish va ularda ishlash tartibini

tashkil etishga qo'yilgan sanitariya-gigiyena talablarini hisobga olgan holda muassis tomonidan belgilanadi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarda va qo'shma turdagi

maktabgacha tashkilotlarda oqatlanishni tashkil etish

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotda oqatlanish qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotda tarbiyalanuvchilar oqatlanishini tashkil etish uchun javobgarlik ushbu tashkilotning rahbari zimmasiga yuklanadi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlar faoliyatini moliyalashtirish

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilot faoliyati quyidagilar hisobiga moliyalashtiriladi:

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari;
maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni parvarishlash, oqatlantirish va ularga qarab turish uchun olinadigan ota-onalar to'lovi;
jismaniy va yuridik shaxslarning ixtiyoriy xayriya ehsonlari;

qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotiga va qo'shma turdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga qo'shimcha budjet mablag'larini jalb qilish budjetdan moliyalashtirishni kamaytirishga olib kelmaydi.

Nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi nodavlat maktabgacha tashkiloti moliyalashtirish hamda moddiy-texnik ta'minlash muassis mablag'lari, jismaniy va yuridik shaxslarning ixtiyoriy xayriya ehsonlari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarida va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotlarida bolalarni parvarishlash, oqatlantirish va ularga

qarab turish uchun olinadigan ota-onalar to'lovi qonunchilikda belgilangan miqdorda undiriladi.

Nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarda va qo'shma turdagi nodavlat maktabgacha tashkilotlari o'zi ko'rsatayotgan maktabgacha ta'lim va tarbiya xizmatlari haqi muassis tomonidan shartnoma asosida belgilanadigan narxlar va tariflar bo'yicha to'lanadi, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'lgan oilalarning bolalarini parvarishlash, o'qatlantirish va ularga qarab turish uchun ota-onalar to'lovi imtiyozli shartlar asosida qonunchilikda belgilangan miqdorlarda olinadi.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarida va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotlarida ota-onalar to'lovi undirilmaydigan tarbiyalanuvchilarning rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlar ro'yxati qonunchilikda belgilangan tartibda belgilanadi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti moliyalashtirish ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot tomonidan tasdiqlangan va qonunchilikda belgilangan tartibda ro'yxatga olingan xarajalar smetasi asosida amalga oshiriladi.

Qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotlarining inklyuziv guruhlari qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlangan va ro'yxatga olingan umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun xarajalar smetasi asosida moliyalashtiriladi.

Qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlarning rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarga mo'ljallangan guruhlar qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlangan va ro'yxatga olingan ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun xarajalar smetasi asosida moliyalashtiriladi.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotida va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotida xodimlar ish haqi qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotida rahbarlar, pedagog va tibbiyot xodimlari, shuningdek, tarbiyachilar yordamchilari lavozim maoshlariga hamda tarif stavkalariga 100 foiz miqdorida qo'shimcha to'lov to'lanadi.

Qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotlarining rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarga mo'ljallangan guruhlarda ishlovchi pedagog va tibbiyot xodimlari, shuningdek, tarbiyachilar yordamchilari lavozim maoshlariga hamda tarif stavkalariga 100 foiz miqdorida qo'shimcha to'lov to'lanadi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilot tegishli davlat organlariga qonunchilikda belgilangan tartibda moliyaviy va statistik hisobot taqdim etadi.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotining moliya-xo'jalik faoliyati O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan nazorat qilinadi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotini va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotini boshqaruv

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotini boshqarish qonunchilikka, ushbu Nizomga va mazkur tashkilotning ustaviga muvofiq amalga oshiriladi.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotini va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotini boshqarish organlari quyidagilardan iborat:

Pedagogik kengashi;

Kuzatuv kengashi;

davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat Nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va nodavlat qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlar o'z boshqaruv organlari tizimini mustaqil belgilaydi.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkiloti pedagogik kengashi:

davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotida va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqadi;

davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkiloti ish rejasini hamda pedagog xodimlarning pedagogik yuklamasini belgilaydi;

davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkiloti ta'lim dasturini amalga oshirish natijalarini baholaydi;

davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotining bo'laning qonuniy vakillari bilan hamkorligi tartibini belgilaydi;

davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkiloti pedagog xodimlari malakasini oshirish, ularning ijodiy tashabbusini rivojlantirish, ta'lim jarayoniga fan yutuqlarini va ilg'or pedagogik tajribani joriy etish masalalarini muhokama qiladi;

davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkiloti xodimlarini ma'naviy va moddiy rag'batlantirish masalalarini ko'rib chiqadi;

davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkiloti rahbari va pedagog xodimlari hisobotlarini eshitadi.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotining Pedagogik kengashi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham bajarishi mumkin.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotida va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotida bolani tarbiyalash, rivojlantirish va ta'lim berishda ko'maklashish maqsadida Kuzatuv kengashi tashkil etiladi. Uning tarkibi ushbu

tashkilotga boradigan bolalarning qonuniy vakillari, uning xodimlari, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillaridan tuziladi.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotining Kuzatuv kengashi:

davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi;

tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar orasidan davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkiloti rahbarini saylaydi, shuningdek uni egallagan lavozimidan ozod qilish bo'yicha takliflarni belgilangan tartibda kiritadi;

davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkiloti rahbarining uning faoliyatini takomillashtirish yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar, moliya-xo'jalik holati, daromadlar va xarajalar, bujjet, bujjetdan tashqari, homiylik va boshqa mablag'lardan foydalanish to'g'risidagi davriy hisobotlarini eshitadi;

davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkiloti rahbari, pedagog xodimlar va boshqa xodimlar faoliyatiga taalluqli ijtimoiy so'rovlar o'tkazadi;

tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limlariga davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkiloti xodimlarini rag'batlantirish to'g'risida takliflar kiritadi.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotining Kuzatuv kengashi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham bajarishi mumkin.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkiloti Kuzatuv kengashining faoliyatini tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotiga yoki qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotiga O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim

vazirligi bilan kelishgan holda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining hududiy bo'linmalari tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar orasidan Kuzatuv kengashi tomonidan tanlangan direktor rahbarlik qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining ustaviga muvofiq lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktor nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotining yoki qo'shma turdagi nodavlat maktabgacha tashkilotining rahbari hisoblanadi.

Direktor davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti yoki qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkiloti faoliyatiga joriy rahbarlik qiladi hamda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining Kuzatuv kengashi va muassis oldida hisob beradi

Direktor nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot yoki qo'shma turdagi nodavlat maktabgacha tashkilot faoliyatiga joriy rahbarlik qiladi va muassis oldida hisob beradi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilot rahbarining huquqlari hamda majburiyatlari qonunchilikda, ustavda, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda, shuningdek, mehnat shartnomasida belgilanadi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilot rahbarining lavozimiga qo'yiladigan malaka talablari O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotda psixolog, tibbiyot va pedagog xodimlardan iborat tibbiy-psixologik-pedagogik kengash tuziladi hamda faoliyat ko'rsatadi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotning tibbiy-psixologik-pedagogik kengashi:

bola qabul qilinganda uning o'ziga xos va yosh xususiyatlarini, sog'lig'i holati va rivojlanish darajasini hisobga olib korreksion-pedagogik hamda reabilitatsiya tadbirlarini o'tkazish yuzasidan individual yo'nalishni ishlab chiqadi;

individual yo'nalishni amalga oshirish jarayonida bola rivojlanishi dinamikasini aniqlaydi va zarurat bo'lsa, unga o'zgartishlar kiritadi;

korreksion-pedagogik va reabilitatsiya tadbirlari natijalari, bolaning o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish ko'nikmalari darajasi va ijtimoiy moslashuv dinamikasi, ta'lim-tarbiya dasturlarini o'zlashtirishi monitoringini olib boradi va baholaydi;

bola ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotda bo'lgan muddat davomida uni tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaga qayta tekshiruvga yuborish zarurati haqidagi masalani ko'rib chiqadi;

komissiya xulosasida ko'rsatilgan bolaning bo'lish muddati tugashidan kamida bir oy oldin bolaning qonuniy vakillarini tartiblanuvchining ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotda bo'lish muddati tugaganidan xabardor qiladi hamda ushbu tashkilotlarda bo'lishini davom ettirish yuzasidan uni Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaga tekshiruvga yuboradi.

Yakunlovchi qoidalar

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotda siyosiy partiyalar va diniy muassasalarning tashkiliy tuzilmalari tashkil etilishiga va faoliyatiga yo'l qo'yilmaydi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotda xalqaro hamkorlik, pedagogik axborot va tajriba almashish, pedagog xodimlar va tibbiyot xodimlari amaliyotini o'tkazish va malakasini oshirish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Nazorat savollari?

1. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotning maqsad va vazifalarini yoriting?

2. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibi qanday?

3. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarning va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi nimalardan iborat?

4. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlar faoliyati qanday moliyalashtiriladi?

6-Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish usullari va

boshqaruvchining ilmiy saviyasi

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotining Ustavi.
2. Maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish.
3. Maktabgacha ta'lim tashkilot mudirining ilmiy saviyasi.

"*Menjement*" inglizcha so'z bo'lib, o'zbek tilida boshqaruvni tashkil etish (boshqarish, boshqaruv hokimiyati, tashkil etish), rahbarlik qilish (rejalashtirish, tartibga solish-muvofiqlashtirish, nazorat qilish) ma'nolarini anglatadi. Menjement ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun faoliyatini, ya'ni insonlar yoki ularning guruhlari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda boshqarish usullari, shakllari va vositalari majmuidir.

Sodda qilib aytganda, menjement umumiy holda u yoki bu faoliyat turini tashkil etishni va unga rahbarlik qilishni, ya'ni turli xil sohalarida faoliyat ko'rsatayotgan insonlarning xatti-harakatlarini, munosabatlarini muvofiqlashtirish, ularning imkoniyatlari va qobiliyatlaridan to'g'ri foydalanishni tashkil etish, nazorat qilish va boshqarishni bildiradi. Menjement eng avvalo insonlarni boshqarish, ularni o'z faoliyatiga qiziqitirish, tadbirkorlikka, mehnatga ijodiy yondashish, o'ziga ishonish tuyg'ularini shakllantirish, sohalar bo'yicha bilim,

ko'nikma va malakalarni egallashiga ko'maklashish, yangilikka va ijodkorlikka ehorlash, insonlarning faoliyatini boshqarish demakdir.

L. Fishman fikriga ko'ra, *ta'lim menjementi* – bu ilmiy asosda tashkil etilgan o'ziga xos pog'onaviylikka asoslangan boshqaruv: rahbar, pedagogik jamoa, ta'lim oluvchilar jamoasi. Shunga ko'ra boshqaruvni tuli xil modellar asosida amalga oshirish mumkin: integral model, birinchi pog'ona – pedagogik jamoa faoliyatini boshqarish; ikkinchi pog'ona – bolalar faoliyatini boshqarish.

Bundan tashqari, olimlar ta'lim menjementining bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ham ta'kidlab o'tishadi. Ular orasida quyidagi xususiyatlar asosiy hisoblanadi:

– Ta'lim menjementi "maqsadga muvofiqlik" so'zi bilan aniqlanadigan ma'naviy o'lehovga ega;

– Ta'lim menjementi – bu fan va san'at (chunki bunda insonlar o'rnatiladigan o'zaro munosabatlar katta rol o'ynaydi);

– Menjement mazmunida o'z aksini topadigan shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarining o'zaro dialektik birligi;

– Ta'limni boshqarishda jamoatchilikning faol qatnashuvi.

Mamlakatimizda menjement fanining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan olimlardan M. Sharifxo'jayev, Yo. Abdullayevlar boshqaruv o'ziga xos yuksak san'at va mahoratni talab qiluvchi tanlov, shu tanlov asosida qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish ekanligini ta'kidlab, quyidagicha ta'rif beradilar: "*boshqaruv* – bu tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish jarayonidir".

Ta'lim tashkilotining Ustavi ta'lim tashkilot faoliyatiga rahbarlik va boshqarish tizimini aniqlovchi hujjaddir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining Ustavida ta'lim tashkilotining joylashgan o'rni, uning turi, ta'lim tili, tarbiyachilarning huquq va burchlari, shuningdek, ta'lim tashkilotining iqtisodiy tuzilishi va xo'jalik faoliyati, boshqarish tartibi aniqlanishi ko'rsatib berilgan.

Ta'lim tashkilotining Ustavi quyidagi bo'limlardan tashkil topadi:

1. Qisqacha ta'lim tashkiloti haqidagi ma'lumotlar.
2. Ta'lim tashkilotining maqsad va vazifalari.
3. Ta'lim tashkilotining boshqarish.
4. O'quv-tarbiya va ilmiy-uslubiy ishlarni tashkil etish.
5. Tarbiyachining huquq va burchlari.
6. Tarbiyalanuvchining huquq va burchlari
7. Ma'muriy va yordamchi xodimlarning huquq va burchlari.
8. Ota-onalar yoki ularning o'zining boshqarish shaxslarining huquqlari, majburiyat va mas'uliyatlari.

9. Ta'lim tashkilotining moddiy va moliyaviy xohishlari ta'mini.

Maktabgacha ta'lim tashkilotiga bevosita rahbarlik qilish mudir tomonidan amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti mudirini ishga qabul qilish qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan kelishgan holda amalga oshiriladi. Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti mudiri bilan mehnat shartnomasi bir yil muddatga tuziladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti mudiri lavozimiga qo'yiladigan malaka talablari belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'limi vazirligi tomonidan belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti mudiri:

- Maktabgacha ta'lim tashkiloti nomidan ishonchmasiz faoliyat ko'rsatadi, barcha tashkilot va tashkilotlarda uning manfaatlarini ifodalaydi;
- Maktabgacha ta'lim tashkiloti mol-mulkini o'ziga berilgan vakolalar doirasida tasarruf etadi;
- Ishonchnomalar beradi;
- Bank tashkilotlarida hisob raqamlar ochadi;
- Maktabgacha ta'lim tashkilot xodimlarini ishga qabul qilish va joy-joyiga qo'yishni amalga oshiradi, rag'batlantiradi, intizomiy jazo choralarini ko'radi va ular bilan tuzilgan mehnat shartnomalari (kontraktlari)ni to'xtatadi;

– O'z vakolatlari doirasida buyruqlar (farmoyishlar) chiqaradi;

– Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ishlarni takomillashtirish, moddiy bazasini mustahkamlash, xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishni ta'minlash bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish uchun xalq ta'limini boshqarish yuqori organiga kiritadi;

– Bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishning samarali tashkil etilishi o'quv tarbiya jarayoni, moliya-xohishlarni ahamiyatini, moddiy-texnik bazaning mustahkamlanishi va moddiy boyliklarning saqlanishi uchun javob beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti – murakkab tarmoq bo'lib, mudiraning undagi roli, faoliyati ko'p qirralidir. Mudira - maktabgacha ta'lim tashkilotining tashkilotchisi, rahbari, malakali pedagog, uning faoliyati maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni komil inson qilib tarbiyalash vazifalarini to'laqonli hal etishga qaratilgan. U bolalar tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiyaviy, pedagogik va gigiyenik talablarga muvofiq ravishda amalga oshirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi. O'z jamoasida ishtirok, maqsadga qaratilgan inoqlik vaziyatini yaratadi. Ulariga umumiy rahbarlik qiladi. Mudira o'z ishida davlatimiz va maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan qabul qilingan qaror, qonunlarga amal qiladi va o'z ustida ijodiy ravishda ishlashni amalga oshiradi. Yuksak ongillik va shaxsiy yetuklik, prinsiplilik, o'ziga va qo'l ostidagilarga talabchanlik – bu mudirga qo'yilgan asosiy talablardir.

Jamoadagi to'g'ri, o'zaro munosabatlarda har bir xodimning mehnat va ishlab chiqarish intizomligiga roya qilishni ta'minlaydi.

Rahbarlik mavqeyi mudira o'z g'oyaviy, ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy, huquqiy mas'uliyatini va mintaqaviylik mahoratini doimo ravishda pedagogik bilimlarni bolalarga ta'lim-tarbiya berish nazariyasi va amaliyotini puxta egallashga, hozirgi bosqichda maktabgacha ta'lim oldida turgan vazifalarni bilishga, o'z bilimlaridan amaliy faoliyatiga foydalanishga majbur etadi. U dastur, uslubiy, normativ hujjatlarni yaxshi bilish va unga amal qilishi kerak. U pedagogik jarayoning

mohiyatini chuqur bilib, yutuq va kamchiliklarini dathol bartaraf qilish choralari ko'rish lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari Maktabgacha ta'limni boshqarish organlari tomonidan oliy ma'lumotga va 5 yildan kam bo'lmagan pedagogik ish tajibga ega bo'lgan shaxslardan tayinlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish tartibyalash bo'yicha ishini mehnat jamoasi, maktabgacha ta'lim tashkilot kengashining faollari ishtirokida amalga oshiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilot rahbarlari kadrlarning kasb mahoratini, umumiy ta'lim va madaniy daajasini muntazam o'stirib borishiga g'amxo'rlik qiladi: xodimlar malakasini hisobga olgan holda va maktabgacha ta'lim tashkilot manfaatlaridan kelib chiqib, ularni ratsional va o'z vaqtida joydan joyga ko'chirib turilishini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida kadrlar zaxirasi shakllantirilib, ular bilan doimiy ish olib boriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotining shaxsiy tarkibi quyidagilardan iborat: ma'muriy guruh (mudir, tartibychi-uslubchi, xo'jalik mudiri, katta tibbiyot hamshirasi), pedagogika, tibbiyot xizmat ko'rsatish tarmoqlari xodimlari.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti ma'muriyati jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda o'z-o'zini boshqaruv asosida bolalarni tartibyalashda yuksak natijalarga erishishga qodir bo'lgan turg'un mehnat jamoasini shakllantiradi; kadrlarni o'zini muntazam takomillashirib borish, pedagogik va xizmat ko'rsatish, mehnat samaradorligini oshirish ruhida tartibyalaydi, o'z jamoasi, tanlagan kasbi uchun faxrlanish hissin shakllantiradi.

Ma'muriyat jamoat tashkilotlari bilan birgalikda maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish uchun optimal shart-sharoitlarni ta'minlaydi, ularga o'z vaqtida zarur uslubiy yordam ko'rsatadi.

Mudira — ma'naviy, siyosiy, huquqiy, axloqiy yetuklik — saviya, ong, ma'rifatchilik, madaniylik, xodimlarni vatanparvarlik ruhida tartibyalash, halollik,

viloyatlik, tanqidga chidamli bo'lish, mehnatsevarlik istiqbolini oldindan ko'ra olish kabi xususiyatlar mavjud bo'lishi kerak.

Lavozim vazifalari:

- Maktabgacha ta'lim tashkiloti umumiy faoliyatiga rahbarlik qilish;
- Pedagogik jamoa va boshqa xodimlarning bolalar bilan olib boradigan tartibyalay ishlarda yuqori samaraga erishishni tashkil qilish;
- Tartibyalay jarayonda mehnatni tashkil qilishning zamonaviy shakllardan foydalanish;

foydalanish:

- Bolalarni boshlang'ich sinfda o'qitishga tayyorlash bo'yicha davlat talablariga muvofiq tartibyalash dasturlarining bajarilishini nazorat qilish;
- Bolalar sog'lig'ini mustahkamlash, ularni pedagogika va gigiyena talablariga muvofiq tartibyalash va o'qitish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni ta'minlash;

- Pedagogik kengashga rahbarlik qilish, oilada farzand tartibyasi masalalari bo'yicha ota-onalar bilan ishlashni tashkil etish;

- Sanitariya-gigiyenik talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilishni ta'minlash;

- Byudjet mablag'laridan oqilona foydalanish va tashkilot mulkiga ehtiyohtkorona munosabada bo'lish va boshqalar.

Bilishi lozim:

- Ta'lim tizimiga tegishli qonunlar, hukumatning tegishli qarorlari, Xalq ta'limi vazirligi tomonidan chiqarilgan normativ-huquqiy hujjatlarni;
- Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari, tartibyalay ishlar konsepsiyasi va boshqalar.

Malaka talablari:

- O'z yo'nalishi bo'yicha kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumot va kichik yoshdagi bolalarni tartibyalash bo'yicha kurslarni tugatganlik;

- Xorijiy tillardan birining boshlang'ich bosqichini va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni bilishi;

- Besh yildan kam bo'lmagan staji.

Nazorat savollar

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotining Ustavini izohlang?
2. Maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarishda nimalarga e'tibor qaratish kerak?
3. Maktabgacha ta'lim tashkiloti mudirasiining ilmiy sa'viyasi qanday bo'lmog'i lozim?

7-Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik kengash. uning maqsad va vazifalari

Reja:

1. Pedagogik kengashning maqsadi.
2. Pedagogik kengashning vazifalari.
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik kengash raisi.

Darsning texnologik kartasi

Ish jarayonlari vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1 bosqich. Kirish (10 daqqa)	1.1. Ma'ruzaning mavzusi, rejasini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va o'quv faoliyat natijalarini tushuntiradi 1.2. Mashg'ulotni o'tkazish shakli va baxolash mezonlarini e'lon qiladi	Tinglaydi, mavzu nomini yozib oladi Yozib oladi
2 bosqich. Asosiy jarayon	2.1. Mavzu rejasining birinchi punkti rejasini bo'yicha ma'rufa qiladi (3-illova) Ma'rufa bo'yicha «Qanday?» usulidan foydalanilgan	Yozadi, savolga javob beradi.

(60 daqqa)		
holda talabalarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: Maktabgacha ta'limni tashkil etish va boshqarishning fan sifatidagi rivoji haqida nimalarni bilasiz?		
2.2. Mavzu rejasining ikkinchi punkti bo'yicha ma'rufa qiladi (5-illova). Ma'rufa bo'yicha «Qanday?» usulidan foydalanilgan holda talabalarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: "pedagogik kengash deganda nimani tushunasiz?"		Yozadi, savolga javob beradi.
2.3. Pedagogik kengash murakkab jarayon kabi masalalarni yoritishda «Kichik guruhlarda ishlash» orqali analga oshirilishini e'lon qiladi. "FSMU" texnikasidan foydalanilgan holda guruhlariga topshiriqlar beradi		Savollarga javob beradilar, erkin bahs-munozara yuritadilar. Guruhlarda ishladilar.
2.4. Guruhlarda ishlashga yordam beradi. Qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi. Har bir guruh topshiriqlarini valman - qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishga yordam beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e'tibor beradi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi. Fikrlarini tinglab, umumlashtiradi.		
3 bosqich.	3.1 Mavzu bo'yicha umumiy xulosa	Tinglaydilar

Yakuniy bosqich (10 daqiq)	qilinadi.	Yozib oladi
	3.2. Talabalarining baholash mezonlarini e'lon qilindi	
	3.3. O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar beradi	Javob yozadi
	3.4 Navbaddagi mashg'ulorda ko'riladigan mavzuni e'lon qiladi va "insert" usulida jadvalga mustaqil ta'limga tayyorgarlik ko'rishlarini so'raydi	"Insert" usulida jadvalni to'ldiradi.

Pedagogik kengash "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishga qo'yiladigan Davlat talablari" asosida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga, pedagogik jamoa, ota-onalar va homiyilarni birlashtirib, tashkilot faoliyati bilan bog'liq vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladigan kollegial organ hisoblanadi.

Pedagogik kengash o'z faoliyatini tashkil qilishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi Qonuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrda "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqaruvni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5198-sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi 3305-son qarori O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrda "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3955-sonli qarori, Maktabgacha ta'lim vazirligining qaror va buyruqlari, tashkilot Ustavi hamda mazkur Nizomga amal qiladi.

Pedagogik kengashning asosiy vazifalari

Pedagogik kengashning (keyingi o'rinlarda - Kengash deb yuritiladi) vazifalari quyidagilardan iborat:

66

davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagogik kengashi pedagog xodimlardan iborat bo'lgan, uning pedagogik faoliyati bilan bog'liq masalalarni muhokama qilishga doir vakolatlarni amalga oshiradigan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining kollegial boshqaruv organidir;

davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqadi; davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining ish rejasini va pedagog xodimlarning pedagogik ish tartibini tasdiqlaydi;

davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim dasturini amalga oshirish natijalarini baholaydi;

davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'laning qonuniy vakillari bilan o'zaro munosabatlari tartibini belgilaydi;

davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog xodimlarining malakasini oshirish, ularning ijodiy tashabbuskorligini rivojlantirish, ta'lim va tarbiya jarayoniga ilim-fan yutuqlarini va ilg'or pedagogik tajribani joriy etish masalalarini muhokama qiladi;

Davlat mukofotlari uchun davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining xodimlari nomzodini tavsiya etadi;

davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining va pedagog xodimlarining hisobotlarini eshitadi;

davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagogik kengashi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

ta'lim tashkiloti pedagogik jamoa faoliyatini yonaltirish, tarbiyalanuvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish, "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari"ning bajarilishini ta'minlaydi;

ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish samaradorligini oshirishda maqbul shart-sharoitlar yaratishga doir qarorlar qabul qiladi;

67

pedagog xodimlarning muftuzi va metodik salohiyatini oshirish, ularning tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish bo'yicha maqsadli ishlarni tashkil etadi;

pedagogik jamoaning ma'lum yo'nalishlardagi faoliyatini tahlil qiladi va yakuniy xulosa beradi;

ilg'or pedagoglarning ish tajribalarini o'rganish, ommalashtirish, yosh pedagoglarga metodik yordam ko'rsatish ishlarini amalga oshirish yo'llarini belgilaydi;

"Ustoz-shogird" an'analari, uzluksiz malaka oshirish borasida amalga oshirilgan ishlarning bajarilishini nazorat qiladi, hisobotlarni tinglaydi va tahlil qiladi;

tartibyalanuvchilarda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-ahloqiy fazilatlarini shakllantiradi, bola shaxsini rivojlantirishda ta'lim jarayoniga ilg'or zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etadi;

tartibyalanuvchilarni milliy urf-odat va an'alarimizga zid bo'lgan tashqi g'oyaviy hurujlardan himoya qilish choralarini ko'radi;

Maktabga tayyorlov guruhlarining ta'lim-tarbiyaviy jarayoniga zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta'lim va tarbiyaning samarali shakllari va usullarini joriy etadi;

bolalarni boshlang'ich ta'limga sifatli tayyorlash bo'yicha hamkorlik ishlarni takomillashtiradi;

ilg'or xorijiy tajribalar va milliy g'adriyatlari uning unlashtirilgan pedagogik jarayonlarni rag'batlantiradi;

davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining variativ va ishchi dasturlarini tasdiqlaydi.

Pedagogik kengash maktabgacha ta'lim tashkilot faoliyatiga doir asosiy masalalar kollegial muhokama qilinadigan, ta'lim tashkilotida o'quv-tarbiya jarayonini rivojlantirish, takomillashtirish, uning faoliyati bilan bog'liq barcha tashkiliy masalalarni muvofiqlashtirish bo'yicha doimiy faoliyat yuritadigan oliy

organ hisoblanadi. Pedagogik kengashning faoliyati jamoatchilik asosida tashkil etiladi.

Mazkur Namunaviy nizom talablari barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlariga nisbatan tatbiq etiladi.

Pedagogik kengashning maqsadi va asosiy vazifalari

Pedagogik kengashning maqsadi maktabgacha ta'lim tashkilotida davlatning ta'lim siyosatini amalga oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotining maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish, uni takomillashtirishda pedagogik jamoaning faoliyat yo'nalishini belgilash, ta'limdagi yutuqlarni va ilg'or pedagogik tajribalarni amaliyotga joriy etishda pedagogik jamoani birlashtirish, demokratiya, oshkoralik, o'zini o'zi boshqarish tamoyillari asosida maktabgacha ta'lim tashkilot boshqaruvini amalga oshirishdan iborat.

Pedagogik kengashning *asosiy vazifalari* quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogik jamoasining faoliyatini tartibyalanuvchilarning e'gallashi lozim bo'lgan davlat talablarini ta'minlashga, bolalarga ta'lim-tarbiya berish sifatini oshirishga yo'naltirish;

- mashg'ulotlar dasturlarini muhokama qilish va tasdiqlash;

- maktabgacha ta'lim tashkilotining vasiylik kengashi hamda pedagog kodmlarining yo'nalishlar bo'yicha axborotlari va hisobotlarini eshitish, maktabgacha ta'lim tashkilotining sanitariya-gigienik holati, yong'inga qarshi amalg'a oshiriladigan ishlar, mehnatni muhofaza qilish, bolalarning sog'lig'i va hayotiga oid hamda boshqa masalalarni muhokama qilish va yakuniy xulosa berish;

- bolalarga ta'lim berishda o'qitishning ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishni tatbiq etish choralarini ko'rish;

- bolalarni yuksak ma'naviy-ahloqiy, umuminsoniy va milliy ruhda, o'z Vatani, xalqini ardoqlovchi, tinchlik va barqarorlikka qaratilgan milliy qadriyatlarni asosida tartibyalash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish va joriy etish;

- maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha maqbul shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qarorlar qabul qilish;

- fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari iltimosnomasiga va oltinlar qo'mitasining xulosasiga asosan darsliklar to'plami bilan bepul ta'minlanadigan ijtimoiy yordamga muhtoj oilalardagi bolalar ro'yxatini tasdiqlash;

- ilg'or tarbiyachilarning ish tajribalarini o'rganish, ommalashtirish, ularni davlat mukofotlariga tavsiya etish, yosh tarbiyachilarga metodik yordam ko'rsatish ishlarini tashkil etish;

- o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda va ta'lim samaradorligini oshirishda maqbul shart-sharoitlar yaratishga oid pedagogik jamoaning ma'lum yo'nalishlardagi faoliyatini tahlil qilish va yakuniy xulosa chiqarish;

- maktabgacha ta'lim tashkiloti jamoasi uchun o'z vakolati doirasida me'yoriy talablarni ishlab chiqish, tasdiqlash va bajarilishini nazorat qilish;

- bolalarni O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining tegishli tashkilotga o'tkazish haqida qaror qabul qilish (imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida).

Pedagogik kengashga qonun hujjatlarga muvofiq boshqa vazifalar ham yuklatilishi mumkin.

Nazorat savollar

4. Pedagogik kengashning maqsadi nimalardan iborat?
5. Pedagogik kengashning vazifalarini izohlab bering?
6. Maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik kengash raisining vazifalari nimalardan iborat?

8-Mavzu: Pedagogik kengashni tashkil etish tamoyillari.

Reja:

1. Pedagogik kengashning tarkibi va uning faoliyatini tashkil qilish.
1. Pedagogik kengashning huquq va majburiyatlari.

2. Pedagogik kengash hujjatlari.

Tayanch tushunchalar: pedagogik kengash, mudira, metodist, tarbiyachilar, pedagogik kengash to'g'risida namunaviy nizom.

Pedagogik kengashning tarkibi va uning faoliyatini tashkil qilish

Maktabgacha ta'lim tizimidagi barcha davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon, farmoyishlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi hukumat qaror va farmoyishlarini Maktabgacha ta'lim vazirligi Hay'at qarorlari, buyruqlarini ijrosini ta'minlash, ularni davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatiga tadbir etishga qaratilgan vazifalarni belgilash, tashkilotni rivojlantirishga qaratilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish uchun yaratilgan o'quv-metodik majmualardan oqilona foydalanish, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturini amaliyotga tadbir etishda faollik markazlarida ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishda tarbiyachilarning kompetentsiyaviy yondashuvini takomillashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayonini samaradorligini ta'minlash, tashkilot faoliyati bilan bog'liq barcha tashkiliy masalalarni muvofiqlashtirish, pedagoglarning kasb mahorati va ijodkorligini rivojlantirish, milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiradigan va bolalardan kitob o'qishga qiziqishni singdiradigan o'quv-metodik, didaktik materiallar, rivojlantiruvchi o'yin va o'yinchoqlar, badiiy adabiyotlardan keng foydalanish, ilg'or xorijiy tajribalar asosida pedagogik jarayonlarni tashkil etish bo'yicha ish tajribalarni, milliy an'ana va urf odatlarni tarbiyalanuvchilarga yetkazish shakllarini ommalashtirish maqsadida Pedagogik kengash faoliyat ko'rsatadi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori Kengashning raisi hisoblanadi va uning faoliyatini boshqaradi. Pedagogik kengash kotibi jamoa tomonidan birinchi pedagogik kengashda bir yili muddatga saylanadi.

Kengash yig'ilishlari o'quv yili avvalidan boshlanib, har chorakda bir marta o'tkaziladi. Zaruriyat bo'lgan hollarda navbatdan tashqari Pedagogik kengash o'tkazilishi mumkin.

Kengash a'zolarining kamida uchdan ikki qismi qatnashganda Kengash o'rgan hisoblanadi.

Kengashda qatnashgan pedagoglarning uchdan ikki qismi yoqlab ovoz bersalar, qaror qabul qilingan hisoblanadi. Ovozlar teng bo'lgan taqdirda, Kengash raisining qarori hal qiluvchi hisoblanadi.

Navbatdan tashqari chaqirilgan kengashga esa kengash a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etishi kerak.

Ovoz berish tartibi kengash yig'ilishida ochiq ovoz berish yo'li bilan belgilanadi.

Pedagogik kengashi tarkibiga 5 kishidan kam bo'lmagan (toq sonda) holatda tashkil etiladi (kengash raisi, uning kotibi va 3 nafar a'zosi).

Kengash tarkibiga shifokor, hamshira, ota-onalar (Kuzatuv kengashi) qo'mitasi raisi, mahalla fuqarolar yig'ini xodimlari kirishi mumkin.

tashkilot shifokori, hamshira, ota-onalar (Kuzatuv kengashi) qo'mitasi raisi, mahalla fuqarolar yig'ini xodimlari kengashda kuzatuvchi sifatida qatnashadi va ovoz berish vakolatiga ega emas.

Kengashning o'tkazish vaqti, joyi va kun tartibi tashkilotda bir oy oldin e'lon qilinadi va kengashning e'lonlar taxtasiga joylashtiriladi.

Kengashda muhokama etiladigan materiallar doimiy hamda vaqtinchalik tashkil topgan guruhlar yoki tashkilot ma'muriyati tayinlagan pedagoglar tomonidan tayyorlanadi.

Kengashda tashkilotning ish rejasi, malaka oshirish rejasining bajarilishi, nazorat turlari bo'yicha o'rganish xulosalari, xodimlarning hisobotlari va

tartibiyachilarning rivojlanish xaritalari yuzasidan hisobotlari, tashkilotning sanitariya-gigienik ahvoli va tartibyalanuvchilarning sog'lomligi va tashkilot faoliyatining boshqa masalalari ko'rib chiqiladi.

Kengash pedagoglarning ilg'or ish tajribalarini o'rganish, umumlashtirish va ommalashtirish, yosh pedagoglarga yordam uyushtirish ishlarini amalga oshirish yo'llarini belgilaydi.

Kengashda ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, tarbiya jarayonining shakli va metodlarini amalga oshirish yo'llari muhokama qilinadi, tartibyalashning ilg'or usullarini joriy etish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini olib borish, oliy ta'lim muassasalari, jamoat va nodavlat tashkilotlari, maktab, mahalla, oila bilan hamkorlik qilish yo'nalishlarini belgilaydi.

Kengashda kun tartibidagi masalalarni ko'rishdan oldin avvalgi kengashda qabul qilingan qarorlarning ijrosi haqidagi masala eshtiladi va ijrosi ta'minlangan har bir masala yuzasidan qabul qilingan qarorlar nazoratdan olinadi.

Kengash kun tartibida ko'rilayotgan har bir masala aniq ifodalangan bo'lishi, masalalar o'quv yilining asosiy vazifalaridan kelib chiqqan holda kiritilishi lozim.

Kengashda ko'riladigan masalalar soni uchdan oshmasligi zarur.

Kengash qarori ijrosini nazorat qilish davlat maktabgacha ta'lim tashkilot rahbari zimmasiga yuklatiladi.

Pedagogik kengash huquqlari

Pedagogik kengash davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini rivojlantirish yo'nalishining istiqbolli rejasini belgilaydi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarining bajarilish yo'llarini belgilab beradi va ijrosini ta'minlaydi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishda turli shakl va metodlarni ishlab chiqadi.

O'z vakolati doirasida ishlab chiqilgan hujjatlarni muhokama qiladi va tegishli qarorlar qabul qiladi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti Ustaviga muvofiq pedagog xodimlarni jazolash bo'yicha masalalarni hal qiladi.

Yil davomida amalga oshirilgan ishlar, hamda tashkilotning yillik ish rejasining bajarilishi yuzasidan davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining hisobotini eshitadi.

Pedagogik kengash majburiyatlari

Pedagogik kengash qarorini bajarish davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining har bir xodimi uchun majburiydir.

Pedagogik kengashning qonun hujjatlarga muvofiq boshqa majburiyatlari ham bo'lishi mumkin.

Pedagogik kengashdan o'z faoliyati jarayonidan siyosiy maqsadlarda yoki qonun hujjatlarga zid bo'lgan harakatlarni sodir etishga undash uchun foydalanish taqiqlanadi.

Pedagogik kengash Nizomida belgilangan vazifa va funksiyalarni bajarish uchun javob beradilar.

Pedagogik kengash bayonoma daftaring yuritilishi

Kengash bayonnomasi yoziladigan daftarning kirish qismida kengash o'tkaziladigan sana, bayonoma tartib raqami, qatnashgan pedagoglar soni, kengash raisi va kotibining ismi, shartli yoziladi, qatnashmagan pedagoglarning qatnasha olmaslik sabablari ko'rsatilgan holda familiyalari tartib bo'yicha yozib chiqiladi.

Bayonnomalar daftarida Pedagogik kengashi kun tartibiga kiritilgan masala muhokamasi, kengash a'zolari kiritgan taklif va mulohazalar hamda kun tartibidagi har bir masala yuzasidan qabul qilingan alohida qarorlar gayd etib boriladi. Kun tartibiga "Turli masalalar" yoki "Boshqa masalalar"ning kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Bayonnomalarda yo'l qo'yilgan xatoliklar izohlanadi va kengash raisining imzosi bilan tasdiqlanadi. Bayonnomalar aniq, ozoda, ravon husnixat bilan yoziladi, daftarning har bir sahifasi ragamlanadi va tikiladi.

Bayonnomalar daftari tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limi mudiri tomonidan, nodavlat davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti uchun muassis tomonidan imzolanadi va muhrlanadi.

Kengash bayonnomasi Pedagogik kengashi raisi va kotibi tomonidan imzolanadi va muhrlanadi.

Pedagogik kengashi bayonnomasi har o'quv yili boshida yangidan ragamlanadi

Pedagogik kengash hujjatlari

Pedagogik kengash hujjatlari davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining ish yuritish hujjatlari bilan birga saqlanadi.

Pedagogik kengash hujjatlari tashkilotda doimiy saqlanadi.

Pedagogik kengash hujjatlari quyidagilardan iborat:

Bayonoma va pedagogik kengash kun tartibida muhokama qilingan masalalarga oid hujjatlar (tahliliy ma'lumotnoma, qaror loyihasi va h.k.).

Nazorat savollar

1. Mashg'ulotlar dasturlarini muhokama qilish va tasdiqlash pedagogik kengashning vazifasimi yoki huquqimi?

2. Pedagogik kengashni kim nazorat qiladi?

3. Pedagogik kengash faoliyati nima asosida tashkil etiladi?

4. Pedagogik kengashga kim raislik qiladi? Kengash raisi o'z vazifalarini

bajara olmay qolsa, kim uning vazifalarini bajarib turadi?

5. Pedagogik kengashga kimlar a'zo bo'ladi?

6. Pedagogik kengash kotibi vazifasini kim bajaradi?

7. Pedagogik kengash bayonnomasining kirish qismida nimalar yozilgan bo'lishi kerak?

8. Pedagogik kengash yig'ilishlari vakolatli hisoblanishi uchun kengash a'zolarining necha qismi qatnashishi kerak, navbatdan tashqari yig'ilishda-chi?

9. Pedagogik kengashda qaror qabul qilish qanday amalga oshiriladi?

9-Mavzu: Metodik boshqaruv – asosiy boshqaruv funksiyalari.

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish va boshqarish.
2. Maktabgacha ta'limni rejalashtirish va moliyaviy ta'minlash.
3. Shaxar va tuman ta'lim tashkilotlarini boshqarish va metodik ta'minlash bo'limlarining vazifalari.
4. Maktabgacha ta'lim bo'limlarining tashkilotchilik ishlari.

Tayanch tushunchalar va atamalar: maktabgacha ta'limni rejalashtirish, moliyaviy ta'minlash, asosiy prinsiplar, xalq bo'limi, Shahar va tuman ta'lim tashkilotlari.

Hozirda bolalarni maktabgacha ta'limga jalb etish 20% ni tashkil etmoqda. Ta'lim to'g'risidagi Qonunning II moddasi maktabgacha ta'limga bag'ishlangan. «Maktabgacha ta'lim» bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-etti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'iyy nazar boshqa ta'lim olib boriladi» deyiladi. Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturining maqsadi ham komil inson tarbiyasiga qaratilgan. Kontsepsiyada: maktabgacha ta'limning tarkibiy va mazmunini qayta ko'rishgancha fikrlaydigan o'zbek xalqining milliy an'analari, qadriyatlari, xalq ijodiyotining o'ziga xosligi, tilda o'z aksini topuvchi tafakkur xususiyatlari xalq pedagogikasining ulkan tajribasi oiladagi o'zaro munosabat, milliy o'z-o'zini anglash, boshqa xalq madaniyatidagi ijobiy xususiyatlarini uyg'unlashtirish masalalari, maktabgacha va oila ta'limida hal etiladi.

Moliyalashtirish bo'limi rejasida asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini loyihalashtirish, rejalashtirish belgilanadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti mustaqil ravishda iqtisodiy va sosial rivojlanish rejasini ishlab chiqadi. Moliyalashtirish xo'jaligi rejasiga asoslanib, ta'limni ilmiy nuqta nazaridan davlatimiz tomonidan ko'rsatib berilgan qonun, qaror, direktiv yo'l-yo'riqlari asosida rejalashtirishdir. Joylarning tashabbuslari bilan idora, jamoa tashkilotlari. Maktabgacha tashkilot

yerdan, suvdan foydalanish, tabiatni muhofoza qilish, qurilish, aholiga ijtimoiy sohasini rivojlantirish, mehnat resurslaridan foydalanish, xodimlar soni va maktabgacha ta'lim tashkilot huquqi doirasidan tashqariga chiqadigan boshqa sohalar bo'yicha o'z rejasini xalq deputatlari yig'ilishi bilan muvofiqlashtiradi.

Rejalashtirish istiqbol va joriy turlardan iborat. Istiqbol rejada 10 yoki 5 yillarga mo'ljallanadi. Bu Maktabgacha ta'limi moliyaviy ekonomiya bo'limlarda va uzoq muddatga mo'ljallangan rejalarda aks etadi. Joriy rejalashtirish. Bu har yili amalga oshiriladigan moliyaviy xo'jalik ishlari. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va yuqori bo'limlarning munosabati, reja, boshqarish, Davlat korxonasi birlashmasi to'g'risidagi Maktabgacha ta'limida xo'jalik mexanizmining asosiy qoidalari doirasidagi qonunning ayrim qoidalarga rioya qilish asosida ish yuritiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari vazirliklar, idoralar, xalq deputatlari kengashlari ko'rsamasiga binoan ularga buysongan korxonalar tashkilotlar, xalq deputatlari tomonidan moliyalashtirish xo'jaligi rejasida belgilab berilgan bolalar kontingenti doirasida tuziladi. Ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlashni moliyalashtirish tizimi takomillashiriladi, uning ko'p variantli (byudjetdan ajratilgan va byudjetdan tashqari manbalardan) tizimi joriy etiladi, ta'lim tashkilotlarining o'zini o'zi pul bilan ta'minlashi rivojlantiriladi, xususiy hamda chet el investitsiyalarini ta'lim sohasiga jalb etish rag'batlantiriladi.

Smeta maktabgacha ta'lim tashkilotining barcha harakatlari va bu harajatlari, manbalar, byudjet ajratmalari va ota-onalar mablag'lari ko'rsatiladi. Yozgi sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazish uchun alohida smeta tuziladi. Smetaning 6 bo'limi va har bir moddasi haqida tushuncha berish. Ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini aniqlashda tashkilotdagi guruhlar, bolalar soni, tashkilotda bolaning bo'lish vaqti, necha soat ishlashiga, ishini turiga ham alohida e'tibor beriladi. Smeta harajatlari rejalashtirish bo'yicha 1-modda «Ish haqi», 2-modda «Ish haqiga nisbatan ajratmalar», 3-modda «Idora va xo'jalik harajatlari», 4-modda «Komandirovka va xizmat harajatlari», 5-modda «O'quv o'rganuv, kutubxona va o'yinchoqlar sotib olish», 8-modda «Ovqatlanirish harajatlari», 12-

modda «Asbob-uskuna va inventarlar sotib olish», 16-moddada «Bino va inshootlarning kapital remonti», 18-moddada «Boshqa harajatlari» kiradi. Smetada maktabgacha ta'lim tashkilotining barcha harajatlari va bu harajatlarni qorejaadigan manbalar: byudjet ajratmalari va ota-onalar mablag'larini ko'rsatiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy tarbiya qiladigan Davlat korxonasi ekanligi. Maktabgacha ta'lim muassasasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari va boshqa hujjatlarga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, «Maktabgacha ta'lim tashkiloti to'g'risida»gi Nizomga hamda o'z Ustaviga amal qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti oila va jamiyatning bolalarga g'amxo'rlik qilish, milliy va mintaq xususiyatlarini hisobga olgan holda har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash va rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida tashkil etiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti mustaqil ravishda, o'z tashabbusi bilan o'z faoliyatiga taalluqli, agar ular qonunchilikka va pedagogik printsiplarga muvofiq qilmasa har qanday qaror qabul qilishga haqlidir. Maktabgacha ta'lim muassasasi ta'lim-tarbiyaviy ishlar sifati bolalar va ota-onalar huquqiga jamiyat va Davlat manfaatlariga rioya qilish uchun ma'suldir. bog'liq masalarni birga hal qiladi.

Nazorat savollar

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish va boshqarishda nimalarga e'tibor qaratilishi lozim?
2. Maktabgacha ta'limni rejalashtirish va moliyaviy ta'minlash qanday amalga oshiriladi?
3. Shahar va tuman ta'lim tashkilotlarini boshqarish va metodik ta'minlash bo'limlarining vazifalari nimalardan iborat?

10-Mavzu: Maktabgacha ta'lim bo'limlari tomonidan MTni nazorat qilish.

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini frontal – yalpi tekshirish.
2. Frontal – yalpi tekshirish olib borishining asosiy yo'llari.

3. Tematik tekshirishning maqsad va vazifalari.

4. Tekshirish AKTini tuzish va unga qo'yilgan talablar.

Amalda, nazorat qilishning asosiy turlari frontal va tematik tekshirish turlaridan foydalaniladi.

Frontal tekshirishi – bu maktabgacha tarbiya tashkiloti ishini hayotiy har tomonlama, atroflilcha tekshirish formasidir. Ya'ni, tashkilotning kadrlar tarkibi, maktabgacha tarbiya dastur talablarni bajarilishi, mudira va katta tarbiyachining ta'lim-tarbiyaviy va metodik, moliyaviy xo'jalik ishlariga ularning kadrlar bilan ishlashi, ota-onalar va jamoatchilik bilan ish faoliyati, ish formalari, tibbiyot xizmati, maktab bilan aloqa, ilg'or ish tajribalarni o'rganish, umumlashtirish va ommalashtirish ishlarini amalga oshiruvchi tekshirish turidir.

Frontal tekshirishga barcha tipdagi maktabgacha tarbiya tashkilotlari, ularning kuchli yoki kuchsizligidan qat'iy nazar tekshiriladi. Kuchsiz tashkilotlarga ahamiyatni ko'proq jalb qilishi lozimdir. Frontal tekshirish 4 yilda bir marta Maktabgacha ta'lim bo'limi (Viloyat, shaxar, tuman bo'limi) tomonidan o'tkaziladi. Frontal tekshirish o'tkazishda avval: to'la – to'kis tuzilgan, tasdiqlangan tekshirish rejasini va savollar aniq yoziladi, tekshirish metodi, tekshiruvchilarning ish vazifalari, majburiyatlari va tekshirish muddati ko'rsatiladi.

So'ngra nazoratchi yana bir bor maktabgacha ta'lim bo'yicha chiqarilgan qaror ko'rsatma, buyruqlarni, pedagogik va metodik jumallarning eng oxirgi yangi sonlarini ko'zdan kechirib, maktabgacha ta'lim dasturi talablarini yaxshilab o'qib oladi, shu tashkilot hujjatlari bilan tanishadi. Bu ish uchun u bu tashkilotda xalq xo'jaligi rejasini, bolalarning tashkilotga qatnash rejasining bajarilishi tahlil

qilinadi. Kadrlar, ularning tuman, shahar metodik ishlaridagi qatnashuvlari, malaka oshirish ishlarini qarab – o‘rganib chiqadi.

Tashkilotni kuchli yoki kuchsiz tomonlarini bilishda: avvalgi tekshirish materiallari yaxshi o‘rganib chiqiladi, kamchiliklarni yo‘qotish bo‘yicha qabul qilingan qarorlarni qanday bajarilganligi aniqlanadi. Yuqoridagi materiallar bilan tanishish bu nazoratchiga nimalarga ko‘proq ahamiyat berish kerakligini belgilab beradi.

Frontal tekshirish olib borishning asosiy yo‘llari.

Frontal tekshirishda nazoratchi va MTT mudiri bilan suhbatlashishdan boshlanib, tekshirish maqsadi, tartibi, vaqt bilan tanishtiriladi. So‘ngra mudira tashkilot haqida: nechta guruhdan iboratligi, nechanchi yili ochilgan, bolalarning guruhlariga taqsimlanishi, bolalarning kundalik davomati, bog‘chani texnika anjomlar bilan jihozlanishi, uning bazasi, kadrlar tartibi (pedagogik va xizmat kursatuvchi) xodimlari bilan, ularning ta‘lim-tarbiyaviy ishlarga baho berib, xodimlarning g‘oyaviy – siyosiy va ishlash malakalari, tashkilotda mehnat va ishlab chiqarish intizomining ahvoli, kollektivining yutuq va kamchiligi ularga ko‘riylayotgan choralalar xususida ma‘lumotlar beradi.

Bu suhbat – tashkilot to‘g‘risidagi tekshirish ishiga dastlabki taassurot beradi. So‘ngra nazoratchi turli bo‘limlar bo‘yicha tekshirishi – o‘rganish ishlarini boshlaydi. Quyidagi tekshirishdagi asosiy savollarni keltiramiz.

I. Maktabgacha ta‘lim tashkilotidagi ta‘lim – tarbiyaviy ishlarining ahvoli va «maktabgacha ta‘limga qo‘yilgan davlat talablarning bajarilishi, bolalarning ko‘nikma va malakalari, bolalar bilimining sifati, tarbiyachining ishlash metodlari»;

II. Kadrlarni tanlash, joy – joyiga qo‘yish, kadrlarni tarbiyalash, ishlash malakalarini oshirish omillari. Tashkilotdagi metodik ishlar va metod kabinet faoliyati;

III. Tashkiliy – pedagogik va moliyaviy – xo‘jalik ishlarining ahvoli. Moliyaviy xo‘jalik rejasining bajarilishi, yo‘llamalar soni, bolalarning davomati, (bolalarning bog‘chaga qatnashi) ishlarining bajarilishi;

IV. Bolalarga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifati. Bolalar ovqatlanishining ratsional ravishda tashkiliy etishi;

V. Ota-onalarning pedagogik ishlari;

VI. Mudirning maktabgacha ta‘lim tashkilotiga rahbarligi, rahbarlik uslubi. Mudira va katta tarbiyachi tomonidan ta‘lim-tarbiyaviy ishlarga, qo‘yilgan talablarning bajarilishini tekshirish

VII. Tashkilotning joriy-texnika bazasining ahvoli, xo‘jalik faoliyati va xarajalarini to‘g‘ri sarflash ishlari;

VIII. Ta‘lim-tarbiyaviy ish rejasining sifatligi va uning bajarilishi, pedagogik kengash, ishlab chiqarish majlislarini, ota-onalar yig‘ilishlarini, maktabgacha ta‘lim bo‘limlari tomonidan chiqarilgan, instruktsiya va buyruqlarning bajarilish nazoratini tashkiliy etish;

IX. Tashkilotda ishlab chiqarish masalalarini yo‘lga qo‘yilishi: hujjatlar, ularning to‘g‘ri jihozlashishi va saqlanishi;

X. Nazoratining tekshirish bo‘yicha xulosalari va takliflari. Yakuniy pedagogik yig‘ilish o‘tkazilishi.

Frontal tekshirishning yakuni tekshirish maqsadiga va vazifasiga bog‘liqdir. Nazoratchi pedagogik yoki ishlab chiqarish majlislari o‘tkazib, tekshirilgan masalalar, maktabgacha tarbiya muassasining ahvoli, ishlarni yanada yaxshilash uchun taklif va mulohazalar beriladi.

Tekshirish natijasi akt bilan izohlanadi va ma‘lumotnoma tuzilib, unda aniq takliflar, mulohazalar ko‘rsatilib, akt 3 nusxada tuzilib, biri tuman yoki viloyat, shaxar maktabgacha ta‘lim bo‘limiga, biri bog‘chaga beriladi, biri talabalarning ish hujjatlari hisoblanadi.

Rejaviy tekshirish - bu tarbiyaning biror qismi yoki ta'lim-tarbiya ishining bir qismini bo'linishi nazorat qilish formasidir. Masalan: «Mehnat tarbiyasi», Aqliy tarbiya. «Maktab bilan aloqa» «o'yin» xodimlarning mehnati va x.k.

Asosan bu tekshirish turi 1 yilda 1 marta o'tkaziladi, tekshirish yo'llari va savollari quyidagicha (mexnat tarbiyasi buyicha)

I. Guruh rejalarini uzoq muddatini olgan holda tekshirish (kvartal, yarim yillik)

Maqsad: bajarilganva bajariladigan ishlarni aniqlash;

II. Mashg'ulotlarni kuzatish va analiz qilishi; bolalar mehnatining eng muhim tomonlarini ko'ra olish.

III. Kundalik hayotdagi mehnat bilan ta'minlash va analiz qilish.

IV. Kattalar va bolalarning birgalikdagi mehnatlarini kuzatish;

V. Bolalarning kattalar mehnatlariga munosabatlari, axloq malakalarini kuzatish;

VI. Bolalar o'ynalarida mehnatni aks ettiruvchi jarayonlarni kuzatish.

VII. Bolalar bilan individual suhbatlashish;

VIII. Bolalar ishlarining analizi-taxlili;

IX. Tarbiyachining kundalik yozuvlarini ko'rish;

X. Guruhdagi o'quv materiallarini tekshirishi;

Nazoratchi guruh rejalarini (3—6 oylik) tekshirib, unda ko'zda tutilgan tarbiya maqsadlarini amalga oshirish yo'llarini qidiradi, osondan murakabligiga, oylik, perspektiv ish rejalarida tarbiyaning hamma qismlari rejalashtiriladi, qaysi bo'lim rejadani tushurib qoldirilgan, ularning yuzaga keltirgan sabablarini qidirib topish kerak.

Rejani tahlil qilishdan maqsad – rejadagi talablarning bajarish yo'llari, haftalik rejadagi mashg'ulotlarning turlari, ishi, talab darajasida ekanligi, mustahkamlovchi, yangi bilim beruvchi mashg'ulot turlarining oddiydan murakkablashib borishini ko'rish mumkin.

Topilgan kamchiliklar o'z vaqtida muhokama qilinishi kerak, aks holda bu kamchilik xatolar keyingi oylarda takrorlanmasin. Mehnat bo'limini tekshirishda: ko'rgazmalilik, kattalarining faoliyati, mehnat jarayonini kuzatishda bir qator mashg'ulotlarni kuzatish. Masalan: ekskursiyasifalda, kuzatishda, suratlamiko'rishgakattaahamiyatberishmumkin.

Ekskursiya jarayonida – tarbiyachilik bolalarda qiziqish tuyg'ularini uyg'otishga, bolalarni asosiy narsani ko'ra olishga, kuzata olishga, tanish bo'lgan voqea va hodisalarni solishtira olish malakalarini o'stirish, ko'rganlariga yaqin narsalarni yasay olish, fikrlash qobiliyatlarini o'stirishni tarbiyalash.

Mudiraning ishini tematik tekshirishda:

a) mudiraning guruhlardagi ishlarini tekshirish.

Mudira o'z vazifasida turli yosh guruhlarining hammasida olib borilayotgan ishlarni kuzatishi, tahlil qilishi kerak. Nazoratchi xuddi shu ishning sifatini, amalga oshirish yo'llarini tekshiradi.

b) Sharoiti yaratilganligi; v) tekshirilgan mavzu bo'yicha ped – kengashda birgalikdagi muhokamasi; g) Maslahatning ishlash mo'ljalarini o'stiruvchi vositalar;

Guruh tarbiyachisining ishini avval tarbiyachining o'zi bilan muhokama qilinadi, keyin pedagogik kengash ishiga olib chiqiladi. Yutuq, kamchiliklar, taklif – mulohazalar ochiqchasiga – oshkora holda chiqiriladi. Kerakli yo'llanna, metodik yordam o'z vaqtida ko'rsatiladi.

Bu ikki xil tekshiruvdan tashqari yana quyidagi tekshirish turlari mavjud:

1) birlamchi; 2) ikkilamchi; 3) katta tekshiruv turlari mavjud; 4) oqohlantiruvchi tekshiruv.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ishini tekshirish yakuni buyicha AKT tuziladi.

Bu hujjati tuzishda – tekshirish bo'yicha olingan ma'lumotlarni, chuqur tahlil qilish talab etiladi. Ta'lim tarbiyaviy jarayonlar, tashkiliy- metodik, moliyaviy – xo'jalik faoliyatlarini suhbatlarni maxsus kuzatish daftariaga yozib

borish lozim. Hujjatlarni chuqur o'rganib, tashkilot faoliyatiga aniq isbotlangan xulosalar chiqariladi. Akt 3 nusxada tuziladi. 1- Tuman Maktabgacha ta'lim bo'limida, 2- maktabgacha ta'lim tashkilotida, 3 - tekshiruvchida qoladi.

Kuzatish jadvali quyidagicha:

- 1) Kuzatilgan jarayon.
- 2) Kuzatilyotgan kun, yil, oy.
- 3) Ish mazmuni.
- 4) Tayyorgarlik.
- 5) Bolalarning bilim, ko'nikma va malakasi.
- 6) Tarbiyachining bilim, ko'nikma, malakasi.
- 7) Qo'llanilyotgan usul, usublar.
- 8) Yutuq'i.
5. Kamchiligi.

Nazorat savollar.

6. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini frontal - yalpi tekshirish necha yilda amalga oshiriladi?
7. Frontal - yalpi tekshirish olib borishining asosiy yo'llari haqida ma'lumot bering?
8. Tematik tekshirishning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

11-Mavzu: Direktoraning tarbiyaviy ishlarga rahbarlik qilishini nazorat qilish.

Reja:

1. Direktor tashkilotchi, ma'muriyatchi, yuqori malakali pedagog va unga qo'yilgan talablar.
2. Direktor ishini mazmuni.
 - a) Direktorning ma'muriy xo'jalik ishlari.
 - b) Tashkiliy pedagogik ishlarga rahbarligi.
 - v) ta'lim-tarbiyaviy va metodik ishlarga rahbarlik.

- g) ota-onalar jamoatchiligi bilan ish uslublari.
- d) dastur talablarning bajarilishiga mudiraning rahbarligi nazorati.
- e) kadrlar bilan ishlash usullarida Amir Temur tuzuklaridan foydalanishning ahamiyati.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti murakkab tarmoq bo'lib, mudiraning undagi roli, faoliyati ko'pgirralidir.

Direktor - maktabgacha ta'lim tashkilotining tashkilotchisi, rahbari, malakali pedagog uning faoliyati maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni komil inson qilib tarbiyalash vazifalarini to'laqonli hal etishga qaratilgan. U bolalar tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiyaviy pedagogik va gigienik talablarga muvofiq ravishda amalga oshirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi. O'z jamoasida ishchanlik maqsadga qaratilgan va inoqlik vaziyatini yaratadi. Ularga umumiy rahbarlik qiladi. Direktor o'z ishida davlatimiz va Maktabgacha ta'limi vazirligi tomonidan qabul qilingan qaror, qonunlarga amal qiladi va o'z ustida ijodiy ravishda ishlashni amalga oshiradi. Yuksak ongillik va siyosiy yetuklik printsiplilik o'ziga va qo'l ostidagilarga talabchanlik. Bu direktorga qo'yiladigan asosiy talablardir.

Jamoadagi to'g'ri o'zaro munosabatlar har bir xodimning mehnat va ishlab chiqarish intizomligiga rioya qilishni ta'minlaydi.

Rahbarlik mavqei mudira o'z g'oyaviy, ma'naviy, ma'rifiy, siyosiy -huquqiy mavqiyasini va mintaqaviylik mahoratini doimo ongli ravishda pedagogic bilimlarni bolalarga ta'lim - tarbiya berish nazariyasi va amaliyotini puxta egallashga, hozirgi bosqichda maktabgacha ta'lim oldida turgan vazifalarni bilishga u o'z bilimlaridan amaliy faoliyatidan foydalanishga majbur etadi. U programma metodik, instruktiv, normative hujjatlarni yaxshi bilishi va ustida amal qilishi kerak. U pedagogik jarayonning mohiyatini chuqur bilib, yetuk va kamchiliklarini darhol bartaraf qilish choralarini ko'rish lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori Maktabgacha ta'limni boshqarish organlari tomonidan oliy ma'lumotga va 3 yildan kam bo'lmagan pedagogik ish tajribasiga ega bo'lgan yoki o'rta-maxsus ma'lumotga va 5 yildan kam bo'lmagan

pedagogik ish stajiga ega bo'lgan shaxslardan tanlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida kadrlarni tanlash joy-joyiga qo'yish tartibiyatlash bo'yicha ishini mehnat jamoasi maktabgacha ta'lim tashkiloti kengashining faol ishtirokida ma'muriyat amalga oshiradi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlari kadrlarning kasb mahoratini, umumiy ta'lim mahoratini umumiy ta'lim va madaniy darajasini muntazam o'stirib borishiga g'amxo'rlik qiladi: xodimlar malakasini hisobga olgan holda va maktabgacha tarbiya tashkilot manfaatlaridan kelib chiqib, ularni ratsional va o'z vaqtida joydan-joyga ko'chirib turilishini ta'minlaydi.

Maktabgacha tarbiya tashkilotida kadrlar rezervi shakllantirilib, ular bilan doimiy ish olib boriladi.

Direktor bolalar bog'chasining butun faoliyatiga rahbarlik qilib, u bolalar bog'chasini obodonlashtirish, ko'lamzorlashtirish ishlariga rahbarlik qiladi. Smeta bo'yicha harajatlarni to'g'ri taqsimlash, tashkilotini boyoziq-ovqat moddalari bilan ta'minlash rejimini to'g'ri tashkil etish rejisida bog'chasini bolalar bilan to'ldirish, ta'lim-tarbiya dasturining bajarilishi uchun javobgar, yozgi sog'lomlashtirishlari, taomnoma sifatini vitaminiga boy bo'lgan moddalar bilan ta'minlashi (kamida xaftada 2 marta) xamir ovqatlari (bulochka, pechene). Pedagogik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning bilimi, ishga nisbatan munosabati, ularni imlakasini oshirish ishlari bo'yicha boshrahbaridir.

Direktor bolalar hayotini saqlash muxofaza qilishi uchun bolalar tashkilotida to'g'ri rejim momentlari, shart-sharoit yaratadi. Sanitariya va gigiyenik qoidalarining bajarilishiga, yonidan qarshi tadbirlar o'tkazadi. Qishga boy oziq-ovqat va oziq-ovqat mahsulotlarini g'amlaydi. Vitaminiga boy bo'lgan mevali o'simliklarni o'stiradi. Bog'cha xodimlari o'z vaqtida oylik maosh bilan ta'minlanadi. Direktorning ta'lim-tarbiya jarayonlariga rahbarligi quyidagilar:

a) har bir guruhdagi ta'lim-tarbiyaviy reja asosida ishlarni kuzatish va tahlil qilish, tarbiyachining ish hujjatlarini o'rganish va tahlil qilish guruhning ta'lim-tarbiyaviy ish rejasi, diagnostika daftari: bu o'tkazilgan ishlarning hisobotidir.

b) guruhning jihozlanishini, bunda guruhlarga qarab burchaklar soni takomillashib boradi.

Direktor kvartalda bir marta umumiy ota-onalar majlisini tashkil etadi. Majlisni ota-onalar komitetining raisi olib boradi yoki yordam beradi. Direktor haftada 3 marta ota-onalarni qabul qiladi. Bunda ota-onalar tomonidan ba'zi bir muammo kamchiliklar bilan bolalar tarbiyasiga oid muammolar haletiladi.

Direktorning jamoatchilik va mahalla qo'mitasi bilan ish metodlari quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

1. Ota-onalar va jamoatchilik uchun konferentsiyalar.

2. Ota-onalar universitetlari. Bunda oila markazidan vakil, yetukolimlar, xalq ta'limi bo'limi xodimlari va barcha ota-onalar ishtirok etadilar. Ota-onalar Universitetining asosiy maqsadi Davlat va jamiyatimiz tomonidan oila va bolalar tarbiyasiga masalalari va kamchiliklarini, muammolarini hal etishdan iborat. Direktor tashkiliy tegishli maktab bilan aloqa o'rnatib 1 yilga mo'ljallangan reja asosida ish ko'radi. 1 yilga mo'ljallangan reja asosida bog'chaniing asosiy vazifalari, maktab tomonidan amalga oshiriladigan tadbiri choralari, bolani muhtab ta'limiga tayyorlash, lo'in alifbosini o'qish, yozish, mukammal o'rganish. Bunda MTT direktori va maktab direktorining vazifalari belgilanadi.

a) ma'muriy xo'jalik faoliyat – bunda reja kontingent bo'yicha bolalarni joylashtirish, maktabgacha ta'lim tizimida belgilangan harajatlarni o'z vaqtida joy – joyiga qo'yib ishlatishni tashkil etish, bolalarni ovqatlantirishni to'g'ri tashkil etish, yozgi sog'lomlashtirish mavsumlarini tashkil etish, xizmat qiluvchi xodimlarni to'g'ri joylashtirish va ishlash malakalarini oshirish, mehnatni ratsional ravishda tashkil etishdan iborat.

Direktor bog'chani kerakli texnikaviy va xo'jalik materiallari bilan muntazam ravishda ta'minlab turish, binoni jihozlash bilan (qat'iq va yumshoq inventarlar) jihozlash, binoni o'z vaqtida ta'mirlash va o'quv-ko'rgazmali qurollari bilan to'ldirib borishi, turli yosh guruppsi uchun programmm – metodik hujjatlarda tavsiya etilgan ularning fiziologik, aqliy, axloqiy, mehnatni estetik tarbiyalash

maqsadida bolalar badiiy adabiyoti va pedagogika adbiyotlar bilan ta'minlash, bolalar maydonchasi va uchaskasini to'g'ri rejalı jilozlash, kadrlarnı joylashtırırshda ularnı bolalar bilan ishlash stajıga qarab, xodımlarını individual xususıyatlarını hisobga olıshı, vrach bilan bırgalıkda tıbbıy ishlarını nazorat va bolalarnı sistemalı tıbbıy ko'rikdan o'tkazıshısları kiradı.

Molıyavıy-xo'jalık va boshqa faolıyadı, jamoada ijodıy, ma'navıy-rulıy muhıyarılıshı uchun qonunda belgilangan tartıbda shaxsıy javobgardır.

Maktabgacha ta'lim tashkilotıning mudrı amaldaeı qonunchılık doırasıdaeı maktabgacha tarbiya tashkilot pedagogik xodımları va ma'muriyatını ularning kasb-kor va mansab faolıyatlarına asossız aralashuvga chek qo'yuvchi zarur choralar ko'radı; maktabgacha ta'lim tashkilotı jamoasına nisbatan ma'muriy-buyruq bozlık ko'rınıslarına uning mustaqıllıgını cheklovchi buyruqlarına chek qo'yadı; shu masalalar bo'yicha tegıshli organlarına murojaat qıladı.

Direktor ishonch qog'ozısız maktabgacha ta'lim tashkilotı nomıdan harakat qıladı, barcha shirkat va jamoat korxonaları, tashkilotlar va tashkilotlarıda uning manfaatını himoya qıladı; kreditlar tarqatadı; shartnomalar tuzadı, ishonch qog'ozlarını beradı, banklarda hisob va boshqa schyotlarını ochadı; maktabgacha tarbiya tashkilot uchun zarur bo'lgan jilozlar va boshqa moddiy resursları xohlagan korxonalardan, tashkilotlardan, shirkatlaridan va ayrim shaxslardan naqd pulga yoki pul o'tkazısh yo'lı bilan jıaraga olısh va buyurtma berısh huquqına ega.

Direktor maktabgacha ta'lim tashkilotı huquq idorasıda buyruq chıqaradı, ko'rsatma beradı. Bu buyruq va ko'rsatmalar maktabgacha tarbiya tashkilotıning barcha xodımları uchun majburiydır. Tarbiyachi-metodist, katta hamshıra, xo'jalık mudırının o'z huquqları doırasıda bergan ko'rsatmaları barcha xodımlar uchun majburiydır.

Maktabgacha ta'lim tashkilotıning shaxsıy tarkibi quyıdagılardan iborat: Ma'muriy guruh (mudır, tarbiyachi-metodist, xo'jalık mudırı, kata hamshıra), pedagogika, tıbbıyot, xızmat ko'rsatısh tarmoqları xodımları. Maktabgacha ta'lim tashkilot ma'muriyatı har bir tarkıbiy birlikka tegıshli moddiy resursları berkiadı.

Mehnat jamoası vakolatını amalga oshırırshning asosiy shaklı umumiy yig'ilıshıdır.

Maktabgacha ta'lim tashkilotıning umumiy yig'ilıshı:

- Maktabgacha ta'lim tashkilotıning Ustavını ko'rib chıqadı va qabul qıladı;
- Maktabgacha ta'lim tashkilotı kengashını tuzısh zaruriyatını anıqlaydı, kengash tarkibını va uning raisını saylaydı;

- Yıllık va istiqbol rejaralarını muhokama qıladı va tasdiqlaydı, uning bajarılıshı haqıda ma'muriyat hisobotını eshitadı, pedagogic va xızmat ko'rsatısh mehnatının samaradorlıgını oshırırsh yo'llarını belgilaydı;

Jamoa shartnomasını muhokama qıladı va kasaba uyushması qo'mitasına taqdim etadı.

Nazorat savollar

1. Direktorga qo'yıladięan talablar nimalardan iborat?
2. Direktor ishlının mazunı va ma'muriy xo'jalık ishlarına rahbarlıgı haqıda nimalarnı bilasız?
3. Direktorning pedagogik, ta'lim-tarbiyaviy va metodik ishlarına rahbarlıgı haqıda ma'lumot berıng?
4. Direktorning kadrlar bilan ishlashda Amur Temur tuzuklaridan foydalanısh ahamiyadı qanday?

12-Mavzu: Maktabgacha ta'limda pedagogik tizim.

REJA:

1. Boshqarırshning metod va stılıni anıqlash. Ta'lim sohasıdaeı Davlat shıyosatının asosiy prinsıpları.
 2. Boshqarırsh prinsıpları va ularning jihatları.
 3. Maktabgacha ta'limni boshqarırshda — bu prinsıpdan foydalanırshning ahamiyadı.
- Har bir sohani boshqarırshda avvalambor, prinsıp-tamoyıl, metod-usul, odıl-boshqarırsh uslublarını bilıshımız kerak.

5. Xo'jalikni boshqarish printsiplari. Bu sistemadagi mablag'larni to'g'ri taqsimlash ish yuritishni to'g'ri tashkil etish va uning ustidan nazoratni tashkil etishdan iboratdir.

6. Tanqid va o'z-o'zini tanqid. Bu printsiplarda rahbar o'z ishtiga nisbatan talabchan intizomli, mehnat va ishlab chiqarish intizomiga rioya qilish, bajaradigan ishlarga tanqidiy yondashuvi ko'zda tutiladi.

7. Farq qilmoq, printsiplari. Ishdagi ijodiy va salbiy tomonlarni ko'ra olish, ilg'or ish tajribalarni ko'ra olishdir.

8. Yangilikni his qila olish printsiplari. Ta'lim sohasida o'zgarishlarni, yangiliklarni o'z ish faoliyatida qo'llay olish.

Maktabgacha ta'limni tashkil etish va unga rahbarlik qilish sohasining metodologik asosini: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi Ta'lim to'g'risidagi Qonun, maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi va Nizomda ko'rsatilgan maqsad va vazifalarni tashkil etadi. Maktabgacha tarbiya tashkiloti mustaqil ravishda, o'z tashabbusi bilan o'z faoliyatiga taaulluqli, agar ular qonunchilikka va pedagogik printsiplarga monelik qilmasa, har qanday qaror qabul qilishga haqlidir.

Maktabgacha tarbiya tashkiloti ta'lim-tarbiyaviy ishlar sifati, bolalar va oilalar huquqiga, jamiyat va davlat manfaatlariga rioya qilish uchun ma'suldir.

Maktabgacha tarbiya tashkiloti mehnat jamoasi xalqchilik asosida o'z-o'zini boshqarish prinsipi muvofiq uning faoliyati bilan bog'liq barcha masalalarni hal qiladi.

Ushbu mikroyonda istiqomat qiluvchi oilalarga bo'sh o'rin bo'lgan taqdirda maktabgacha tarbiya tashkilotini tanlash huquqi beriladi.

4. Maktabgacha tarbiya tashkilotining faoliyati boshqa tashkilotlar, korxonalar, tashkilotlarning normal ish sharoitlarini buzmasligi, fuqarolar hayotini qiyinlashtirmasligi va yomonlashtirmasligi zarur.

Nazorat savollar

1. Boshqarishning metod va stilini aniqlash. Ta'lim sohasidagi Davlat byosotining asosiy printsiplari nimalardan iborat?

2. Boshqarish printsiplari va ularning jihatlari haqida ma'lumot bering?

3. Maktabgacha ta'limni boshqarishda – bu printsiplardan foydalanishning ahamiyati qanday

13-Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotida bayram ertaliklari va ularni tashkil qilish

Reja:

1. MTT tarbiyalanuvchilari uchun bayram ertaliklarini o'tkazishda musiqaning o'rni

2. Kichik, o'rta, katta va tayyorlov guruhlarida bayram ertaliklari

Nafosat tarbiyasining mazmuni serqirra bo'lib, musiqaga tarbiya eng asosiy o'rinni egallaydi. Musiqiy ta'limning oliy maqsadi: yosh avlodni milliy musiqaga merosimizga vorislik qila oladigan hamda musiqaga bo'yilgini idrok eta oladigan, yetuk, barkamol, madaniyatli, nafaqat o'z milliy an'alarini, balki boshqa millatlar madaniyatidan boxabar va bu an'ana, madaniyatlarini hurmat qiladigan qilib voyaga yetkazishdan iboratdir. Bunda nafosat tarbiyasining ahamiyati bemisal kattadir.

Bayram ertaliklari estetik ya'ni nafosat tarbiyasi berishda muhim tadbirlardan biridir. Ertaliklar bog'cha hayotining eng muhim va tarkibiy qismiga aylangan bo'lib, tantanavorlik, xursandlik va shodlik holatini vujudga keltiradi, bolalarning badiiy didini tarbiyalaydi. Bayram ertaliklaridan maqsad, bolalarni nafosat olamiga olib kirish, ularda ajoyib yorqin taassurotlar qoldirish va shodlik baxsh etishdan iboratdir.

O'zbekiston Mustaqillikka erishdi. Istiqloq sharafiga tufayli qadryatlarimiz, umutlarni, lekin bola tarbiyasida nihoyatda zarur bo'lgan urf-odatlarimiz

tiklanmoqda. Shu sababli bayram ertaliklari shaklan va mazmunan o'zgarib borgan.

Bolalar bog'chalarida nishonlanadigan asosiy bayramlar quyidagilardan iborat:

1. O'zbekiston Respublikasi Mustaqillik kuni.
2. O'qituvchi va murabbiylar kuni.
3. Mehrijon bayrami.
4. Yangi yil bayrami.
5. Vatan himoyachilari kuni.
6. Xalqaro xotin-qizlar bayrami.
7. Navro'z bayrami.
8. Xotira va qadrlash kuni.
9. Gul va qushlar bayrami.
10. Sog'lomjon va polvonjon bayram ertaligi.
11. Bolalarni maktab quchog'iga kuzatish tadbiri.

Har bir bayramning o'z ma'nosi va alohida xususiyati bor.

Masalan, 1 sentabrda nishonlanadigan **Mustaqillik bayramida** vatanni sevisish va e'zozlash, unga munosib farzand bo'lib yetishish, uning yutuqlaridan faxrlanish hissi tarbiyalanadi. Bayram katta guruh bolalari bilan o'tkazilib, ular O'zbekiston Respublikasi madhiyasini kuylaydilar. Kichik va o'rta guruh bolalari tomoshabin sifatida qatnashadilar. Ertalikdagi o'yinlar, inssenirotkalarida xalqimizning erishgan yutuqlari, mehnatning insonga quvonch baxsh etishi odamlarning bir-biriga mehr-oqibati, qadriyatlarimiz ko'rsatilishi kerak. Musiqiya rahbari bayram dasturini tuzishda ijodiy yondoshib, zamonaviy bolalar qo'shiqlari bilan bir qatorda, o'zbek xalq qo'shiqlarini ham dasturga kiritishimiz lozim.

Mehrijon bayramida mehnat mavsumi yakuniga yetayotganligini ifodalab, «Quyosh bobo» ga minnatdorchilik bildirib, «Bobodochqon» mehnatini, «Ona yer» saxovatini, mehr muruvvatini, «Kuzjon» ning to'kin sochiliginini ramziy obrazlar orqali chuqurroq idrok etishlariga erishish lozim. Bu bayramni katta, o'rta va kichik guruh tarzida o'tkazish mumkin. Bayram tantanalarda iloji boricha o'zbek milliy asboblari (karnay, sunray, nog'ora) jalb qilish tavsiya etiladi. Imkoniyat

bo'lmasa, fonogrammadan foydalanish lozim. Askiyalar va kichik shaharlashirilgan etraklar ham bo'lishi tavsiya etiladi. Qo'shiq, lapar (ayitishuv) va askiyalar mazmuni bolalarga tushunarli bo'lishi kerak.

Yangi yil bayrami butun dunyoda ramziy qabul qilingan bo'lib, jahon bolalarining eng sevimli bayramidir. Unda chiroyli bezatilgan archa, quvnoq kuy, qo'shiq va o'yinlar Qorqob, Qorqiz va turli etrak qahramonlari, o'rmon hayvonlari ishtirok etib, bolalar bilan xursandchilik qiladilar.

Navro'z bayramida uyg'onayotgan borliq, tabiat ulug'lanadi. Qadriyat, urf-odat udumlarini aks ettiruvchi mazkur bayram, tabiat uyg'onishi, yangi mehnat mavsumining boshlanishi, tabiat go'zalligidan zavqlanish va uni asray bilish, ko'klamzorlashirish, mehnatni ulug'lash kabi g'oyalarni o'zida mujassam etadi. Qo'shiq-yallalar kuylanadi, o'lanayitishuvlar va turli xil qiziqarli o'yinlar o'tkaziladi. Bu bayramni bog'cha sharoitidan kelib chiqqan holda, zalda yoki hovli-da o'tkazish mumkin.

Qadimda sharq xalqlari o'z sayllariga odamlarni karnay-sunray orqali chorlaganlar. Shuning uchun bayramning tantanali qismida milliy cholg'u asboblardan yoki fonogrammadan foydalanish lozim. Badiiy qismida quvnoq qo'shiqlar yangraydi.

8 mart bayramida bolalar onalari, buvilari, opalari, tarbiyachilariga bo'lgan mehrlari va ulkan muhabbatlarini qo'shiq, she'r, raqs, o'yinlarida ifodalaydilar. Ularning mehnatlarini e'zozlab, minnatdorchilik bildirib, o'z qo'llari bilan yasagan sovg'alarni taqdim etadilar. Ular uchun katta, o'rta va kichik guruhlarda konsert uyushtiriladi. Bayram uchun to'g'ri tanlangan qo'shiq, musiqiya, sahna ko'rinishlari bolalarda xushchaqchaq kayfiyat tug'dirishda katta ahamiyatga ega. Ular bayramning umumiy xarakteriga, mazmuniga mos bo'lishi kerak. Agar bog'chada xalq cholg'u asboblardan tuzulgan bolalar ansambli bo'lsa, uni ham bayram dasturiga kiritish kerak.

Buyuk siymolar tavallud topgan kunlar uchun badiiy musiqiy nafosat soatlarni tashkil etish, bolalarda milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirib boradi.

Ularning rasmlarini ko'rsatib, buyuk xizmatlari haqida ma'lumotlar berish, bolalar yoshiga mos asarlari bilan tanishtirish esa bolalar ma'naviyatini oshiradi. Shuningdek, bayramlar bolalarni Respublikamizda yashaydigan barcha millat va xalqlarning urf-odatlari, qo'shiq va o'yinlari bilan tanishtirish hamda ularga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalashda katta o'rin egallaydi.

Kichik, o'rta, katta va tayyorlov guruhlarida bayram ertaliklari

MTM da olib boriladigan barcha bayram ertaliklari vositasida oliyjanob fazilalar yosh avlodga bog'cha yoshidan boshlab shakllantiriladi. Bayram ertaliklari jarayonida bola hayotiy voqiylikni musiqaviy obrazlar orqali idrok etib boradi. Bolalar yoshiga xos musiqa asarlari kichintoylarda unutilmas taassurot qoldiradi, ularni ruhiy dunyosini boyitadi. Bog'cha sharoitidagi musiqaviy tarbiya badiiy adabiyot va tasviriy san'at bilan uzviy bog'langan holda amalga oshiriladi.

Kichik va o'rta guruhlarida bayram ertaliklari

1. Mustaqillik bayrami. Bu bayram tadbiri 1-sentabrda o'tkaziladi. Tadbir O'zbekiston Davlat madhiyasining yangrashi bilan boshlanadi. Bolalar Vatanimiz haqidagi she'rlarni yoddan o'qib, qo'shiqlar ijro etadilar.

2. Mehrijon bayrami – Bobodirjon va ona zamini ulug'lovchi bayramdir. U 25-oktabrdan 5-noyabrgacha o'tkaziladi.

3. Archa bayrami. Bu bayramda Qorqob, Qorqiz va sevimli ertak qahramonlari ishtirok etadilar.

4. 8-mart – Onajonlar bayrami.

5. Navro'z bayrami 21-martdan boshlanadi.

6. Sog'lom va polvonjon tadbiri esa 1-iyunda o'tkaziladi.

Katta va tayyorlov guruhlarida bayram ertaliklari

1. «1-sentabr – Mustaqillik bayrami». Bayram tadbirlari orqali bolalarda vatanparvarlik va baynalmillatlik tuyg'ulari tarkib topiriladi.

2. 1-oktabr – «O'qituvchilar va Murabbiylar kuni».

3. Til bayrami. Bu bayram «Til – dil kaliti», «Ona tili – jonu dilim» nomlari ostida nishonlanadi.

4. «Mehrijon bayrami» – hosil bayrami.

5. 8-dekabr – Konstitutsiya kuni. Shu munosabat bilan

«Qomusimiz – nomusimiz» tadbiri o'tkaziladi.

6. «Archa bayrami» ertaligi.

7. 14-yanvar. «Vatan himoyachilari kuni».

8. 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan konsert uyushtiriladi.

9. 21-mart – Navro'z bayrami. Bu tadbirda, asosan, u urfodatlarimiz va qadriyatlarimiz haqidagi sahna korinishlari va kuy qo'shiqlar ijro etiladi.

10. Gullar va qushlar bayrami may oyida o'tkaziladi. Bolalar O'zbekiston gullari va qushlari haqida she'r hamda qo'shiqlar aydantilar.

11. «Sog'lomjon va polvonjon», «Sog'lom tunda – sog' aql» tadbirlari 1-iyunda o'tkaziladi. Bayramda turli estafeta va bellashuvlar uyushtiriladi.

12. Maktabda kuzatish bayrami. «Xayr, bog'chajon – salom, maktab!».

Kichik yoshdagi bolalarga estetik tarbiya berishda musiqaning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash maqsadida olib borgan izlanishlarimiz asosida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Musiqaga – bolalar estetik tarbiyasida asosiy o'rin tutadi.

2. Bolalar musiqiy estetik madaniyatini shakllantirish muammosi asrlar davomida ilm ahli uchun dolzarb muammo bo'lib kelgan. Chunki jamiyat ma'naviyatini shaxs ma'naviyatining yuksakligi, qolaversa, bolalarning musiqiy estetik madaniyatining shakllanganlik darajasi tashkil etadi.

3. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqaga mashg'ulotlari imkon darajasida tashkil etilgan, ammo kichik yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalash uchun davr talabi asosida musiqa mashg'ulotlarini yanada takomillashtirish va qo'shiq o'qitishda yangi texnologiyalardan foydalanishga undamoqda.

4. Bolalar ma'naviy-estetik tarbiyasini yanada takomillashtirish uchun mo'ljallangan tadbirlarda qo'shiq va raqslardan ko'proq foydalanish lozim.

5. Bolalarning musiqaga qiziqishini oshirish maqsadida muntazam tashkil etiladigan tadbirlarga o'zgacha ruh bag'ishlash kerak.

6. Demak, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa vositasida kichik yoshdagi bolalarni musiqiy madaniyatini shakllantirishdan pirovard maqsadimiz xalq farovonligi, yurt tinchligi, Vatan taraqqiyotini o'zida mujassam qilgan Ozod va obod Vatan quradigan barkamol shaxslarni tarbiyalashdan iborat.

Nazorat savollar

3. MTT tarbiyalanuvchilari uchun bayram ertaliklarini o'tkazishda musiqaning o'rni qanday bo'ladi?
4. Kichik, o'rta, katta va tayyorlov guruhlarida bayram ertaliklarini tashkil etishda nimalarga e'tibor qaratish zarur?

14-Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotini tashkil etish haqida tushuncha

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar hayoti va faoliyatini tashkil etish haqida tushuncha.

2. Bolalar hayoti va uni tashkil etish prinsiplari.

3. Moslashish tushunchasining mazmuni.

4. Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga moslashishining o'ziga xos xususiyatlari.

5. Bolani bolalar tashkilotidagi ijtimoiy tarbiya sharoitiga olib kirish.

Tayanch so'zlar: *Bolalar, yosh, guruh, muhit, bog'cha kumartibi, tarbiyachi, faoliyat, harakat, tarbiya, hayot*

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning hayoti va faoliyatini tashkil etish.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti maktabgacha ta'lim tizimidagi boshqa o'quv-tarbiyaviy tashkilotlardan bolalar hayoti va tarbiyasini o'ziga xos tashkil etishi bilan ajralib turadi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning tarbiyasi maqsad va vazifalarini amalga oshirish ular hayotini tashkil etishning asosiy xususiyatlarini belgilab beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar hayotini tashkil etish har tomonlamma tarbiyalash vazifalariga kompleks yondoshish asosida, ta'lim-tarbiya mazmuni, shakli va metodlari birligi asosida quriлади.

Hayotni tashkil etish-bu hayot faoliyatining asosiy jarayonlarini turli yosh guruhlaridagi bolalarning yakka, kichik guruhlar va umumiy guruhlar shaklidagi faoliyati va ta'limini maqsadga muvofiq joriy etish, birga qo'shib olib borish va navbatlashib turish, shuningdek har bir bolani har tomonlamma va garmonik tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun zarur sharoit yaratishdir.

A.S. Makarenko bola hayotini to'g'ri tashkil etishning uning tarbiyasi va rivojlanishidagi rolini ta'kidlab shunday degan edi: «Tarbiyaviy ishning haqiqiy mohiyati umuman, sizning bola bilan ko'rgan subbatalaringizda, bolaga ko'rsatadigan bevosita ta'sirda emas, balki oilangizning, shaxsiy va ijtimoiy hayotimizning va hamda bola hayotining tashkil etilganligidadir».

Hozirgi paytda bolalar bog'chalarida o'quv tarbiya jarayoni sifatini oshirish va bolalar hayotini tashkil etish zarurati vujudga keldi.

Bolalar hayotini tashkil etish prinsiplari.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiyaviy va sog'lomlashtirish ishinining barcha bosqichlarida bolalarning yosh guruhlaridagi hayotini tashkil etish takomillashib kelgan va bunga fiziologlar, psixologlar, pedagoglar (E.I. Tixeeva, E. A. Flerina, A. P. Usova, N. M. Shelovanov, N. M. Aksarina va boshqalarning) tadqiqotlari asos bo'lgan. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi bolalar hayoti va faoliyatini tashkil etishning quyidagi umumiy prinsiplarini ishlab chiqqan:

1. Bolalarning har bir yosh guruhlaridagi birgalikda hayot tarzi. Bu printsip asosida guruhdagi barcha bolalarni har tomonlana rivojlantirish va ularni jamoatchilik ruhida tarbiyalash uchun bir xil sharoitni ta'minlash ko'zda tutiladi.

2. Guruhlarni komplekslashning yosh printsipi bolalarning har bir guruhida bir yoki ikki yoshning bo'lishni taqozo etadi va ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya jarayonini ta'minlaydi.

3. Guruhning bolalarni har tomonlana faoliyati va mulqoti uchun zarur moddiy muhitini yaratish. Bu printsiptga ko'ra guruhlar xonalarini va uchaskalarini pedagogik gigienik va estetik talablarning yaqona birligi asosida jihozlash va obodonlashtirish amalga oshirildi.

4. Kun tartibining doimiyligi va yosh xususiyatiga bog'liqligi. Ilk va maktabgacha tarbiya yoshida asosiy hayotiy faoliyat ritmi bir xil emas. Ilk yoshdagi birinchi va ikkinchi guruh bolalarining o'z xatti-harakatini idora etishdagi ixtiyoriy qobiliyatining yo'qligi nochorligi ular hayotini tashkil etishda har bir bolaga parvarish uchun ko'p vaqt ajratish zaruratini keltirib chiqaradi. Kun tartibini bajarishda o'z-o'zini tashkil eta olish ko'nikmasi tufayli mashg'ulotga, o'yinga, mehnatga vaqt qoladi.

Bolalar hayoti bu faqat katalarning bo'lg'usi hayotiga tayyorgarlik emas, bolalik davri bolalarni qiziqtiradigan va uni zavqli qiladigan, ular tomonidan ijtimoiy tajribaning o'zlashtirilishini ta'minlaydigan rang-barang faoliyat bilan qiziqaridir.

5. Turtli faoliyat ko'rinishlarini (o'yin, mehnat, ta'lim) joriy etish: ularning kun tartibidagi o'rni, bolalarning rivojlanish darajasiga ko'ra bu faoliyat turlarini qo'shib va navbatlashtirib turish, bola shaxsining shakllanishidagi roli.

Kun mobaynida o'yinlar, mehnat va ta'lim uchun vaqt ajratiladi. Ularning bolalar bog'chasidagi turtli guruhlaridagi o'rni bolalarning yosh imkoniyatlariga yakka tarzda yoki guruh bo'lib harakat qila olish ko'nikmasiga, bir-birlari bilan mulqotda bo'la olish malakasiga bog'liq. O'yin faoliyati va boshqa faoliyat turlarining asta-sekin kuchaya borishi ham ahamiyatga ega bo'la boradi.

6. Yosh guruhlarida bolalar hayotini ular hayoti va sog'lig'ini muhofaza etishga yo'naltirilgan holda tashkil etish. Mazkur printsip asosida yasi bog'chalaridagi yosh guruhari uchun xonalar ajratiladi, mebel va jihozlar tanlanadi, qo'llanma va materiallar joylashtiriladi, ovqat tayyorlanadi, chiniqish sistemasi va harakat faoliyati rejimi joriy etiladi. Tarbiyachilar, enagalar va bolalar, shuningdek bolalar o'rtasidagi munosabatlarda vazminlik, olijanoblik, insopparvarlik ruhi hukm suradi. Ziddiyatlar oldi olinadi va odilona hal etiladi, bolalar asabiylikning payi qirg'iliadi.

7. Bolalar hayotini tashkil etishda estetik talablarga rioya qilish ulardan faqat xonalarini jihozlashda foydalanishni emas, balki pedagogik jarayonda foydalanishni ham ko'zda tutadi.

Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi hayot sharoitiga va tarbiyaga moslashishi.

Bolalar tashkilotlariga borish bola uchun katta qiyinchiliklar tug'diradi. Bunda ko'pchilik bolalar beoqat, yig'loq, odamovi bo'lib qoladilar. Tahlilkali holat, hayajon tufayli zo'rliqish bola atrofidagi yaqin kishilarning bo'lmashligi, maishiy sharoitning ko'nikilgan sharoit va hayot tarzining o'zgarishi tufaylidir.

Funksional norasidalik, ko'ngli noziklik bola organizmining yangi sharoitiga ko'nikishini qiyinlashtiradi.

Bolalar bog'chasiga kelishi bilan bolaning ijtimoiy ahvoli ham o'zgaradi. U oilada cheklangan miqdordagi odamlar bilan mulqotda bo'lar, ko'proq oila a'zolari diqqat markazida bo'ladi. Maktabgacha tarbiya tashkilotida esa u bolalar jamoasi a'zosisiga, boshqa bolalar tengdoshiga aylanadi. Shu tufayli bolaga psixologik jihatdan o'zini qayta qurishga o'z xulqini o'zgartirishga, notanish katta kishilar va tengdoshlari bilan aloqaga kirishga to'g'ri keladi. Bularning barchasi bola faoliyati va xulqida shakllangan odatlarning buzilishiga olib keladi, undan yangi sharoitlarga biologik va ijtimoiy jihatdan moslashishni talab qiladi.

Moslashish tushunchasining mazmuni.

Biologik jihatdan moslashish deganda tor ma'noda organizmning yangi hayot sharoitiga maqsadga muvofiq moslashishni ta'minlaydigan fiziologik sistemasi qayta qurilishi tushuniladi. Ushbu qayta qurish tug'ma mexanizmlar asosida amalga oshiriladi. Yangi tug'ilgan bola uning tug'ilishidan so'ng maxsus yaratilgan sharoitga tezda moslashadi.

Biologik qayta qurish bolaning maktabgacha tarbiya muassasidagi dastlabki kunlarda ham kechadi. U kun tartibida belgilangan yangi havo va yorug'lik rejimiga, ovqatlanishdagi o'zgarishlarga ko'nikishi lozim.

Biologik moslashish qatorida ijtimoiy moslashish amalga oshiriladi, ya'ni o'z xulqini yangi ijtimoiy sharoitga ko'ra o'zgartirish qobiliyati hosil qilinadi.

Bola oiladayoq kattalar, oila a'zolari bilan dastlabki muloqotga kirishadi. U atrof-muhit bilan muloqotga kirishishining dastlabki ko'nikmalarini o'zlashtiradi, unda elementar mehnat harakatlari shakllanadi, o'yinlar paydo bo'ladi.

Bola oila a'zolari o'rtasidagi munosabat normalarini o'zlashtira boshlaydi, ular asosida esa xulqning elementlar ko'rinishlari shakllanadi. Bola bog'chaga kelishi bilan shakllangan xulqiy odat va munosabatlar ancha o'zgaradi. U tengdoshlari bilan faol aloqaga kirisha boshlaydi. Uning hayoti oila a'zolari tomonidan emmas, balki kattalar tomonidan yangi qoida va rejimga ko'ra tashkil etiladi, unga yangi talablar qo'yiladi. Shunday ekan, bola atrofdagi sharoit o'zgarishlariga tez moslashishini, yangi odatlarni singdirishi yoki mavjud odat va xulq shakllarini qayta qurishi lozim.

Biologik va ijtimoiy moslashishlar o'zaro bog'liq va ular bir-birini taqozo etadi. Maktabgacha tarbiya yoshidan, ayniqsa, ilk yoshda muhit va odatdagi hayot tarzining o'zgarishi ruhiy zo'rliqshga olib keladi, bu ruhiy holatni o'zgartiradi, xatti-harakatda buzilishlarga olib keladi (jizzakiilik, tengdoshlari bilan janjal boshlanadi, susitlik paydo bo'ladi va boshqalar) uyqu yomonlashadi va ishtaha yo'qoladi shu bilan birga boshqa funksional sistemalarda (vegetativ) reaktiv sistemasi ham bir muncha siljishlar paydo bo'ladi, organizmning himoya kuchi susayadi, bu esa ko'pincha kasalliklarga olib keladi. Bu holatlar bolalarda turli

darajada ifodalangani va o'zlashish mexanizmlarning etarlicha mashq qildirilmagani bilan izohlanadi.

Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga moslashishining o'ziga xos xususiyatlari.

Bolalarning o'zlashish imkoniyatlari o'rtasida katta farq mavjud ular ayniqsa, bolalar bog'chasida bo'lishning dastlabki kunlarida yorqin namoyon bo'ladi. Ju'z'iy ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlarni ko'proq 9 - 10 oylikdan 1,6 yoshgacha va 3 yoshda 3,5 yoshgacha bo'lgan bolalar kiyinroq kechiradilar. Engil moslashishdan nutqiy faollikning susayishida, xatti-harakatdagi ba'zi buzilishlarda, uyquning va ishtahaning yomonlashuvida namoyon bo'ladigan qisqa muddatli salbiy ruhiy holat kuzatiladi. Odatda, bu holatlar bolalar bog'chasida bo'lishning dastlabki ikki haftasi davomida kechadi.

O'ra darajadagi moslashish xatti-harakatdagi birmuncha katta va uzoq davom etadigan siljishlarda ifodalanib, u faqat o'ynash oxirida normalashadi. Bola qisqa vaqt ichida ozadi nutqi buziladi, asoratsiz tugaydigan engil 7-10 kun davom etadigan kasalliklar vujudga keladi.

Og'ir moslashishda bolaning ko'nikishi uzoq va murakkab kechadi, ba'zan bir necha oyga cho'ziladi. U tez-tez qaytalanib turadigan, asorati kechadigan kasalliklar, xatti-harakatlarning barqaror buzilishi, qator holatlarda asabiy holatlar birgalikda voqe bo'ladi. Jismoniy rivojlanishning susayishi, nutq va ruhiyatda o'zining kechishi kuzatiladi.

Moslashish davrining qiyinchiliklari, moslashishga oid siljishlarning ifodalanish darajasi tarbiyaning ilgari sharoit bilan ham uzviy bog'liqlik, uning ta'siri ostida bolaning oliy nerv faoliyati sistemasi shakllanadi.

Bolani bolalar tashkilotidagi ijtimoiy tarbiya sharoitiga olib kirish.

Bolani ijtimoiy tarbiya tizimiga olib kirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Tayyorlov bosqichdagi pediatriya xizmati, ota-onalar va maktabgacha ta'lim tashkilotlarining kuch-g'ayrati bola organizmini yangi sharoitdagi hayotga, tayyorlashga uning biologik moslashishini engillashtrishga qaratilgan bo'ladi.

Bunga quyidagicha erishiladi: a) bola kun rejimini bolalar tashkilot rejimiga o'ta yaqinlashtirish bilan; b) uni rejim jarayonlariga faol qatnashtirish bilan; v) chiniqiruvchi usullardan keng ravishda kompleks foydalanish bilan; g) bola organizmi ish qobiliyatini o'stirish uchun zarur harakat faolligini oshirish bilan.

Ota-onalarning pedagogik savodxonligi va ularning tarbiyachilar bilan aloqa o'rnatishi ushbu talablarni amalga oshirishning shartidir. Ota-onalar yakka suhbatlar, e'slatishlar orqali bola hayotining tayyorlov davrida tashkil etishga oid tavsiyalar oladilar. Ular ovqatlanirish, uxlatish metodikasi bilan tanishadilar, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishni shakllantirishga, buyumli va o'yin harakatlari yo'lga qo'yishga oid tavsiyalar oladilar. O'z navbatida tarbiyachilar ham bolalarning uy-lariga boradilar, ularning hayoti bilan, kichikintoylarning qiliqlari, sevimli o'yinlari va o'yinchoqlari bilan tanishadilar, bola bilan u ko'nikkan sharoitda dastlabki ruhiy aloqa o'rnatadilar.

Bolani bolalar tashkilotidagi yangi sharoitlar talablariga o'rgatish izchil tarzda amalga oshiriladi. Bir hafta davomida bola bolalar bog'chasida 2-3 soadan ko'p bo'lmaydi. Bu vaqt uning ruhiy holatiga qarab asta-sekin ko'paytirib boriladi.

Bolalarni qabul qilishda bog'cha xodimlari bolalar hayotini ularning ahvoli, alohida o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etishlari uchun uzoq vaqt talab etiladi.

Moslashish davrida (2-3 xafta) bola e'lonmaydi, barcha mavjud odatlari, hatto salbiy odatlari ham saqlab qolinadi, uyidagi o'yinchoqlardan foydalanishga ruhsat etiladi. Ijtimoiy moslashishning ko'pchilik bolalarda murakkab kechishi va cho'zilib ketishining asosiy sababi bola qoshida yaqin kishilarining yo'qligi va odamlar bilan muomala tajribasining kamligidir (N. D. Vatutina). Shuning uchun bolaning bog'chadagi dastlabki kunlarida uning yonida onasining ham bo'lishiga yo'l qo'yiladi, u notanish sharoitni o'zgartirishga, tarbiyachi bilan aloqa o'rnatishga, so'ng u bilan hamkorlik qilishga yordam beradi. Bolaning vaqti-vaqti bilan kuladi olishi, unga e'tibor bilan suyb muomila qilish, tarbiyachi tomonidan maqtalishi unga nisbatan ishonch va ijobiy munosabat yaratadi, boshqa kattalar va

tengdoshlar bilan aloqa o'rnatish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ijobiy xis-tuyg'ular, bolani mikro-ijtimoiy muhimga olib kirgan tarbiyachiga o'rganish tufayli unda tengdoshlari bilan muloqatga kirishga istak va intilish shakllanadi. Bunda guruhda bolaga quyiladigan talablar birligini saqlaydigan doimiy tarbiyachilarning ishlashi muhimdir.

Harakati o'yinlar jismoniy tarbiya va musiqa mashg'ulotlarida birligidagi harakatlilar xis-hayajonli zo'rqiqlashni kamaytiradi, quvonch va zavq baxsh etadi, muomalaga ehtiyojini oshiradi. Shunday qilib, ijtimoiy aloqalarning kengayishi, pedagogik ta'sirini to'g'ri tashkil etish, moslashish davrining kechishini osonlashtiradi, bolani boshqa bolalar bilan birligida hayot kechirishga tezroq ko'niktirishga imkon beradi.

Nazorat savollar

1. Maktabgacha ta'limda bolalar hayoti va faoliyatini tashkil etish haqida tushuncha bering?

2. Bolalar hayoti va uni tashkil etish printsiplarini izohlang?

3. Moslashish tushunchasining mazmuni.

4. Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga moslashishining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

15-Mavzu: Maktabgacha ta'limni tashkillashtirish, ro'yhatdan o'tkazish.

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotini tashkil etish tartibi.

2. Maktabgacha ta'lim tashkilot faoliyatini tashkil etish.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, uning uzluksizligini, shuningdek, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi Qonun" vazifalari samarali amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida ishlab

chiqqan hamda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari (keyingi o'rinlarda matnda «maktabgacha ta'lim tashkilot» deb yuritiladi) faoliyatini tartibga soladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari va boshqa hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmonlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmonlariga, maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizomga hamda o'z ustaviga amal qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim-tarbiya va sog'lomlashtirish tashkilot hisoblanadi, quyidagilar uning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- bolalarning hayotini muhofaza qilish va sog'lig'ini mustahkamlash;
- bola shaxsi asoslarini shakllantirish, uning bilimga qiziqishlarini rivojlantirish;

- bolaning intellektual, shaxsiy va jismoniy rivojlanishini ta'minlash;
- bolaning rivojlanishidagi nuqsonlarni zarur tarzda tuzatish;
- bolalarni milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish;
- bolalarni maktabda o'qishga tayyorlash.

II. Maktabgacha ta'lim tashkilotini tashkil etish tartibi

Maktabgacha ta'lim tashkiloti muassis tomonidan tashkil etiladi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkaziladi.

Quyidagilar:

- davlat boshqaruvi organlari;
- mahalliy davlat hokimiyati organlari;
- davlat korxonalari;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa davlat tashkilotlari davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining muassislari bo'lishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'z ishining o'ziga xosligiga muvofiq quyidagi tiplarga bo'linadi:

- umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti;

➤ ixtisoslashtirilgan (jismoniy va psixik rivojlanishida har xil nuqsonlar mavjud bo'lgan bolalar uchun);

➤ sanatoriy tipidagi (zaif, turli yuqumli kasalliklarni boshdan kechirgan, surunkali asoratlarga ega bo'lgan bolalar uchun).

Maktabgacha ta'lim tashkiloti o'z ustaviga, bank tashkilotlarida hisob raqumiga, O'zbekiston Respublikasi Davlat getbi tasviri tushirilgan va o'z nomi ko'rsatilgan muhrga, yuridik manzili ko'rsatilgan shtramga ega bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotini akkreditatsiya qilish davlat vakolatli organi tomonidan attestatsiya asosida amalga oshiriladi.

III. Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini tashkil etish

Maktabgacha ta'lim tashkiloti belgilangan davlat normativlariga va maktabgacha ta'lim tashkilotiga qo'yiladigan talablarga muvofiq bolalarni tarbiyalashni, o'qitishni, ularga qarab turish va ularni parvarish qilishni hamda sog'lomlashtirishni ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim mazmuni O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan yoki tavsiya qilingan dasturlar bilan belgilanadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti o'z (mualliflik) dasturlaridan foydalanishga haqlidir. Bunday dasturlarni tasdiqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'limi vazirligi tomonidan belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining ish rejimi va bolalarning u yerda qancha vaqt bo'lishi maktabgacha ta'lim tashkiloti ustavi va muassising qarori bilan belgilanadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti (guruh)ning kunduzgi va kechki vaqtlarda hamda kechayu kunduz faoliyat ko'rsatishiga yo'l qo'yiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni o'qitish va tarbiyalash davlat tilida va «Davlat tili haqida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq boshqa tillarda olib boriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'qatlanishni tashkil etish maktabgacha ta'lim tashkilotiga yuklanadi hamda O'zbekiston Respublikasida tasdiqlangan standartlarga qoidalar va normalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish ham shtatdagi tibbiyot xodimlari, ham maktabgacha ta'lim tashkilotlariga birlashtirilgan sog'liqni saqlash organlarining tibbiyot xodimlari tomonidan ta'minlanadi, ular maktabgacha ta'lim tashkilot xodimlari bilan birgalikda bolalarning hayoti, sog'lig'i va jismoniy rivojlanishi, davolash-prorofilaktika tadbirlari o'tkazilishi, sanitariya-gigiyena normalariga, ovqatlanish rejimi va sifatiga rioya qilinishi uchun javob beradilar.

Tibbiyot xodimlari faoliyatini nazorat qilish mahalliy sog'liqni saqlash organlariga yuklanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tibbiyot xodimiga xona beradi va uning ishlashi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining shtatdagi xodimlari sog'liqni saqlash organlarida bepul tibbiy ko'rikdan o'tadilar, buning uchun sarflanadigan xarajatlar davlat tomonidan ajratiladigan mablag'lar doirasida belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'limi vazirligi tomonidan Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilot ustavda qayd etilgan o'z maqsadlarini va vazifalarini bajarish uchun ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bilan tuzilgan shartnomalar asosida oilaning ehtiyojlarini hisobga olgan holda asosiy ta'lim dasturlaridan tashqari qo'shimcha pulli ta'lim xizmatlari ko'rsatishga haqlidir. Pulli ta'lim xizmatlari muassis tomonidan moliyalashtiriladigan asosiy ta'lim faoliyati o'rniga va uning doirasida ko'rsatilishi mumkin emas.

Nazorat savollar

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotini tashkil etish tartibi qanday?
2. Maktabgacha ta'lim tashkilot faoliyatini tashkil etishda nimalarga e'tibor qaratish kerak?

16-Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining boshqarish mohiyati.

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim tarbiya jarayonini rejalashtirish.
2. Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining ish xujjatlari

Ta'lim tashkilotlarida sog'lom mulhiti yaratish - MTT rahbarining mahorati, bilimi va tajribasiga bog'liq. Buning uchun har bir rahbar tinimsiz izlanib, moliyaviy, huquqiy - me'yoriy hujjatlarni o'qib o'rganishi lozim.

Rahbar aqlli, tajribali, o'z ishini bilimdoni bo'lgan mutaxassislariga tayyammog'i, ularning fikriga quloq solmog'i va shunga asoslanib xulosa chiqarmog'i lozim.

Rahbar nafaqat boshqaruvchi, balki malakali pedagog bo'lishi lozim. Xodimlarga talab qo'yishdan avval, o'zi sohani mukammal bilishi, islohatlar mohiyatini, ta'lim yangiliklarini chuqur anglashi hamda tushinishi shart. Xodimlarga ilg'or pedagogika va axborot - kommunikatsiya texnologiyalari, interfaol usullardan foydalanish borasida shaxsiy namuna ko'rsata olish kerak.

Hozirgi davrda maktabgacha ta'lim tashkilotlariga yuqori tashkilotlarning ko'rsatma va direktiv hujjatlardagi vazifalarni ko'r-ko'rona bajaradigan rahbarlar emas, balki o'z faoliyatiga va har bir ishga ijodiy yondoshadigan, yangi tafakkurdagi zamon talabiga javob bera oladigan, pedagogika, psixologiya, ta'lim tashkilotini boshqarishga oid bilimlarga ega bo'lgan va ulardan tajribada mohirona foydalana oladigan, shuningdek, mukammal shaxsiy fazilatlarga, o'ziga xos xususiyatlarga, boshqaruvchilik qobiliyatiga, muayyan muomala madaniyatiga, imon-e'tiqodga ega, his-tuyg'ularni anglay oladigan, fidoyilik, ijtimoiy faollik, tashkilotchilik va tadbirkorlikka layoqatli rahbarlar kerak.

Ayol tabiatan mehnatdaryo qilib yaratilgan. Ular o'z atrofida vazifasini siddiqildan bajaruvchi insonlarni jamlaydi. Xayr - sahoovat, muruvvat, yaxshilik ulashmoq ayollarga, onalarga xos e'zgu fazilatlardan biridir.

Maktabgacha ta'lim vazirining 2019 yil 30 avgustidagi "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujiatlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 155-sonli buyrug'i bugungi kunda amalda ekani, buyruq asosida qo'llanma ishlab chiqilgani, ushbu qo'llanma kirish va 12 ta bo'limdan iborat bo'lib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yuritilishi lozim bo'lgan hujiatlarni yuritish tartibi ko'rsatib berilgan.

01 - Boshqaruv xujjatlari

01-01. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senata, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Qorag'apog'iston Respublikasi Jukorgi Kengining xujjatlari (qonunlar, qarorlar, bayonnomalar, stenoqrammalar), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoirlari, qarorlari, farmoyishlari topshiriqlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi, Qorag'apog'iston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi Kengashining qarorlari, farmoyishlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tug'risidagi 391-son qarori.

01-02. Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tuman (shaxar) maktabgacha ta'lim bo'limlari tomonidan yuborilgan buyruq, xat va xujjatlar nusxalari saqlanadi.

01-03. Maktabgacha ta'lim tashkiloti Ustavi -tashkilotning asosiy faoliyatini belgilaydi. Ustav- davlat xokimiyati, tashkilotni boshqarish va nazorat qilish xuquqiga ega bo'lgan o'rganlariga taqdim etiladigan xujjat xisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining Ustavi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan "Maktabgacha ta'lim tashkilotining namunaviy Ustavi"ga asosan ishlab chiqiladi.

Ustav ishlab chiqilgandan so'ng, maktabgacha ta'lim tashkilotining umumiy ishlab chiqarish yig'ilishida ma'qullanadi. Tuman (shaxar) Maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan tasdiqlanadi va tuman (shaxar) Davlat xizmatlari markazida royxatdan o'tkaziladi.

Quyidagi hollarda Ustavga o'zgartirish kiritiladi:

Maktabgacha ta'lim tashkilotining nomi va vakolati o'zgartirilganda;

Umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti Qorag'apog'iston Respublikasi Jukorgi Kengisi, viloyatlar va Toshkent shaxar xokimliklarining qarori bilan Ko'p tarmoqli Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotiga yoki ko'shma tipdagi maktabgacha tashkilotiga o'tkazilganda;

Maktabgacha ta'lim tashkilotining kun tartibi va ish soatlarga o'zgartirish kiritilganda;

Maktabgacha ta'lim tashkiloti quvvati bo'yicha ko'rsatilgan asosiy gurnuxdagidan ayrimlarining faoliyati bir necha yillardan buyon tuxatilgan xollarda, ular faoliyatini qayta tashkili etilishida tuman maktabgacha ta'lim bo'limining buyrug'i asosida tuman molliya bo'limi bilan kelishilgan xolda tasdiqlangan xarajatlar smetasi va shtet jadvali asosida yo'lga qo'yiladi.

01-04. Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga turli tashkilot va idoralardan kelib tushgan yozishmalar nusxalari saqlanadi.

01-05. Jismoniy va yuridik shaxslarning yozma va og'zaki murojaatlari, ularni qayd etish kitoblari va murojaat asosida amalga oshirilgan ishlarining nusxalari saqlanadi.

01-06. Maktabgacha ta'lim tashkilotining asosiy faoliyatiga doyr buyruqlarning nusxalari saqlanadi.

01-07. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tomonidan chiqarilgan xat va yozishmalar hamda chora-tadbirlarning nusxalari saqlanadi.

01-08. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni tarbiyalash, o'qitish, ularga qarab turish, parvarishlash va sog'lomlashtirishni ta'minlashga qaratilgan, "O'zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" saqlanadi.

01-09. "O'zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari"ga muvofiq ishlab chiqilgan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim mazmunini belgilab, variativ o'quv dasturlarini yaratishda tayanch xujjat xisoblanuvchi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018 yil 7 iyulidagi 4-sonli xay'at majlisi qarori bilan tasdiqlangan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi saqlanadi.

01-10. Maktabgacha ta'lim tashkilotining qonuniy asosda joylashuvi buyicha o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan kadastir xujjati hamda moddiy-texnik bazasining xolatini aks ettiruvchi o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan tashkilot pasporti saqlanadi.

Mazkur pasport maktabgacha ta'lim soxasiga tegishli bo'lgan vakolatli tashkilotlar tomonidan sanasi va muhri aniq ko'rsatilgan xolda tasdiqlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotining pasportida tashkilot haqida umumiy ma'lumot, yer maydoni, bino va inshootlari, asbob-uskunalar, qattiq va yumshoq jihozlar, o'yinchoqlar, sport inventarlari va musiqa asbob-uskunalari xanda ularning foydalanishiga yaroqlik xolatlari kabi ma'lumotlar kiritiladi.

01-11. Maktabgacha ta'lim tashkilotining yillik sarf-xarajalar smetasiga berilgan takliflari xanda tuman (shaxar) maktabgacha ta'lim bo'limining tuman molliya bo'limi bilan kelishilgan xoldagi o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan xarajatlar smetasining yillik, choraklik nusxalari saqlanadi.

01-12 Tuman (shaxar) maktabgacha ta'lim bo'limining tuman moliya bo'limi bilan kelishilgan xolda o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan maktabgacha ta'lim tashkilotining shartlar jadvali va tarifkatsiya ro'yxatlari, hamda unga kiritilgan to'ldirish va o'zgartirishlar saqlanadi.

01-13 Maktabgacha ta'lim tashkilotining barcha yo'nalishtlar bo'yicha asosiy faoliyatini yolg'a qo'yish yuzasidan 2019-2020 o'quv yili uchun yillik ish rejasi (keyingi o'rinlarda "Yillik ish reja" deb yuritiladi) tu'zildi.

01-14. Maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagogik kengashi - boshqaruv organi hisoblanadi.

Tashkilot ish rejasi va pedagoglarning pedagogik yuklamasini belgilaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqadi va ta'lim dasturlarini amalga oshirish natijalarini baxolaydi. Bolaning umumiy vakillari xdmkorligi tartibini belgilaydi. Pedagog xodimlarning malakasini oshirish, ularning ijodiy tashabbusini rivojlantirish, ilgor pedagogik tajribalarni joriy etish masalalarini muxokama qiladi, tashkilot xodimlarining moddiy va mahaviy rag'batlantirish masalalarini ko'rib chiqadi, raxbar va pedagoglarning isoboti tinglanadi. Pedagogik kengashga rais, uning a'zolari, kotiba saylanadi. Kengash bayonmalarini yuritish kitobi va muxokama qilish uchun tayyorlangan taxliliy materiallar, ma'lumotlar kitobida saqlanadi. Kengash bayonomalari kengash kitobasi tomonidan yozib boriladi.

Pedagogik kengash rejasiga kiritilgan masalalar mas'ul ishchi guruh tomonidan bir oy oldin o'g'xolanitirilgan xolda o'rganiladi. O'rganish natijalari yuzasidan tayyorlangan ma'lumotlar va qaror loyixasi pedagogik kengash a'zolariga 10 kun oldin topshiriladi. Kengash a'zolari tomonidan ko'rib chiqib, berilgan taklif va tavsiyalar asosida qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Pedagogik kengash bayonida xar bir masaladan so'ng, muddai belgilangan xolda qaror chiqariladi, qaror ijrosi buyicha mas'ul shaxsga yuklatilib, mazkur qarorlarning ijrosini bajarilishi keyingi pedagogik kengash boshlanishida ijrosini sifatlil ta'minlanishiga ko'ra nazoratdan olinadi.

O'rganilgan masalalarga oid taxlil natijalari va barcha xujjatlar yig'ma jildil shakllantiriladi. Pedagogik kengash bayonomalari daf'tari tikilgan, sax'ifalangan, maktabgacha ta'lim tashkiloti raxbari tomonidan imzolangan va muvirlangan bo'lishi lozim.

01-15. Maktabgacha ta'lim tashkilotining kuzatuv kengashi-tashkiloti boshqarishda strategik organ xisoblanadi. Kengashning asosiy maqsadi-maktabgacha ta'lim tashkilotini rivojlantirishda ustuvor vazifalarni belgilash. Tuman (shaxar) maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan tavsiya etilgan nomzodlardan tashkilot raxbarini saylaydi, tashkilotning maqsadi va vazifalariga erishish rejasini

tasdiqlashda ishtirok etadi, ularni bajarilishi va maqsadli ko'rsatkichlarga erishilishi ustidan nazorat qiladi.

01-16. Tatish komissiyalari, auditorlar, davlat moliyaviy nazorat idoralari tomonidan o'tkazilgan tekshiruv xulosalari yoki dalolatnomalari saqlanadi.

01-17 Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini attestatsiya-akkreditatsiyadan o'tkazish natijalari bo'yicha ma'lumotnoma, dalolatnoma va sertifikatlar yig'iladi.

01-18 Tashkilot raxbariyati almashganda tuzilgan topshirish-qabul qilish dalolatnomalari va ularga oid ilova xujjatlar saqlanadi.

Dalolatnomalar yuqori boshqaruv organining buyrug'i asosida tasdiqlangan ishchi guruh tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi.

01-19 Maktabgacha ta'lim tashkilotiga tashrif buyuruvcilarni qabul qilish bo'yicha qaydnomalar kitobi yuritiladi. Kitob raqamlangan, shnurlangan va tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi mudiri tomonidan tasdiqlangan bo'ladi.

02 - Tarbiyalanuvchilarga oid xujjatlar

02-01. Umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni qabul qilish, guruhdan-guruhga o'tkazish, tashkilotdan chiqarish ishlari EMIS tizimi orqali, Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti (keyingi o'rinda - IMTT) va Qo'shma tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari (keyingi o'rinda - KMTT)ga qabul qilish esa Tibbiy-pedagogik-psixologik komissiyasining (keyingi o'rinda - TPPK) xulosasi asosida amalga oshiriladi.

Tashkilot raxbari tomonidan Davlat xizmatlari orqali berilgan yo'llanna yoki o'rnatilgan tartibda berilgan TPPK xulosasi asosida kelgan bolalarni tashkilotga qabul qilish, guruhdan-guruhga o'tkazish, chiqarishga oid buyruqlar kitobi yuritiladi. Buyruqlar kitobi tikilgan sax'ifalangan va tuman (shaxar) maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan muhr va imzo bilan tasdiqlanadi.

Elektron tartibda guruh, tarkibiga qabul qilingan bolalar uchun yoki TPPK xulosasi asosida qabul qilingan bolalar uchun tashkilot rahbarining buyrug'i chiqariladi. Tashkilot rahbari tomonidan bolaning guruhdan guruhga o'tkazish to'g'risidagi buyrug'i qabul qilingach, mazkur buyruqqa asosan bolalar guruhlarining davomat daf'tariga qayd etiladi.

O'quv yili davomida tashkilot guruhlarida bo'shagan bolalar o'rinlari elektron navbatga qo'yilgan bolalar xisobidan yo'llanna chiqarilib, tashkilotning buyrug'i asosida to'ldirib boriladi.

Bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotidan chiqarish to'g'risidagi buyruqqa uning ota-onasi tomonidan berilgan ariza asos bo'ladi. Bu to'g'risida tashkilot rahbari tomonidan yoki uning nazorati ostida EMIS axborot tizimiga har kunlik ma'lumotlar kiritilib, yangilab boriladi.

Buyruqlar har o'quv yilining boshidan (2 sentyabrdan) 1 raqami bilan

boshlab, kelgusi yil 25 avgustda maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari imzosi va muxri bilan saxifa yakunlanadi. Ushbu davr mobaynida chiqarilgan buyruqlar soni raqamlarda ko'rsatiladi

02-02 Maktabgacha ta'lim tashkilotiga qabul qilingan bolalarga Davlat xizmatlari orqali berilgan yo'llamalar, yoki IMTT va KDMTTga qabul qilingan bolalarga berilgan TPPK xulosalar va ularning ota-onalari o'rtasida to'zigan shartnomalarni bitta yig'ma jildga jamlangan xolda shakllantirish tavsiya etiladi.

Ota-onalar bilan to'zigan shartnomalar - bolani MTTga qabul qilingan va shartnoma imzolangan kundan boshlab, o'z kuchiga ega xisoblanadi. Bola MTTdan chiqarilgandan so'ng, ushbu shartnoma bekor qilinib, o'z kuchini yo'qotgan xisoblanadi.

Shartnoma bola MTTdan ketgunga qadar to'ziladi va tashkilot rahbarining imzosi, muxri hamda ota-ona (yoki ota-ona o'rini bosuvchi shaxs) ning imzosi bilan tasdiqlanadi. Tashkilotga yilning sentyabr oyidan qabul qilingan bolalar ro'yxati 1 raqamdan boshlanadi. Shartnomaga o'zgartirishlar qo'shimcha kelishuv shaklida kiritiladi va o'ralingan tartibda rasmiylashtiriladi.

02-03. Davlat xizmatlari tomonidan berilgan yo'llamalar yoki TPPK xulosalar hamda ota-onalar o'rtasida to'zigan shartnomalarni qayd etish kitobi yuritiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotiga bolalar tuman davlat xizmatlari tomonidan berilgan yo'llama yoki TPPK xulosa asosida o'ralingan tartibda (15 kun muddat ichida) tashkilotga kelgan kundan boshlab, qabul qilinadi hamda ularning ota-onalari o'rtasida ikki tomonlama shartnoma to'zilib, shartnomalarni ro'yxatga olish kitobiga rasmiylashtiriladi.

Yo'llama yoki TPPK xulosalar va shartnomalarni qayd etish kitobi tikilgan, saxifalangan, maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari tomonidan imzolangan va muxrlangan bo'lishi lozim.

Kitobda, yo'llamalar yoki TPPK xulosalar va shartnomalar o'quv yili boshida (2 sentyabr) 1 raqami bilan ro'yxatga olinadi. 31 avgustda MTTdagi mavjud yo'llamalar yoki TPPK xulosalar va qabul bo'yicha taxliliy xisobot yoziladi. Unda tashkilotda o'quv Yili yakuniga kelib, mavjud yo'llamalar yoki TPPK xulosalar soni (MTTdagi ro'yxat bo'yicha jami bolalar soniga teng bo'lishi lozim), o'tgan Yili 2 sentyabrdan joriy yilning 31 avgustiga kadar bo'lgan davr davomida qancha yo'llama yoki TPPK xulosalar qabul qilingan, necha nafar bola tashkilotdan ketgan, ulardan necha nafari maktab ta'limiga

yuborilganligi, IMTT va KMTTlar uchun qo'shimcha necha nafari sog'lomlashtirilganligi tahtli qilinadi. Ushbu tahtli tashkilot rahbarining imzosi va muxri bilan tasdiqlanadi.

02-04. Korrektсион-pedagogik hamda reabilitatsiya tadbirlarini o'tkazish yo'zasiidan individual yunalish - bu aniq: bir bola uchun mujallangan ko'p yunalishli ta'limiy yakka tartibdagi yunalishini tavsiflovchi, shu jumladan oila bilan xdmkorlikda olib boriladigan xujjaddir.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotning tibbiy-psixologik-pedagogik kengashi bola qabul qilinganda uning o'ziga xos va yosh xususiyatlarini, sog'ligi holati va rivojlanish darajasini xisobga olib, korrektсион-pedagogik hamda reabilitatsiya tadbirlarini o'tkazish yuzasiidan individual yo'nalish ishlab chiqadi, uni amalga oshirish jarayonida bola rivojlanishi dinamikasini aniqlaydi va zarurat bo'lsa, unga o'zgartirishlar kiritadi. Mazkur xujjati yuritilishi uchun defektolog mas'ul xisoblanadi.

Korreksion-pedagogik va reabilitatsiya tadbirlari natijalari, bolaning o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish ko'nikmalari darajasi va ijtimoiy moslashuv dinamikasi, ta'lim-tarbiya dasturlarini o'zlashtirish monitoringi olib boriladi va baxolanadi.

Shaxsiy ta'lim yo'nalishini baxolash va zaruriy moslashtirish doimiy ravishda olib borilishi kerak. Bu bolaning ta'limidagi o'zgarishlari va uning rivojlanishini aks ettiradi.

Tibbiy-psixologik-pedagogik kengashi xulosasiga binoan Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotiga qabul qilingan bola mutaxassislar tomonidan 2 xalfa davomida kuzatiladi. Bolada o'tkazilgan kuzatuvlar natijasiga ko'ra «Rivojlanish xaritasi» to'ldiriladi.

Korreksion-pedagogik hamda reabilitatsiya tadbirlarini o'tkazish yo'zasiidan individual yo'nalishni tuzish bosqichlari:

1. Bola haqida ma'lumotlarni to'plash (kuchli tomonlari va muammolari).
2. Maqsad va vazifalarni aniqlash.
3. Ta'lim usullarini tanlash.
4. Amalga oshirish.
5. Baholash (maqsadga qanday erishildi?).
6. Tekshirish va korrektisiyalash.

Maqsadlarni belgilashda uning aniqligini xisobga olish va bola unga xaqiqatdan ham erishishga imkon beradigan rivojlanish darajasida ekanligiga ishonch xosil qilish lozim. Maqsadni shunday belgilash kerakki, olingan

natijalarni o'ltash yoki baxolashning imkoni bo'lsin. Har bir maktabgacha ta'lim tashkiloti tartiblatnuvchilarining koningentiga qarab o'ziga xos korreksiya-pedagogik hamda reabilitatsiya tadbirlarini o'tkazish yuzasidan individual yo'nalishni tuzish xuquqiga ega.

03 - Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari

03-01 Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining shaxsiy ish rejasi (ish jumali)ni uz ichiga oladi:

Rahbarning shaxsiy ish jumaliga quyidagi bo'limlar kiritiladi:

1. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining oylik ish rejasi
2. Ta'lim-tarbiyaviy va pedagogik jarayonlarni kuzatish keydlari

Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining oylik ish rejasi

Oylik ish reja - rahbarning bir oyga mo'ljallangan vazifalarini kundalik faoliyatiga mukobillashirish asosida, har bir bo'limga oy davomida bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar olinib, ularning bajarilish vaqi xalfadagi sanalar asosida belgilanadi.

Oylik ish reja 5 ta bo'limdan iborat bo'lib, quyidagicha yuritiladi:

Rahbarning shaxsiy ish jumaliga quyidagi bo'limlar kiritiladi:

1. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining oylik ish rejasi
2. Ta'lim-tarbiyaviy va pedagogik jarayonlarni kuzatish qaydlari

Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining oylik ish rejasi

Oylik ish reja - rahbarning bir oyga mo'ljallangan vazifalarini kundalik faoliyatiga mukobillashirish asosida, har bir bo'limga oy davomida bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar olinib, ularning bajarilish vaqi xalfadagi sanalar asosida belgilanadi.

Oylik ish reja 5 ta bo'limdan iborat bo'lib, quyidagicha yuritiladi:

Kadrlar bilan ishlash Tashkiliy-pedagogik ishlar

Ota-onalar va Kuzatuv kengashi bilan ishlash

Maktab, mahalla va boshqa tashkilotlar bilan xamkorlik ishlari

Mamuriy-xujalik ishlari

Ta'lim-tarbiyaviy va pedagogik jarayonlarni kuzatish

Ushbu bo'limda tashkilotda bolalarning kun davomidagi barcha faoliyat turlari (ertalabki qabul, ertalabki soat, markazlardagi ta'limiy va mustaqil jarayonlar, sayrlar, ovqatlanirish, uyqu va kunning ikkinchi yarimida tashkil etiladigan faoliyatlar)ni kuzatish taxlili olib boriladi. Bunda kuzatuv oldindan belgilangan aniq maqsad asosida olib boriladi hamda rahbar tomonidan beriladigan xulosa va tavsiyalar tartibiyachiga tanishtirilib, tartibiyachining tanishganligi haqidagi imzosi bilan yakunlanadi.

03-02 MTT xodimlarining ish vaqi xisobini yuritish tabeli tashkilot rahbari tomonidan har oyda belgilangan shaklda yuritiladi. Tabellar butun tashkilot bo'yicha yoki tuzilmaviy bo'limlar bo'lingan xolda yuritiladi. O'ynig oxirida tabel bo'yicha ishlangan kunlarning umumiy miqdori, shuningdek, ortiqcha ishlangan soatlar aniqlanadi. To'ldirilgan va tegishti imzolar bilan rasmiylashtirilgan tabel va boshqa xujjatlar belgilangan muddatda ish xaqini xisoblash uchun markazlashgan buxgalteriyaga topshiriladi. Ushbu ish vaqini xisobga olish elektron tarzda amalga oshirilishiga yo'l qo'yiladi.

03-03 Xodimlar bilan yo'rignoma o'tkazish kiobi. Xodimlar bilan joriy yo'rignomalr - to'rt yo'nalishda o'tkaziladi.

1. Maktabgacha ta'lim xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari bilan tanishtirish yo'rignomasi. Mazkur yo'rignoma bir yilda bir marotaba o'quv Yili boshida (avgust-sentyabr oyida) umumiy ishlab chiqarish majlisida o'tkaziladi.

2. Texnika xavfisizligi va mexnatni muxofaza qilish yo'rignomasi yilda bir marotaba o'quv yili boshida kasaba uyushmasi bilan birgalikda o'tkaziladi.

3. Bolalarning xayoti va sog'lig'ini muxofaza qilishni tashkil etish tartibi to'grisidagi yo'rignoma o'quv yilda uch oyda bir marotaba sentyabr, dekabr, mart oylarida tanishtiriladi. Yozei sog'lomlashtirish mavsumida har oyda - iyun, iyul, avgust oylarining birinchi sanalarida har bir xodimga tanishtirib boriladi.

4. Yonin xavfisizligi qoidalarini bo'yicha yo'rignoma yilda bir marotaba kalendar yili boshi (yanvar oy) da o'tkaziladi. Ushbu yo'rignoma maktabgacha ta'lim tashkilotining yong'in xavfisizligi uchun javobgar mas'ul shaxs bo'lgan (shu xaqda MTT rahbarining buyrug'i chiqariladi) xo'jalik ishlari bo'yicha rahbar o'rinbosari ishtirokida o'tkaziladi.

Har bir o'tkazilgan yo'rignoma so'ngida yo'rignoma bilan tanishtirilgan shaxs yoki rahbarning ismi, sharifi, imzosi (rahbar tanishtirgan xolda muxr) qo'yilishi lozim.

Nazorat savollar

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotining boshqaruv hujjatlari haqida ma'lumot bering?

2. Maktabgacha ta'lim tashkiloti mudirasining ish hujjatlari nimalardan iborat?

17-Mavzu: Ma'naviy boshqaruv, pedagogik jarajonlarni boshqarish.

Reja:

1. Tashkiliy-pedagogik jarayonlarga quyidagilar kiradi:
2. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni rejalashtirish.

Tashkiliy-pedagogik jarayonlarga quyidagilar kiradi:

- 1) Bayram ertaklarini o'tkazish va rahbarlik qilish.
- 2) Ochiq tadbirlarni tashkil etish va rahbarlik qilish, ochiq tadbirlar va pedagogik jarayonlarni jamoa asosida kuzatish va tahlil qilish (masalan, ochiq mashg'uloti sayrlarni kuzatish).
- 3) Maktabgacha ta'lim bo'limlari tomonidan berilgan topshiriq asosida tarbiyachi va bolalarni ko'rik-tanlovlarga qatnashishi, yil tarbiyachisi, san'at bayrami, sport bayramlarini o'tkazish.

Rejalashtirish maktabgacha ta'lim tashkilotni boshqarishni uning barcha bo'limlarida rejalari, muntazam, ratsional hamda samarali ishlashini ta'minlovchi muhim funksiyasidir. Rejalashtirish – murakkab analitik jarayon. U o'ziga xos ishlab chiqish va uni maktabgacha ta'lim tashkilotlari amaliyotiga qo'llash bosqichlariga ega.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni rejalashtirish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1-bosqich – *tahliliy*. Mazkur bosqichda maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi o'quv-tarbiya jarayonining mavjud holati tahlil etiladi; rejani amalga oshirishga ta'sir etuvchi omillar aniqlanadi. Bu rejalashtirishning muhim bosqichi hisoblanib, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining samaradorligini rejalashtirish jarayonining qanchalik to'g'ri boshorat qilin-ganligiga bog'liq. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari avvalgi yildagi faoliyatini tahlil etish chuqur va haqiqiy amalga oshirilishi zarur.

2-bosqich – *maqsadli*. U o'z ichiga ijtimoiy buyurtma bilan bog'liqlikda rejalashtirilgan bosqichdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining umumiy maqsad va vazifalarini belgilash, natijalarni tahlil etish, rejalashtirilgan topshiriqlarni

bajarishga ta'sir ko'rsatuvchi sabablarni aniqlash; maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati turli ish rejalarining mazmunan bir-biriga mosligi; rejada belgilangan ishlarning pedagogik jamoa imkoniyatlari va maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliya-tining moliyaviy-iqtisodiy holatiga muvofiqdigi kabi larni qamrab oladi.

3-bosqich – *mazmunli*. davlat hujjatlari va qo'yilgan maqsadlarga muvofiq o'quv-tarbiya jarayoniga yo'nalganlikni ajratib ko'rsatish; maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining alohida yo'nalishtari bo'yicha rejalashtirilgan topshiriqlarni bajarish ketma-ketligini aniqlash.

4-bosqich – *normativli*. Mazkur bosqichda ajratilgan yo'nalishtar uchun mas'ul kadrlar taqsimlanadi, qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun vositalar ajratib olinadi, ishini amalga oshirish muddatlari belgilanadi.

5-bosqich – *nazorat*: reja bo'limlarining bajarilishi yuzasidan o'tkaziladigan nazorat turlari va mazmunini aniqlash.

Rejalashtirishni boshqarishga bevosita rahbarlik qilish yoki uni amalga oshirish yo'lidir. Boshqarishda belgilangan maqsad, tadbirlarni hayotga tadbir etish uchun rejalashtirish kerak. So'ng uni ijrochilar hukmiga havola qilish lozim. Rejalashtirish qaror qabul qilish va ijrosini nazorat qilishdir. Rejalashtirishning mohiyati shundaki, unda boshqarishning maqsad va vazifalari aniqlanadi, har bir tadbirning bajarish muddati, mas'ul shaxs, uning ijrosini tekshirish va nazorat usuli aniqlanadi.

Rejalashtirish boshqarish modelini, fikriy nusxasini ishlab chiqish demakdir. Rejalashtirish pedagoglar malakasini oshirish tizimini rivojlantirish maqsadini va bunga erishish vosita, yo'llarini belgilashdir. Bunda amalga oshirilishi lozim bo'lgan talablar ketma-ketligi, bajarish muddati, shakli belgilanadi. Rejalashtirish boshqarish lozim bo'lgan sohalarini ma'lum ketma-ketlik, chizmal, grafik yoki model tarqasida amalga oshirishi mumkin. Rejalashtirishda boshqarish bilan bog'liq harakatalar o'zaro muvofiqlashtirilib, yuqori natijaga erishishni tashkil etish mumkin. Bu esa o'z navbatida jarayonga ishtirok etuvchilardan harakat va

munosabatlarni ongli va qat'iy tashkili etishni talab qiladi. Shu asosda yagona maqsadga erishish mumkin bo'ladi.

Rejalilik – bu ham ijtimoiy-iqtisodiy, ham pedagogik faoliyat sohasini boshqarishning asosidir. Rejaviylik – asosiy tamoyil. Rejali topshiriqlar barcha xizmatning natijaviyligini aniqlash uchun xizmat qiladi.

Rejalashtirishning mohiyati faoliyatning asosiy turlari va aniq ijrochilari va rejalashtirish muddati bilan bog'liq chora-tadbirlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini rejalashtirishning maqsadi bir tomondan ma'muriy va pedagogik jamoaning, ikkinchi tomondan, tarbiyalanuvchilar jamoasi harakatlari birligini ishlab chiqishda namoyon bo'ladi. Rejalashtirishning maqsadi vazifalari bilan aniqlashtiriladi. Aynan vazifalar aniq maktabgacha ta'lim tashkilotlari sharoitida amaliy va "ko'ngilli" maqsadni qo'yadi.

Rejalashtirishning asosiy vazifalari quyidagilarda ko'rinadi:

- 1) ta'lim masalalari va o'sib kelayotgan avlodni o'qitish ishlari bo'yicha davlat organlari qarorlari ijrosini ta'minlashda;
- 2) pedagogik jamoa faoliyatidagi asosiy masalalarni ajratib ko'rsatishda;
- 3) aniq chora-tadbirlar, ularni ijro etish muddatlari va mas'ullarini aniqlashda;
- 4) alohida ijrochilarni ularning faoliyatini ilmiy asoslangan reglamentlash yo'li bilan tartiblashtirishda;
- 5) jamoa a'zolarida mas'uliyatlikni tarbiyalashda.

Rejalashtirishga kirishish uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti mudiri butun ta'lim tashkiloti faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishga imkon beruvchi asosiy qoidalariga tayanish izarrur. Rejalashtirish tamoyillariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Rejalashtirishning *ilmiyyligi* rejalarni boshqaruvning ilmiy metodologik nuqtai nazariga asoslangan holda tuzishni talab etadi. Bu yerda rejadagi asosiy nuqtai nazarining aniqliigi, uning hayotiyiligi, rejalashtirilyotgan chora-tadbirlarni o'tkazishning pedagogic maqsadga muvofiqiligi va zarurligi muhimdir;

2. *Istiqbollilik* rejalashtirish g'oyasining o'zida aks ettirib, ya'ni nafaqat yaqin va olis kelajak, balki aniq maqsad va vazifalarga yo'naltirilganlikni hisobga olib, maqsadga qaratilgan tarzda ishlashni talab etadi. Istiqbolli va oraliq rejalashtirishni uyg'unlashtirish ta'limiy vazifalarni bir necha yilga mo'ljallab qo'yish, ulardan qanchasini bir yilda hal qilib bo'lmashligini aniqlashni talab qiladi;

3. Ishni real rejalashtirish sharoitida aniq *pedagogik jamoaning o'ziga xosliklarini* hisobga olish muhim hisoblanadi. U yoki bu rejani qo'yishda boshqaruvchi MTning asosiy tarkibi, tarbiyachilarining malakaviy darajasi, yosh bilan bog'liq jihatlari, kasbiy faoliyatida ijobiy motivatsiyaning mavjudligi kabi ta'lim tashkiloti jamoasining asosiy tavsifiga tayanadi;

4. Rejaniing *ob'ektivligi*. Mazkur tamoyilning mohiyati shundaki, rejalalar maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini chuqur va har tomonlama pedagogik tahlil etish va mazkur yilda uning erishiladigan natijalari, ya'ni ta'lim tashkilotining ob'ektiv shart-sharoitlari bilan bog'liqlikda tashkil etiladi.

5. Aniqlik. Eng avvalo, mazkur tamoyil ta'lim-tarbiya jarayoni, moddiy baza, kadrlar ta'minoti holati haqida ishonchli va ko'p hajmli axborot olishni talab etadi.

6. Majmuaviylik. Mazkur tamoyilning muhim talabi – o'quv va tarbiyaviy ishlar va ularning moddiy-texnik ta'minotining tashkiliy jihatdan o'zaroaloqador va o'zaro bog'liqlikda amalga oshirishdir. Tarbiyachilar, ota-onalar va jamoat tashkilotlarining yillik rejalarining o'zaro aloqadorligi va ma'qullanganligidir.

7. Jamoaviylik. Mazkur tamoyil o'quv-tarbiyaviy jarayonda barcha tarbiyachilarning ishtirok etishini talab etadi.

Nazorat savollar

1. Tashkiliy-pedagogik jarayonlarga nimalarlar kiradi?
2. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni rejalashtirish qanday yo'lga qo'yiladi?

18-Mavzu: Uslubchi faoliyati mazmuni.

Reja:

1. Usluchining ish hujjatlari

2. Yillik, oylik istiqbol rejalari

Katta tarbiyachining kuzatishlari maxsus daftarlarda fotoyozuv, tanlab yozish va shu kabilar tarzida qayd etiladi.

Pedagogik kabinetning ishi. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi butun metodik ishning markazi metodik xonadir. Pedagogik jaryoni uyushtirish, osonlar bilan ishlash, pedagogik maxoratlarni oshirish va mustaqil o'qishlarini tashkil qilishda tarbiyachilarga amaliy yordam ko'rsatishdagi yetakchi rol pedagogika kabine (metodika xonasi) zimmasidadir.

Pedagogika kabine bolalar tashkiloti an'analari jamg'ariladigan joydir. Metodistning vazifasi— jamg'arilgan tajribaga «jon ato qilib» tushunari qilish, tarbiyachilarni bolalar bilan ishlashda ularni ijodiy qo'llashga o'rgatishdir.

Pedagogika kabinetida to'g'ri yo'lga qo'yilgan ish barcha xodimlarning metodik tayorgarligini oshirishga, xususan, bolalarni xar tomonlama rivojlantirish vazifalarini xal qilishga yordam beradi. Pedagogikaning kabinetining asosiy vazifasi bolalar bog'chasi tarbiyalariga metodik yordam ko'rsatish, ularning g'oyaviy-siyosiy va ilmiy-metodik saviyalarining, pedagogik maxoratlarning o'sishi uchun sharoit yaratishdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi pedagogika kabine, shuningdek ilg'or pedagogik tajriba to'planadigan, umumlashtiriladigan va tarqatadigan boshlang'ich markaz hamdir. Kabinetning muxim vazifalaridan biri tarbiyachilarga o'z mexnatlarini ilmiy asosda tashkil qilishlarida yordam ko'rsatishdir.

Pedagogika kabine bu vazifalarni xal etishi uchun metodist kabinetidagi materiallar mazmuniga oshirilgan talablar qo'yishi, uni tizimlashtirish va puxta o'ylab chiqishi kerak.

04 - Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodisti

04-01. O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018 yil 18

iyundagi 1-MX-son buyrug'i bilan tasdiqlangan (Adliya vazirligida 3 iyul 2018 yilda 3032-son bilan ro'yxatdan o'tgan) "O'zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari", O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018 yil 7 iyundagi 4-sonli xay'at yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi.

04-02 Metodistning shaxsiy ish rejasi (ish jurnali) ga quyidagi bo'limlar kiritilgan:

1. Pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish yuzasidan qaydnomalar.
2. Pedagoglarning metodik ishlardagi ishtiroki xaqida ma'lumot.
3. Maslaxat soatlarni rejalashtirish qaydnomalari.
4. Ta'lim-tarbiyaviy va pedagogik jarayonlarni kuzatish qaydnomalari.
5. Metodistning oylik ish rejasi.
6. Keyingi o'quv yili rejasi uchun goya va takliflar banki.
1. Pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish

Bu bo'limda tashkilotda faoliyat yuritayotgan barcha pedagog xodimlarning ish salohiyatlarini aniqlash maqsadida attestatsiyadan o'tish vaqtlari, attestatsiya uchun taqdim etiladigan ishlar mazmuni bilan tanishish, belgilab olish hamda attestatsiya natijalari haqidagi ma'lumotlar beriladi.

1. Pedagoglarning metodik ishlardagi ishtiroki xaqida ma'lumot

Bu jadvalda pedagog xodimlarning faoliyatlarini yanada yaxshilash, samaradorligini ta'minlash, yangiliklarga intilish va innovatsiyalarni ish faoliyatlariga tatbiq etish maqsadida olib boriladigan ishlar rejalashtiriladi, taxliti yuritiladi xamda shunga munosib tarzda xodimlarni rag'batlantirish choralari belgilab olinadi. Masalan: xodimning o'quv yili davomida tashkil etgan ko'rgazmalari, ko'rik-tanlovlari xamda pedagogik kengashdagi chiqishlari, amaliy va nazariy seminarlar, konferentsiyalardagi ishtiroklari rejalashtiriladi.

2. Maslaxatlarni qayd etish daftari. Maslaxatlar maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun oyda 2 marta o'tkaziladi va quyidagi tartibda yuritiladi.

O'tkazilgan vaqti, maslaxat mavzusi, maslaxatning qisqacha mazmuni va amalga oshirish bo'yicha vazifalar, maslaxat oluvchi shaxsning familiyasi, ismi, shartli va imzosi.

3. Ta'lim-tarbiyaviy va pedagogik jarayonlarni kuzatish

Ushbu bo'limda muassasada bolalarning kun davomidagi barcha faoliyat turlari (ertalabki qabul, ertalabki soat, markazlardagi ta'limiy va mustaqil jarayonlar, sayrlar, ovqatlantirish, uyqu va kunning ikkinchi yarmida tashkil etiladigan faoliyatlar)ni kuzatish tahlili olib boriladi. Bunda, kuzatuv oldindan belgilangan aniq maqsad asosida olib boriladi xamda metodist tomonidan beriladigan xulosa va tavsiyalar tarbiyachiga tanishtirilib, tarbiyachining tanishganligi xaqidagi imzosi bilan yakunlanadi.

4. Metodistning oylik ish rejasi

Oylik ish reja metodistning bir oyga mo'ljallangan vazifalarini kundalik faoliyatiga muvobillashtirish tamoyili asosida yuritiladi.

Oylik reja quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1. Pedagog-kadrlar bilan ishlash.
2. Tashkiliy-pedagogik ishlar.
3. Xamkorlik ishlari.
4. Tadbirlarga tayyorgarlik.

Xar bir yo'nalishga oy davomida bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar olinib, ularning bajarilish vaqti xaftadagi sanalar asosida belgilanadi.

Ish jumali orqali metodist tashkilot faoliyatidagi yangiliklar, goyalar, takliflar xanda amaliy jarayonlarni yil davomida yig'ib boradi

Ish jumalida berilgan takliflar, tavsiyalar, kamchiliklar asosida kelgusi xafta, oy rejalari belgilanadi.

Keyingi o'quv yili rejasi uchun g'oya va takliflar banki

04-03. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim sifati xanda pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish bo'yicha ish rejalari metodist tomonidan pedagoglarning kasbiy maxoratlarini oshirishga qaratilgan metodik o'qishlar, pedagogik minbarlar, turli mavzularda treninglar, uchrashuvlar, maxorat maktablari, ustoz-shogird, siyosiy va mahaviy ongni oshirishga qaratilgan tadbirlar xanda yangi metodik adabiyotlarni o'rganish, yangiliklarni tashkilot faoliyatiga tatbiq etish, mualliflik dasturlarini ishlab chiqishga yo'naltirish kabi mavzular kiritiladi.

04-04. Bolaning rivojlanish xartiasi yuritilishini nazorat qilish kitobi tashkilotdagi guruhlar kesimida tarbiyalanuvchilarning rivojlanish xartialari asosida yuritiladi. Guruhlarda bolalar bilan yilda 3 marta kuzatish o'tkaziladi. Rivojlanish xartiasi asosida bolalarni kuzatish natijalari taxlil qilinadi. Kuzatish jarayonida 5 ta rivojlanish soxalariga asosan belgilangan mezonlar bo'yicha o'zlashtirmagan bolalar soni yoziladi. Daftarning izoh qismida kuzatish natijalarida bolalar rivojlanishida aniqlangan bo'shliqlar asosida yakka tartibda olib boriladigan, ta'lim jarayoniga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha vazifalar qayd etiladi.

Katta tarbiyachining doimiy xujjatlari qatoriga gruppalaridagi ta'lim-tarbiyaviy va sog'lomlashtirish ishlarini kontrol qilish daftari (jumali) ham kiritadi. Unda katta tarbiyachi o'zining gruppalarida bolalarning o'quv, o'yin, mehnat faoliyatlarini o'rganishga doir ishini; tarbiyachilar ishining sifati; bolalarning programmaning turli bo'limlari bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va

malakalarining analizi; bolalarning xulq-atvor madaniyati, mahaviy-irodaviy sifatlarini, kollektivda yashash ko'nikmalarini egallaganlik darajalari va shu kabilarni aks ettiradi. Katta tarbiyachi tarbiyachilar ishidagi jiboiy momentlarni va kamchiliklarni kayd etadi, ularning qiyinchiliklari va muvaffaqiyatsizliklari sabablarini analiz qiladi hamda ishini yaxshilashning konkret yo'llarini ko'rsatadi.

Nazorat savollar

1. Uslubchining ish hujjatlarini haqida gapirib bering?
2. Yillik, oylik istiqbol rejalalar qanday tuziladi?

19-Mavzu: Uslubchi va maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarini malakasini oshirish va attestatsiyadan o'tkazish.

Reja:

1. Katta – tarbiyachining vazifasi, huquqi va unga qo'yilgan talablar.
2. Katta – tarbiyachining ta'lim – tarbiyaviy va metodik ishlarga rahbarligi.
3. Pedagogik kengash – ishni tashkil etishdagi roli.
4. Ta'lim-tarbiyaviy ishlarni kuzatish va nazorat.
5. Ilgor ish tajribalarini urganish, umumlashtirish va ommalashtirishdagi roli.
6. Dastur talablarini bajarilishda uning rahbarligi va nazorati.

Ta'lim to'g'risidagi qonunning 4 bo'limi «Ta'lim tizimini boshqarish» bo'limida uning 25-moddasida shunday deyiladi: Ta'lim sohasida yagona davlat sistemasi amalga oshirish Davlat boshqaruv organlariga rahbarlik qilish ta'limni rivojlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish har bir rahbarning bosh vazifalaridan biridir. Maktabgacha tarbiya to'g'risidagi Nizomda ham Maktabgacha tarbiya tashkilotlarini boshqarish va kadrlar tayyorlash ishlarini amalga oshirish, rahbarning huquq doirasi kafolatlari belgilab berilgan. Bolalar bog'chasi ustavida (44 yil) va 1977 yilda har bir ta'lim tashkiloti tomonidan qabul qilingan ustaviga binoan katta tarbiyachining ish jarayonida huquq va vazifalari, huquqlari aniq belgilab beriladi, ya'ni katta tarbiyachi, birinchidan, kamida 3 yillik

o'ra maxsus va 5 yillik oliy ma'lumotga bo'lgan yetakchi metodik jihatdan kuchli ma'naviy siyosiy ongi, dunyogarashi keng tadbirkor, kamida 1 ta xorijiy tillarni biluvchi pedagoglardan tayinlanadi. Shuningdek, katta tarbiyachi quyidagilarni bilishi shart.

Katta tarbiyachi:

- maktabgacha bolalar tashkilotidagi ta'lim-tarbiyaviy ishga metodik rahbarlikni amalga oshiradi;

- “Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya programmasi”ning bajarilishini ta'minlaydi va nazorat qiladi, ta'lim-tarbiyaviy ishning to'g'ri uyushtirilishi uchun javobgar;

- ilgor pedagogik tajribani o'rganadi, umumlashtiradi va tarqatadi, pedagogik kengashda ko'rib chikish uchun zarur materiallarni tayyorlaydi; maktabgacha bolalar tashkilotidagi metodik kabinetning ishini tashkil qiladi; bolalarning yoshlariga muvofiq pedagogik qo'llanmalar va o'yinchoqlarni tanlaydi.

Ola-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni propaganda qilish, turli yosh guruhlar tarbiyachilari, shuningdek maktabgacha bolalar tashkilot va maktab ishida ketma-ketlikni ta'minlash bo'yicha ishini uyushtiradi.

Katta tarbiyachi oliy pedagogik ma'lumotga (maktabgacha pedagogika fakulteti) ega bo'lgan yoki o'ra pedagogik (maktabgacha bulimi) ma'lumotga va kamida 3 yil pedagogik stajiga ega bo'lgan eng yaxshi tarbiyachilardan tayinlanadi.

O'z hamkasblarining hurmatini qozonishi va ularga o'z vazifalarini muvaffiqiyatli bajarishlarida yordam berish uchun katta tarbiyachi qanday rahbarlik sifatlariga ega bo'lishi kerak?

Katta tarbiyachi faqat yaxshi nazariy tayyorgarlikkagina emas, balki bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmasiga ham ega bo'lishi zarur. Tajribali katta tarbiyachining tashabbuskorligi va ishga ijodiy yondashishi: g'oyalarni umumlashtira bilish, maqsadga muvofiq ishlash, har bir tarbiyachining imkoniyat va qobiliyatlarini hisobga olishga qarab farqlanadi.

Katta tarbiyachi talablarni qo'yishda talabchan va qat'iy bo'lishi kerak. Rahbarning o'ziga bo'yisuvchilar bilan mulog'oning emosional-irodaviy tomonini ifodalovchi bu sifatlar rahbarlik uslubining muhim xislatini talabchanlikni hosil qiladi. Yuksak talabchanlikni sezgirlik, xayrixohlik, odamlarga hurmat bilan birga qushib olib borish zarur. Talabchanlik – bu qat'iqo'llik degan gap emas. Buyruqlar, qat'iq tanbehlar, xayfsanlarning foydasidan ko'ra zarari ko'proq va bu odarda rahbarning kuchligidan emas, balki zaitiligidan dalolat beradi.

Maktabgacha tarbiya tashkilot ta'lim-tarbiyaviy faoliyatining samaradorligi, uning obro'si ko'p jihatdan pedagoglar kollektivining jipslashganligiga, eng avvalo butun maktabgacha tashkilot rahbar yadrosida birlik va o'zaro tushunishning mavjudligiga bogliq bo'ladi.

Tarbiyachilarning aniq intizomi va ishda uyushqoqligini ta'minlash; kollektivda jamoatchilik fikrini, tarbiyachilarning bir-birlarining kamchiliklariga tanqidiy munosabatini shakllantirish, mehnat aktivligi va ijodiy ishlash ehtiyojini rag'batlantirish; qabul qilingan qarorlar yechimini ta'minlash kabi sosial – psixologik masalalarini hal qilish katta tarbiyachi uchun birmuncha murakkablik qiladi.

Har bir yosh mutaxassis – ishini endi boshlayotgan yosh tarbiyachi konsultatsiyalar olib turishi uchun unga murabbiy – tajribaliroq va obro'liroq tarbiyachini birlashtirish lozim.

Yosh mutaxassisning kasb mahoratini egallab olishi osonlik bilan bo'lmaydi. Mana shuning uchun ham yosh pedagogni ishning ilg'or metodlari va usullarini egallashga, o'z bilimlarini doimo to'ldirib borishga, erishilganlar bilan cheklanmay, tarbiya sirlarini egallash ishtiyogini singdirishga yo'llash katta tarbiyachining vazifasi hisoblanadi.

Katta tarbiyachining doimiy hujjatlari qatoriga guruhlardagi ta'lim-tarbiyaviy va sog'lomlashtirish ishlarini kontrol qilish daftari (jurnali) ham kiradi. Unda katta tarbiyachi o'zining guruhlarida bolalarning o'quv, o'yin, mehnat faoliyatlarini o'rganishga doir ishini, tarbiyachilar ishining sifatini; bolalar

dasturning turli bilimlari bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarining analizi; bolalarning xulq-atvor madaniyati, ma'naviy-irodaviy sifatlarini, kollektivda yashash ko'nikmalarini egallaganlik darajalari va shu kabi aks ettiradi. Katta tarbiyachi tarbiyachilar ishidagi ijobiy momentlarni va kamchiliklarni qayd etadi, ularning qiyinchiliklari va muvaffaqiyatsizliklari sabablarini analiz qiladi hamda ishini yaxshilashning konkret yo'llarini ko'rsatadi.

Pedagogik kengash kollektiv pedagoglari fikrini ifodalovchi, bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy masalalarni kollegial ko'rib chiqadigan doimiy ishlovchi organ, metodik mahorat maktabi va ilg'or tajriba minbaridir.

Maktabgacha ta'lim tashkilot mudiri pedagogik kengash raisi hisoblanadi.

Pedagogik kengashga quyidagi masalalar: bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlar darajasini oshirish, ularni hal qilish yo'llarini izlash; tashkilot ish praktikasiga pedagogika fanining yutuqlari va ilg'or pedagoglar tajribasini joriy qilish; tarbiyachilarning pedagogik mahoratini oshirish, ularning ijodiy aktivligini rivojlantirish kiritiladi.

Pedagogik kengash: Maktabgacha ta'limi Vazirligining nizam va boshqa normativ hujjatlarini; maktabgacha tashkilotining yillik ish rejasini; bolalar sog'lig'ini mustahkamlash tadbirlarini; har bir yosh guruhpsi bo'yicha «Bolalar bogchasida ta'lim-tarbiya programmasi»ning sifatli bajarilishi jarayonini; ish praktikasiga joriy qilish maqsadida tarbiyachilarning ilg'or tajribalarini; maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berishning aktual masalalarini, tarbiyachilarning nazariy va metodik tayyorgarliklarini oshirish masalalarini va maktabgacha tashkilot faoliyatining boshqa masalalarini muhokama qiladi.

Pedagogik kengashlar kun tartibini belgilashda barcha qatnashchilarni kiziktiruvchi tematikaning kengligini aktualigini ta'minlash zarur. Faqat shundagina pedagogik kengashda ish muhiti hukm suradi, masalalar muhokamasi sermahsul va aktiv bo'ladi.

Pedagogik kengash tarkibiga: katta tarbiyachi, tarbiyachilar, muzika rahbari, maktabgacha tashkilotga xizmat ko'rsatuvchi vrach, katta hamshirasi, partiya

tashkilotining sekretari, kasaba soyuz komitetining raisi, ota-onalar komitetining raisi kiradi. Pedagogik kengash yigilishiga jamoat tashkilotlarining vakillari, maktab o'qituvchilari, maktabgacha tashkilotda tarbiyanuvchilarning ota-onalari taklif etilishi mumkin.

Pedagogik kengash maktabgacha tashkilotining yillik ish planiga kiritilgan va pedagogik kengash tomonidan tasdiqlangan plan bo'yicha ishlaydilar.

Pedagogik kengash ishning muvaffaqiyat ko'p jihatdan pedagoglar kollektivi muhokamasiga qo'yilgan masala qanchalik savodli va jiddiy tayyorlanganligiga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik kengashning yigilishi uch oyda bir marta chaqiriladi, zaruriyat tugilganda navbatdan tashqari yigilish chaqirilishi mumkin. Muhokamaga ko'pi bilan 2-3 masala qo'yiladi, pedagogik kengash ishdan tashqari vaqtda o'tkaziladi.

Pedagogik kengash qarorining loyihasini dokladchi (bolalar bogchasining mudiri yoki katta tarbiyachi) oldindan tayyorlaydi.

Ilg'or pedagogik tajribani umumlashtirish.

Tarbiyachilarning eng yaxshi tajribalarini o'rganish, barcha ilg'or tajribalarini analiz qilish va praktikaga joriy etish bolalar bog'chasi metodik ishining asosi bo'lishi kerak.

Tajribani o'rganish va umumlashtirish guruhpalardagi tarbiyaviy ishlar holatini sistemali tarzda analiz qilinishini nazarda tutadi. Tajribani o'rganishning asosiy yo'llaridan biri guruhpalarga planli tarzda kiritish va pedagogik jarayon hamda rejim momentlarining turli jihatlarini kuzatishdir. Ana shu kuzatishlar asosida tarbiyachining ishi, bolalarning xatti-harakatlari va xilma-xil faoliyatlari haqida tasavvur tarkib topadi.

Katta tarbiyachining kuzatishlari maxsus daftarlarda fotoyozuv, tanlab yozish va shu kabi tarzda qayd etiladi.

Pedagogik kabinetining ishi.

Maktabgacha ta'limdagi butun metodik ishining markazi pedagogika kabinetidir. Pedagogik jarayoni uyushtirish, ota-onalar bilan ishlash, pedagogik

mahoratlarini oshirish va mustaqil o'qishlarini tashkil qilishda tarbiyachilarga amaliy yordam ko'rsatishdagi yetakchi rol pedagogika kabinetini zimmasidadir.

Pedagogika kabinet bolalar tashkilot an'analari jamg'ariladigan joydir. Metodistning vazifasi— jamg'arilgan tajribaga «jon ato qilib» tushunari qilish, tarbiyachilarni bolalar ishlashda ularni ijodiy qo'llashga o'rgatishdir.

Pedagogika kabinetida to'g'ri yo'lga qo'yilgan ish barcha xodimlarning metodik tayyorgarligini oshirishga, xususan, bolalarni har tomonlama rivojlantirish vazifalarini hal qilishga yordam beradi.

Pedagogika kabinetining asosiy vazifasi bolalar bog'chasi tarbiyachilariga metodik yordam ko'rsatish, ularning goyaviy-siyosiy va ilmiy-metodik saviyalarining, pedagogik mahoratlarining uchin sharoit yaratishdir. Bolalar bog'chasidagi pedagogika kabinet, shuningdek, ilg'or pedagogik tajriba to'planadigan, umumlashtiriladigan va tarqatadigan boshlang'ich markaz hamdir. Kabinetning muhim vazifalaridan biri tarbiyachilarga o'z mehnatlarini ilmiy asosda tashkil qilishlarida yordam ko'rsatishdir.

Pedagogika kabinet bu vazifalarni hal etishi uchun metodist kabinetidagi materiallar mazmuniga oshirilgan talablar quyishi, uni sistemalashtirish va puxta o'ylab chiqishi kerak.

Pedagogika kabinetida tarbiyachilarni kabinetda mavjud materiallar bilan tanishtirish, yaxshi tajribani propaganda qilish va yoyish maqsadida «axborot xizmati» uyushtiriladi. Axborot xizmati xilma-xil axborot byulletenlari, bolalar ta'limi va tarbiyasiga doir ayrim masalalar bo'yicha «axborot kunlari», yangi kitoblar annotatsiyasi xavolasi bilan «Metodik adabiyotlar yangiliklari», «Tajriba, muammo, amaliyot», «Metodik burchak» stendlari va hokazolar bo'lishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim xodimlarning nutq madaniyatini doimo takomillashtirib borish maqsadida kabinetda hammaga zarur kitoblar o'rinishi kerak.

Pedagogik kabinetning butun ishi u bolalar bog'chasi metodik ishining markaziga aylanadigan qilib tuzilishi kerak. Tarbiyachilarga kabinet xizmatidan foydalanishni, unda saqlanayotgan materiallar bilan qiziqishni o'rganish kerak. Bu

sezilarli darajada bolalar bog'chasi metodistining mahoratiga, tashkilotchilik qobiliyatlariga bog'liq bo'ladi.

Katta tarbiyachi kabinetining ishlash soatlarini aniqlashi, tarbiyachilarga o'z vaqtida yordam ko'rsatish maqsadida unda navbatchilikni uyushtirish kerak. Bu masalani hal qilishda bolalar bog'chasining mudiri faol ishtirok etadi.

Nazorat savollar

1. Katta — tarbiyachining vazifasi, huquqi va unga qo'yilgan talablar qanday?
2. Katta — tarbiyachining ta'lim — tarbiyaviy va metodik ishlarga rahbarligini izohlab bering?
3. Pedagogik kengash — ishini tashkil etishdagi roli nimalardan iborat?
4. Ta'lim-tarbiyaviy ishlarni kuzatish va nazorat qilishdan maqsad nima?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. "Barkamol avlod orzusi" tuzuvchilar: Sh.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahiddinov. Nashr uchun mas'ul: T.Risqiev. - I.: «Sharq» NMIK Bosh tahririyati, 1999. - 182 b.
2. Karimov, I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: «O'zbekiston». 1997. - 62 b.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi. O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - T.: «O'zbekiston». 2009. - 56 b.
4. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar - taraqqiyot omili. - T.: «O'zbekiston». 1995. - 24 b.
5. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch". T.: «Ma'naviyat», 2008. - 173 b.
6. Karimov I.A. "Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi". - T.: «O'zbekiston», 1997. - 138 b.
7. Mirziyoyev SH. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: «O'zbekiston», 2017. - 102 b
8. Mirziyoyev SH. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: «O'zbekiston», 2016. - 56 b
9. Mirziyoyev SH. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: «O'zbekiston», 2017. - 488 b
10. Mirziyoyev SH. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: «O'zbekiston», 2017
11. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". - T.: «O'zbekiston 1997. - B. 31-61.
12. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi". T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2011. - 40 b.
13. Abdurahimova D. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarni axloqiy ruhda tarbiyalashda xalq e'taklaridan foydalanish. Ped.fan. nom diss. avtoref. - T.: 1998. - 18 b.
14. Azizova Z. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda qo'g'irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarini shakllantirish. - I., 2010. - 90 b.
15. Boboyeva D.R. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o'stirish jarayonida e'taklar asosida atrof-muhit bilan tanishtirish. Ilmiy to'plan. - T.: Nizomiy nomidagi TDPPI. 2000. - 103-105-b.
16. Boboyeva D.R. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining asosiy mezonlari Pedagogik ta'lim. - T.: 2001. 2-son. 65-66-b
17. Boboyeva D.R. Tevarak-atrofni o'rganishda maktabgacha kattayoshdagi bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirish: Ped.fan.nomz. - T.: 2001. - 25 b.
18. Bolalar bog'chasi tarbiyaning mazmuni. Maktabgacha pedagogika. Ikki qismli. I-qism IV.I. Loginova va P.R. Samorukova tahr. ostida. - T.: «Tarbiyachisi», 1991. - 256 b.
19. Komilova G.O. Maktabgacha yoshdagi (5-6 yosh) bolalarga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari. Ped. fan. nomz dis. avtoreferati. - T., O'ZPFTI 2005. - 22 b.
20. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. - T.: Toshkent sh., 2018-yil 18-iyun, 1-mh-son
21. Hamdamova M.T. Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining boshqaruv kompetentsiyasini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish 13.00.07 - ta'limda menejment pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent - 2020, 24 b
22. Maktabgacha pedagogika. - T.: «Tarbiyachisi», 1991. - 256 b.
23. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartlari. - T.: O'z.R.V.Mining 2020 yil 22 dekabr

24. Mahkamova M.Yu. Bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik mulqot madaniyatini shakllantirish: Ped.fan.nomz.... diss. avtoref. - T.: 2002. -22 b.
25. Mahmudova D.Y. Maxsus ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari gapsihologik xizmat ko'rsatishining amaliy jihatlari (Uslubik tavsiyanoma).- T. : Qori Niyoziy nomidagi O'zPFTI 2007. - 9-21-b.
26. Oila pedagogikasi O. Hasanboyevaning umumiy tahriri ostida. -T: Aloqachi, 2007. - 384 b.
27. Ochilov M. Muallim - qalb me'mori. - T: «Tarbiyachi», 2001.-429 b.
28. Ochilov M. Tarbiyachi odobi. - T.: «Tarbiyachi».1997.-132 b.
29. Tuychieva I.I Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tayyorlov guruhi bolalarining fikrlash faolligini rivojlantirish 13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori diss.avtoref.T.2020. 20 b
30. Umarova M. Bolalarda atrof-muhitga mas'uliyati munosabatni shakllantirish (Uslubiy qo'llanma). - TDPJ. 2007. - 95 b.2006. - 20 b.
31. Yusupova P. Maktabgacha pedagogika. - T.:«Tarbiyachi». 1993.-264 b
32. Yusupova P. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiyaberish. - T.: «O'zbekiston», 1995. - 224 b.
33. G'oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. Dorilfununlar talabalar uchun qo'llanma. - T.: «Tarbiyachi», 1990. - 184 b.
34. Hasanboev J., Turpova M., Hasanboyeva O. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. - T.: «G'. G'ulom nomidagi Adabiyot nashriyoti». 2000.-110 b.
35. Hoshimov K., Inomova M., Nishonova S., Hasanov R. Pedagogika tarixi. - T.: «Tarbiyachi», 1996. -447 b.

Elektron ta'lim resurslari

1. www.idpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.ziyounet.uzp

4. www.edu.uz
5. www.google.com
6. www.ndpi.uz
7. www.referat.arkiv.uz

Glossariy (Asosiy terminlar o'zbek va ingliz tillarida, asosiy terminlarning qisqacha mazmuni)

Axloq (lotincha "moralis" - xulq-atvor ma'nosini bildiradi) — ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi.

Axloqiy ong - shaxsga axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalariga o'q'risidagi nazariy bilimlarni berish asosida hosil qilinuvchi ong shakli.

Aqliy tarbiya - shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish. uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkuri va dunyog'arashinshakllantirishga yo'q naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaningmuhim tarkibiy qismi.

Bilim - bolaning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishidaks etuvchi boriq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlarnimajmuyi.

Vatandparvarlik (lotincha "patriotes" - vatandosh, "patris" - vatan, yurt) - shaxsning o'zi mansub bo'lgan millat, tug'ilib o'tsgan vatandarixidand g'ururlanishi, buguni to'g'risida qayg'urishi hamda uningporloq istiqboliga bo'lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat.

Verbal - bilim (ma'lumot, axborot)larni so'z yordamida (og'zakii)yetkazib berish, ifoda etish.

Didaktika (ta'lim nazariyasi) (yunoncha "didaktikos" "o'rgatuvchi", "didasko" - "o'rgatuvchi") - ta'limning nazariy jihatlari(ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, tarbiyachi vabola faoliyati mazmuni, ta'lim

maqsadi, shakl, uslub, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolari)ni o'rganuvchi fan.

Didaktik tashxis maqsadi - o'quv jarayonining samaradorligini aniqlash, baholash va tahlil qilish.

Didaktik tizim (yunoncha "systema" - yaxlit, qismlarda tashkil topgan, birlashtirish) - ma'lum mezonlari asosida ta'lim jarayonining yaxlit holatini belgilash, ajratib ko'rsatish.

Jamoa (lotincha "kollektivus" so'zining tajjimai bo'lib, yig'ilma, ommabirlalikkdagi majlis. birlashma, guruh kabi ma'nolarni anglatadi)- bir necha a'zo (kishi)lardan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh.

Idrok - aniq maqsadga yo'naltirilgan anglash jarayoni.

Ijtimoiy adaptatsiya (yunonch. l adapto - moslashish) - annal bolalarindividual yoki guruhli xulqlarining ijtimoiy qadriyatlar va xulq-atvorqoidalari tizimiga mos kelishi.

Individ (lotincha "individuum" bo'linmas, yagona, alohida deganna' nolarni anglatadi) - xatti-harakatlarini shartli refleks yordamida ginatashkil eta oluvchi biologik mavjudot.

Individuallik - shaxsning o'ziga xos xususiyatlari.

Iqtisodiy ta'lim - bolalarga xo'jalik yuritish tizimi (oilabuyudjetini shakllantirish, xo'jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va hokazolar) to'g'risidagi nazariy bilimlarni berishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Yosh xususiyatlari - muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismaniy) va psixologik) xususiyatlar.

Ko'nikma - olingan bilimlarga asoslanib qo'yilgan vazifalar vashartlarga binoan bajariladigan harakatlarning yig'indisi.

Maktabgacha pedagogika - maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarini tarbiyalash, ularni intellektual ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihlardan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

Malaka - ongli xatti-harakatning avtomatlashirilgan tarkibiy qismi.

Materialni og'zaki bayon qilish uslublari - o'quv materialini mohiyatini og'zaki (hikoya, tushuntirish, maktab ma'ruzasi kabi shakllarda) yoritishda qo'llaniluvchi usullar.

Mashq va o'rgatish (faoliyatda mashqlantirish) uslublari -)Muayyan mashq yordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq vahar tomonlarni puxta tashkil qilish, ularni axloq me'yorlari va xulq-atvorqoidalarini bajarishga odatlantirish usullari.

Uslub - yunoncha tarjimai "tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li" kabi ma'nolarni anglatadi.

Uslubika (fan sifatida) - xususiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Mehnat tarbiyasi - shaxsiga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish. Ular d mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni: ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

Pedagogika (yunoncha "paidagogike" bo'lib, "paidagogos" - bolalayetaklayman) - ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari. Muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot uslublari - shaxsni tarbiyalash. Unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, obyektiv va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullari.

Pedagogik mahorat - bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o'rganadi.

Pedagogik talab - turi xatti-harakatlarini bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida bola tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari.

Rivojlanish - shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Tamoyil (yunoncha "princirium") - biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang'ich qoidasi: boshqaruvchi g'oya, faoliyatining asosiy qoidasi: umumlashtirilgan talab.

Tarbiya - ma'ru'yan, aniq maqsad haqida ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish. uning ongi, xulq-atvori vujudga kelishini tarkib topirish jarayoni.

Tarbiya jarayoni - pedagog va bola (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)larga o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yuqori natijalangan samarali hamkorlik jarayoni.

Tarbiya mazmuni - shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyati.

Tarbiya uslubi (yunoncha "uslubos" - yu'li) - tarbiya maqsadiga erishish yo'li; tarbiyalanuvchilarning ongi, itodasi, tuyg'ulari va xulqida sir etish usullari.

Tarbiya nazariyasi - pedagogikaning muhim tarkibiy qismi: tarbiyaviy jarayon mazmuni, shakl, uslub. vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o'rganadi.

Tafakkur - ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to'laqonli aks etishi inson aqliy faoliyatining yuksak shakli.

Tashxis - didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash.

Tayanch so'zlar lug'ati

O'zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida
maktabgacha	дошкольного	pre-school
ta'lim	образование	education
pedagogika	педагогический	pedagogue
an'analari	традиции	traditions
axloq	поведение	moral
oil	семья	family
madaniyat	культура	culture
qiymatlar	ценности	values
o'quvchi	читатель	reader
sinf	класс	class
shakllantirish	образование	forming
mafkuza	идеология	ideology
sabrsiz	нетерпеливый	patient
mustaqillik	независимость	independence
maqsadi	Цель	purpose
ma'naviyat	духовность	spirituality
metros	наследие	inheritance
uslub	стиль	style
mohiyat	сущность	essence
dunyoqarash	протноз	worldview
xususiyat	особенность	feature
samarador	эффективный	efficient
ongi	осознание	consciousness
katol	Камол	perfection
tuyg'u	чувство	emotion
madaniyat	культура	culture

bunyodkorlik	творческий	creativity
kelajak	будущее	the future
porloq	яркий	bright
faxr	гордость	proud
o'tmish	прошлое	past
milliy	национальный	national
anglash	понять	consciousness
odamlardek	как люди	as people
qadriyatlar	ценности	values
boylik	богатство	wealth
asos	основы	the basis
urf-odat	обычай	tradition
xullas	во всех отношениях	in all respects
дахлдор	относиться к	inclusive
bacha	все	all
g'oya	идея	idea
пахша	образец	sample
tanishish	навстречу	acquaintance
kuzatuv	наблюдение	surveillance
ajouib	замечательный	great
qobiliyat	способность	skill
otzi	мечтать	dreams
imid	надежда	hope
intilish	стремление	aspiration
qalb	душа	heart
ezgulik	гуманизм	goodness
xulq	поведение	behavior
yo'naltirish	перенаправление	redirect
ayniqsa	в частности	especially

xolis	беспристрастный	neutral
talqin	интерпретация	interpretation
tushinish	понимание	understand
o'zlashtirish	разработка	mastering
ta'sir	эффект	effect
mul'oval	благоприятствовать	kindness
tasavvut	воображение	imagination
ijtimoiy	социального	social
siyosiy	политическая	political
sadoqat	верность	loyalty
pazariya	теория	the theory
asosiy	главный	basic
tamoiil	принцип	principle
obyektiv	цель	objective
yo'ndashuv	подход	approach
baholash	оценка	evaluation
tadqiqot	исследование	research
jarayon	процесс	process

BASIC HANDBOOK (GLOSSARY)

Ethics (Latin, "moralis") means the combination of social behaviors and behaviors that govern the behavior of a person, acknowledged and respected by a particular society.

Ethical consciousness - the form of consciousness that is formed on the basis of theoretical knowledge of the moral principles and conduct of a person.

Mental education is a knowledge of the nature of the nature and the development of society. a pedagogical process designed to formulate his / her intellect, ability, and outlook; is an important component of social education.

Knowledge is a set of systematic scientific data on the child's mind that reflects the concept of consciousness, schemes, and the appearance of certain images.

Patriotism (patriot, patriot, patriot, patriot, patriot, patriot, patriot, patriot, homeland, homeland) a manifestation of his confidence in his glorious future.

Verbally - to deliver verbal (verbal) information (informative, informative).

Didactics (Theory of Education) (Greek "didactic" "tutor", "didasko" - "learner") - the theoretical aspects of education (essence, principles, educational principles, learning objectives, shape, style, tools, outcomes, ways to improve the learning process, etc.).

The purpose of didactic diagnosis is to identify, evaluate and analyze the effectiveness of the learning process.

Didactic system (Greek "systema" - a combination of integral parts) - to define the whole process of learning process on the basis of certain criteria.

The team (the Latin word collective word, collective, common, such as association, group, etc.) is a combination of several members (individuals) who are socially significant a team based on a common purpose.

Understanding is the process of perceiving the mind.

Social adaptation (Greek, adaptation) - a system of self-sacrificing rules of social values of individual children or group behaviors.

Individ (Latin, "individuum" means uninterrupted, single, separate) is a biological being created by conditional reflex only.

Individuality - personality traits.

Economic education is a theoretical framework for children's economic development (family budgeting, economics, conservation, growth of wealth, proper organization of trade relations, etc.) pedagogical process aimed at teaching knowledge.

Age characteristics - anatomical, physiological (physical) and psychological characteristics inherent to a particular age.

Skill is the index of activities performed based on the tasks and conditions that are based on the knowledge gained.

Pre-school pedagogy - studying the issues of upbringing of children of preschool age, their intellectual spiritual and moral and physical well-being.

Qualification is an automated component of conscious behavior.

Methods of verbal expression - Methods used to cover the essence of the teaching material in oral (story, narration, school report).

Exercise and Learning Methods - Using a specific exercise to create a rational, consistent and comprehensive child-friendly organization, to adapt them to comply with ethical standards and conduct standards.

Style - Greek Translation means "research, method, way to achieve goals."

Stylistics (as a science) - learns the peculiarities of teaching private subjects.

Labor education is a profound expression of the essence of labor. In them, the Illunosabat, a labor-conscious worker, is also a pedagogical process focused on the formation of certain social skills or professional skills: a component of social training.

Pedagogy (Greek "paidagogikē", "paidagogos" - lead a child) - general laws of social education. It is a science that teaches the essence and problems of educating and educating the younger generation, which is the only social goal in a particular society.

Pedagogical research methods - personality education. Methods of studying and learning the essence of the inner nature of the pedagogical process, revealing the principles, objective and subjective factors of deeply and accurately scientific knowledge in certain directions.

Pedagogical skill - learning the problems of improving the professional skills of future educators.

Pedagogical requirement is the standards of social behavior that must be followed by the child in the conduct of various activities and participation.

Development is a complex process that expresses the essence of quantitative and qualitative changes in the physiological and intellectual growth of an individual.

Principle (yumoneha "principium") is the basis, the basis, the basic principle of any theory: the idea of management, the basic principle of activity: the generalized requirement.

Education is a comprehensive, personalized, purposeful way of life based on socio-historical experience, the process of creating consciousness, behavior and outlook.

The educational process is a productive process of collaboration between a teacher and a child (educator and disciple).

The meaning of education is the essence of the social demands put on the person.

Methods of teaching (Greek "style" - way) - a way of achievement of the educational purpose; the methods of secreting the minds, wills, emotions and behaviors of the pupils.

Pedagogical Theory - An Important Component of Pedagogy: The Purpose of Educational Process, shape, style, methods and methods of its creation.

Thinking is a great form of human mental activity that reflects the social phenomena in the mind.

Clarification of the diagnostic process, identifying its results.

MUNDARIJA

KIRISH

1-Mavzu: Maktabgacha ta'lim taraqqiyoti.	3
2-Mavzu: O'zbekistonda maktabgacha ta'limning tashkil etilishi	4
3-Mavzu: O'zbekiston Respublikasi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risidagi Nizomi	8
4-Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlar to'g'risida nizom	20
5-Mavzu: Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida nizom	29
6-Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish usullari va boshqaruvchining ilmiy saviyasi	35
7-Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik kengash, uning maqsad va vazifalari	58
8-Mavzu: Pedagogik kengashni tashkil etish tamoyillari.	64
9-Mavzu: Metodik boshqaruv - asosiy boshqaruv funksiyalari.	70
10-Mavzu: Maktabgacha ta'limi bo'yicha tomonidan MTT ni nazorat qilish.	76
11-Mavzu: Direktorning tarbiyaviy ishlarga rahbarlik qilishini nazorat qilish.	79
12-Mavzu: Maktabgacha ta'limda pedagogik tizim.	84
13-Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotida bayram ertaliklari va ularni tashkil qilish	89
14-Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotini tashkil etish haqida tushuncha	93
15-Mavzu: Maktabgacha ta'limni tashkil qilish, ro'yhatdan o'tkazish.	98
16-Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining boshqarish mohiyati.	105
17-Mavzu: Ma'naviy boshqaruv, pedagogik jarajonlarni boshqarish.	109
18-Mavzu: Uslubchi faoliyati mazmuni.	118
19-Mavzu: Uslubchi va maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarini malakasini oshirish va attestatsiyadan o'tkazish.	122

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	132
GLOSSARIY	135
Tayanch so'zlar lug'ati	139
BASIC HANDBOOK (GLOSSARY)	142

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI O'LY T'ALIM,
 FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
 CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
 AXBOROT RESURS MARKAZI

R.X.Nosirova, G.A.Gaynazarova, N.T. Tojiboyeva, Z. Qurbonova,
 L. Narimbayeva

MAKTABGACHA TA'LIMDA RAHBARLIK

Darslik

Muharrir:	X. Taxirov
Tehnik muharrir:	S. Melikuziva
Musahhih:	M. Yunusova
Sahifalovchi:	A. Ziyamuhamedov

Nashriyot litsenziya № 2044, 25.08.2020 й

Bichini 60x84¹/₁₆ "Times new roman" garniturası, kegli 14.

Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i. Adadi 100 dona.

Malik prints co MCHJda chop etildi.

Manzili: Toshkent viloyati, Chirchiq shahri,

A. Temur ko'chasi

